

14.2.01.3  
0.37

# GEOGRAFIYA

7

*O'qituvchilar uchun  
uslubiy qo'llanma*



TF0000013584

157  
P. G'ULOMOV, H. VAHOBOV  
R. QURBONNIYOZOV, M. TILLABOYEVA

# GEOGRAFIYA 7

*O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma*




TOSHKENT „O‘QITUVCHI“ 2003

Mahsus muharrir **O. Mo'minov** — geografiya fanlari nomzodi, professor.

Taqrizchilar: **Sh. Zokirov** — geografiya fanlari nomzodi, dotsent, **A. Soatov** — geografiya fanlari nomzodi, dotsent, **S. Sodiqova** — Toshkent viloyati Pedagogika xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'qituvchisi, **M. Maxmanazarova** — Toshkent shahridagi 258- maktabning oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi.

**Osiyo Rivojlanish banki kredit mablag'lari hisobidan DARSLIKLAR  
AYLANMA JAMG'ARMASI (DAJ) uchun chop etildi**




Y-6034

**Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligisiz to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.**

B  $\frac{1805040100 - 65}{353(04) - 2003}$  Qat'iy buyurtma — 2003

ISBN 5—645—03999—8

© „O'qituvchi“ nashriyoti, 2003 y.



## KIRISH

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi geografiya ta’limida alohida o‘rin tutadi. Mazkur kurs bilan umumta’lim maktablarida tabiiy geografiya predmetlarini o‘qitish tugallanib, VIII va IX sinflarda o‘rganiladigan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini o‘rganishga asos yaratiladi.

„O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursi o‘quvchilarni o‘lkaga, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydigan, o‘lka va mamlakatimiz tabiatining o‘ziga xos xususiyatlari va boyliklari haqida bilimlar beradigan yagona kursdir. Shuning uchun mazkur kursni o‘qitishga alohida e’tibor berilmog‘i lozim.

Mazkur uslubiy qo‘llanma VII sinfda „O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishda o‘qituvchilarga yordam ko‘rsatish maqsadida tayyorlandi. Uning asosiy vazifasi — darslikda aks etgan bilimlarning muhim g‘oyasini, har bir mavzuni o‘tish uslublarini ochib berishdir.

Davlat ta’lim standartiga muvofiq „O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursi bo‘yicha o‘quvchilar bilimi, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat.

### **1. O‘quvchilar quyidagilarni bilishlari lozim:**

— tabiiy-geografik rayonlashtirish nima ekanini, Yevrosiyo qanday tabiiy o‘lkalarga bo‘linishini, o‘lkalar chegaralari nimalar asosida o‘tkazilishini, O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning tabiiy rayonlashtirilishini,

— xaritalarni va ularning andazalarini, shartli belgilarini, topografik xaritalarni, ularning masshtabi, shartli belgilarini, vaqt o‘lchovini, mahalliy va mintaqa vaqtini, taqvimlarni, geologik sanani, geoxronologik jadvalni, tog‘ hosil bo‘lish bosqichlarini;

— O‘rta Osiyoning asosiy xususiyatlarini, chekka nuqtalarini, geografik o‘rganish bosqichlarini, aholisini, siyosiy xaritasini, Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlarini, eng yirik tog‘

tizimlari va tog'larni, tekisliklar, vodiylarni, tog'oldi tekisliklari-ni, iqlim hosil qiluvchi omillarni, quyosh radiatsiyasi, to'g'ri, tarqalma va yalpi radiatsiyani, „Siklon“ va „Antisiklon“ tushunchalarini, iqlim mintaqalarini, iqlimning aholi xo'jalik faoliyatiga ta'sirini, o'lkaning berk gidrografik havzada joylashganligini, Orol muammosi va uning kelib chiqish sabablarini, „Tuproq“ tushunchasini, asosiy tuproq turlarini, o'simliklar, hayvonot dunyosining, tabiat zonalari va balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalganligini, milliy bog'lar va qo'riqxonalarni, ekologik muammolarini;

— O'zbekistonning chegaralari, maydoni, aholisi, siyosiy-ma'muriy birliklari, tekshirilish tarixi, yirik relyef shakllarini, Yer yuzasi taraqqiyotining asosiy bosqichlarini, foydali qazilmalari va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, asosiy iqlim hosil qiluvchi omillarini, iqlimning o'ziga xos xususiyatlarini, yirik daryolari, ko'llar, suv omborlarini, yerosti suvlarini, suv va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammolarni, tabiiy-hududiy komplekslarni, qo'riqxonalar, milliy bog'lar va buyurtma hududlar, tabiiy-geografik o'lkalari va ularning asosiy xususiyatlarini.

## **2. O'quvchilar quyidagilarni uddalay olishlari lozim:**

— turli geografik xaritalar va atlaslarda O'rta Osiyo va O'zbekistonni chegaralab bera olishni, xaritalar andazalarini bir-biridan ajratib, uning xatoliklarini tushuntirishni, turli mavzuli xaritalar yordamida O'rta Osiyo va O'zbekistonning ayrim qismlariga tavsiflar tuzishni, topografik xaritalardan foydalanishni, mahalliy va mintaqa vaqtlarini hisoblay olishni. O'rta Osiyo va O'zbekistonda turli tog' hosil bo'lish bosqichlarida shakllangan tog'lar-ni xaritadan ko'rsata olishni. Xaritalardan foydalanib, qazilma konlarining turlarini aniqlay olishni;

— iqlim xaritalari va ularning shartli belgilarini o'qiy olishni va ular asosida ma'lum bir hududning iqlimiga ta'rif berishni;

— tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalaridan foydalanib, ularning tarqalishidagi tafovutlarni aniqlay bilishni.

Uslubiy qo'llanmadagi tegishli talablar hisobga olingan holda o'quv jarayonini tashkil qilishga, o'quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko'ra mustaqil ish bajaruvchi, ijodiy fao-

liyat bilan shug'ullanuvchi shaxs sifatida tarbiyalashga qo'proq e'tibor berildi.

### **Uslubiy qo'llanma uch qismdan iborat:**

Qo'llanmaning **birinchi** qismida nazariy masalalar ko'rilgan. Unda kursning ta'lim-tarbiyaviy masalalari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalalari, o'quvchilarning o'quv faoliyatini, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari ko'rib chiqilgan.

**Ikkinchi** qismda O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining har bir mavzusi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

**Uchinchi** qismda O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish uslublari bayon etilgan.

Qo'llanmada murakkab mavzularni o'rganishga alohida e'tibor berilgan.

Har bir maktabning o'ziga xos jihatlari, imkoniyatlaridan kelib chiqib hamda o'qituvchilarning ko'pyillik pedagogik tajribalariga tayanib, qo'llanmada tavsiya qilingan uslubiy ko'rsatmalardan ijodiy foydalanish talab etiladi.



## *I qism*

### **O'rtasiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'qitish uslubiyatining umumiy masalalari**

#### **„O'rtasiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursining asosiy maqsadlari**

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturiga binoan barkamol avlodni tarbiyalashda o'quvchilarga beriladigan bilimlarning sifati, ularning qobiliyatlari va kelajakdagi hayot talablariga mos dunyoqarashlarini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda „O'rtasiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursi alohida o'rin tutadi. Chunki mazkur kurs mamlakatimiz haqida va O'zbekiston joylashgan tabiiy geografik o'lka haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Mamlakatimiz tabiati, boyliklari, ulardan foydalanish haqida bilimlar berib, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qildi.

Shuning uchun mazkur kursning ta'limiy, tarbiyaviy va o'quvchilarning qiziquvchanligini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadlarini bilish muhim ahamiyatga ega.

#### **Kursning muhim ta'limiy maqsadlari:**

— O'rtasiyo tabiiy-geografik o'lkasi hamda Vatanimiz O'zbekiston haqida va ularning Yevrosiyoda tutgan o'rni haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

— O'rtasiyo va O'zbekiston tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

— xaritalar va ularning andazalari shartli belgilari haqida bilimlar berish;

— topografik xaritalar, ularning varaqlarga bo'linishi va ular bilan ishlash haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

— vaqt o'lchovi, taqvimlar haqida, vaqtni hisoblash haqida tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish;

— iqlim, tuproq, suvlar, tabiat komplekslari haqidagi tushunchalarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish;

— ayrim tabiat komponentlarini, tabiiy-hududiy komplekslar, tabiiy-geografik o'lkalarni tavsifini tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish;

— O‘rta Osiyo va Vatanimiz tabiatini muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlari bilan tanishtirish.

### **Kursning tarbiyaviy maqsadlari:**

— o‘quvchilarni o‘zimiz yashayotgan o‘lkaga, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;

— o‘lkamiz va mamlakatimiz milliy boyliklarini avaylab-asrash, ularga g‘amxo‘rlik qilish, va ulardan tejamkorlik bilan foydalanish haqida bilim va tushunchalar hosil qilish;

— Vatanimiz va o‘lkamiz tabiatini tadqiq etish tarixi o‘rganilayotganda bu yerdan yetishib chiqqan dunyoga mashhur olimlarni, shakllangan buyuk davlatlar va davlat arboblari haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganish jarayonida xalqimizdan va millatimizdan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish;

— O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda ekologik muammolarning keskinlashuvi munosabati bilan mazkur kursning ekologik tarbiya sohasidagi ahamiyatini oshirish.

### **O‘quvchilarning qiziquvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadlar:**

— o‘lka va Vatan geografiyasini bilishga qiziqishni rivojlantirish;

— o‘quvchilarni o‘lka va mamlakat tabiatiga, milliy boyliklariga hamda ekologik sharoitiga nisbatan kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish;

— o‘lka va mamlakatimiz tabiiy sharoiti, ekologik holati bo‘yicha mazkur kurs doirasida geografik muammolarni aniqlashga va yechimini topishga o‘rganish;

— o‘quvchilarda o‘lka va Vatan tabiatida ro‘y beradigan hodisa va jarayonlarga har tomonlama, mulohazali qarashni rivojlantirish;

— O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi asosida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muayyan xulosa va yechimlarini aniqlashga o‘rgatish;

— o‘rganilayotgan kursga oid qo‘shimcha adabiyot va xaritalar bilan ishlash usullarini o‘rgatish.

O‘qitishning maqsadlariga erishish uchun har bir mavzu, bo‘lim va darsning maqsadlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. O‘quv predmeti oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim. Ularning eng muhimlari quyidagilar:



— mazkur kurs bo'yicha geografik hodisa va obyektlarning joylanishi va shakllanishining asosiy qonuniyatlarini tushunishda foydalaniladigan asosiy, yordamchi va qo'shimcha o'quv materiallarini ajratish. O'quvchilar esda saqlab qolishi lozim bo'lgan bilimlarga ko'proq e'tibor berish;

— o'quvchilarda nazariy bilimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

— o'quvchilarning geografik bilimlarni oson, tez va mustahkam o'zlashtirishlariga imkon beradigan o'qitish usullaridan foydalanish;

— o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan, ayniqsa interaktiv usullardan keng foydalanish.

### **O'qitish va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning asosiy shakllari**

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishda o'qishni va o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilishning an'anaviy shakllarini qayta qurish va yangi shakllarini qo'llash muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar V va VI sinflarda „Boshlang'ich tabiiy geografiya“, „Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi“ kurslarini o'rganish jarayonida asosiy va eng muhim tabiiy geografik bilimlar bilan tanishib, tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lib ulgurishgan. Shuning uchun VII sinfda „**O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi**“ni o'rganishda o'quv jarayonining va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning asosiy va muhim shakllari — o'quvchilarning mustaqil bilim olish, fikrlash, xulosa chiqara olish shakllari hisoblanadi. Ta'limning eski an'anaviy shakli bo'lgan bilimni o'qituvchidan o'quvchiga bevosita berilishi hozirgi paytda ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Chunki unda bir xillik va bir qolipda bilim berish ustun turadi. Bu esa o'quvchilarni zeriktirib, geografiya faniga va geografik bilimlarga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi.

Demak, zamon talablaridan kelib chiqqan holda, darslarni va o'quvchilar faoliyatini qayta tashkil qilishning asosiy yo'nalishi — o'quvchilarni bilimlarni mustaqil egallashlariga yo'naltirilgan o'quv shakllarini rivojlantirish va qo'llashdir.

### **VII sinf geografiya kursini o'rganishda darsni qayta qurishning asosiy yo'nalishlari**

Hozirgi paytda geografiya darslarining asosiy maqsadi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'qituvchi tomonidan o'quvchi-

larga bilimlarni to'g'ridan to'g'ri berilishi emas, balki o'quvchilarni mustaqil bilim olishga o'rgatishdir.

Zamonaviy darslarning muhim xususiyati o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi o'zaro aloqalarning o'zgartirilganligi, yani o'quvchilarning bilim olishda o'qituvchi bilan birga ishlashga jalb qilinishidir. O'quvchilarning zerikib qolmasligi va ularning qiziquvchanligi doimo ortib borishi uchun geografiya darslari shakllari va ularni tashkil etish usullari bir-biridan keskin farq qilishi lozim.

O'rta Osiy va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish jarayonida an'anaviy darslardan tashqari sayohat darslari, sinov darslari, konferensiya darslari, o'yin darslari, muammoli darslar katta o'rin tutmog'i lozim.

**Sayohat darslarining** asosiy xususiyati o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning o'ziga xosligidir. O'qituvchi sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lib, har bir guruhga sayohat yo'nalishini belgilab beradi. Xayoliy sayohatga chiqqan o'quvchilar berilgan yo'nalish tabiiy sharoitiga qarab harakat turlarini aniqlashadi. Harakat turlari *piyoda, otda, tuyada, qayiqda, kemada, vertolyotda, poyezdda, mashinada* bo'lishi mumkin. O'quvchilar sayohatda zarur bo'ladigan jihozlar ro'yxatini tuzishlari va zarur rasmlar hamda maketlarni tayyorlashlari, kundaliklar, hisobotlar, xomaki xarita-chizmalar, relyef kesmasi tuzishlari mumkin.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi bo'yicha o'qituvchi quyidagi yo'nalishlarni o'quvchilarga sayohat yo'nalishi sifatida tavsiya etishi mumkin: Qozog'iston past tog'larining shimolidagi Ayirtovdan O'rta Osiyoning janubida joylashgan Kushka shahrigacha; O'rta Osiyoning g'arbiy chekka nuqtasidan sharqiy nuqtasigacha; Chimyon tog'idan Kaspiy dengizigacha; Xorog shahridan Qarag'anda shahrigacha va h. k.

**Sinov darslari** savol-javob (viktoriga), bilimlar ko'rigi, bilim va ko'nikmalar musobaqasi shaklida tashkil qilinishi mumkin. Odatda, ular yirik mavzular o'tilganidan so'ng tashkil qilinsa yaxshi natija beradi. Topshiriqlar turli xil murakkablikka ega bo'ladi. Murakkab topshiriqlar geografiya faniga qiziquvchi o'quvchilarga mo'ljallanadi.

**Konferensiya** (anjuman) darslari yirik bo'lim yoki katta mavzular o'tib bo'linganidan keyin o'tkazilishi ma'qul. Lekin bunday darslarni predmetlararo o'tkazsa ham bo'ladi. Bunda konferensiya darslariga mavzular predmetlararo aloqalar asosida

tanlanadi. Masalan, tarix fani o'qituvchisi bilan birgalikda „**O'rta Osiyo va O'zbekistonda yetishib chiqqan jahonga mashhur olimlar, davlat arboblari va sarkardalar**“ mavzusida konferensiya uyushtirish mumkin. Biologiya fani o'qituvchisi bilan „**O'rta Osiyo va O'zbekistonda tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining relyef va iqlimga bog'liqligi**“, „**Cho'l o'simliklari va hayvonot dunyosining tabiiy sharoitga moslashuvi**“, „**Baland tog' o'simliklari va hayvonlari**“, „**Suv o'simliklari va hayvonlari**“, „**O'rta Osiyo va O'zbekiston qushlari**“ mavzusida konferensiya tashkil qilish mumkin. Konferensiyaning yaxshi o'tishi o'quvchilarni tayyorlashga bog'liq. Avvalo, tanlangan mavzu kichik qismlarga ajratib, o'quvchilarga bo'lib beriladi. O'quvchilar darslik, vaqtli matbuot, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib o'z axborot, hikoya bayonlarini tuzishadi, kerakli ko'rgazma materiallar tayyorlashadi. Konferensiya parallel sinflarni qo'shib tashkil qilinsa, musobaqa tarzida o'tadi. Eng yaxshi axborot bergan o'quvchilar taqdirlansa yaxshi bo'ladi.

**O'yin darslari** o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantiruvchi asosiy o'quv shakllaridan biridir. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda turli xil o'yinlar qo'llanishi mumkin: geografik lotolar (ularda VII sinf geografiya darsida o'rganiladigan o'lkalar chegaralari, tog'larning yo'nalishi, daryolar havzalari, ko'llar, suv omborlari qirg'oqlari va h.k. tasvirlanishi mumkin); O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy xaritasining kesimlari (qismlari) tushirilgan kubiklar; xizmat (rol) o'yinlari, sinov o'yinlari va h.k.

VII sinfdagi geografiya darslarini tashkil qilishda o'yinlardan xizmat o'yinlari ko'proq qo'llanilishi mumkin. Xizmat o'yinlarining asosida taqlid yotadi (olimlarga, jurnalistlarga, turli kasb vakillariga va h.k.). Bunda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari to'la safarbar qilinadi. „O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursi bo'yicha o'quv materiallarining mazmuni geografik sayohatlar, ekspeditsiyalar tashkil qilishda turli xil xizmatlarni (rollarni) bajarishga katta imkoniyat yaratadi. Mazkur sayohatlar va ekspeditsiyalar natijalari bo'yicha o'quvchilar olimlar, sayyohlar, gidrologlar, tuproqshunoslar, ekspertlar sifatida chiqishlari mumkin.

Geografik o'yin darslarini o'tkazish uchun o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- o'yin ssenariysini tuzish;
- xizmatlarni (rollarni) taqsimlash;

- topshiriqlarni belgilash;
- musobaqa muhitini yaratish;
- o‘yin natijalarini rasmiylashtirishni rejalashtirish.

Xizmat o‘yinlaridan yangi mavzuni o‘tishda ham, o‘tilgan mavzuni nazorat qilishda ham foydalanish mumkin. Xizmat o‘yinlari darslari VII sinfda quyidagi mavzularda olib borilishi mumkin: Orol muammosi; O‘rta Osiyoning janubidagi tog‘lar uning shimolida joylashganida o‘lkada qanday tabiiy sharoit vujudga kelar edi? Qozog‘iston past tog‘larining balandligi 1000 m. emas, balki 6000 — 7000 m. bo‘lganda Orol, Balxash va boshqa ko‘llarning maydoni hozirgisiga nisbatan qanday bo‘lar edi?

Bundan tashqari, sinov o‘yinlari ham o‘tkazilishi mumkin. Bunda sinov o‘yini ishtirokchilari ikki guruhga bo‘linadi, har bir guruh o‘z boshlig‘ini tanlaydi, vazifalarni taqsimlaydi, emblema tayyorlaydi, qo‘shimcha adabiyotlardan ma‘lumotlar to‘playdi. O‘qituvchi har bir guruh uchun maxsus topshiriqlar tayyorlaydi. Mazkur topshiriqlar, asosan, savollardan iborat bo‘ladi. Masalan, Orol muammosi bo‘yicha quyidagi savollarni tuzish mumkin: 1. XX asr o‘rtalarida Orol dengizining maydoni va chuqurligi qanday bo‘lgan? 2. Orol dengizining sathi qachondan boshlab, nima sababdan pasaygan? 3. Orol dengizining qurib borayotgani atrof-muhitga qanday ta‘sir etmoqda? 4. Orol dengizining qurishi qanday ekologik muammolarni keltirib chiqardi? 5. Orol muammosini yechishning qanday loyihalarini bilasiz?

„O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursini o‘rganish samaradorligini yanada oshirish uchun har bir darsda qiziqarli ma‘lumotlar topish va ularni o‘quvchilarga yetkazish, muammoli dars usullaridan foydalanish zarur.

### **O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil qilish**


Geografiya o‘qitish metodikasida o‘quvchilar faoliyatini tashkil qilishning uchta shakli mavjud: frontal, individual, guruhli. O‘qitish jarayonida frontal usul ko‘proq qo‘llaniladi. Bunda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan ishlaydi, ular faoliyatini boshqarib turadi. Chunki ularning hammasiga bir xil topshiriq beriladi. Bu kuchsiz o‘quvchilarning qiynalib qolishiga va topshiriqlarni bajarishda orqada qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi hamma bolalarni kuzatib, ularni boshqarib turishi zarur. Lekin dars davomida har

bir o'quvchi bilan individual ishlash qiyin, ammo bu juda zarur. Bunday vaqtda o'qituvchi o'quvchilarning individual farqlariga ko'proq e'tibor berishi va har bir o'quvchi o'qituvchi e'tiborida bo'lishi talab etiladi.

O'qitishni tashkil etishning zamonaviy shakliga guruhli faoliyat shakli mos keladi. Chunki mazkur faoliyat shaklida o'quvchilarning individual farqlari hisobga olinadi.

Guruhli faoliyat shaklida o'quvchilar o'rtasida bevosita o'zaro aloqalar sodir bo'ladi, ular bir-birlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishadi. O'quvchilarning guruhli faoliyatini tashkil qilish quyidagi bosqichlardan iborat: tayyorlov bosqichi, mustaqil ishlash bosqichi, hisobot bosqichi, o'qituvchi umumlashtirishi bosqichi. Tayyorlov bosqichida o'qituvchi quyidagi ishlarni bajaradi: 1) o'quvchilarni 4—5 kishidan iborat guruhlariga bo'lish; 2) guruhlar rahbarlarini aniqlash; 3) topshiriqni ishlab chiqish; 4) jihozlarni tanlash; 5) o'quvchilar egallasi lozim bo'lgan bilimlar bo'yicha topshiriqlar berish; 6) topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlash. Mustaqil ish bosqichida guruh rahbarlari o'quv topshiriqlarini guruh a'zolariga bo'lib chiqadi. Guruhda bajarilgan ishlar natijasi muhokama qilinadi va guruh hisoboti tuziladi. Uchinchi bosqichda sinfda guruh hisoboti muhokama qilinadi. Umumlashtirish bosqichida o'qituvchi guruh ishlarini umumlashtiradi, topshiriqlarning bajarilishini baholaydi, zarur hollarda aniqliklar va qo'shimchalar kiritadi. So'ngra mavzuni yakunlaydi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish davomida guruhli faoliyat shaklidan deyarli hamma mavzularni o'tishda foydalanish mumkin. Masalan, O'zbekiston tabiati, balandlik mintaqalarini o'rganishda o'quvchilarni to'rt guruhga bo'lib, har bir guruhga bittadan mintaqaga ta'rif berishni topshirish mumkin. Har bir guruh rahbari o'z guruhi a'zolariga mintaqaning geografik o'rni, iqlimi, tuproqlari, o'simliklari, hay-



vónlari to'g'risida darslikdan hamda qo'shimcha manbalardan ma'lumotlar yig'ishni topshiradi. Ma'lumotlar to'plangandan so'ng guruh hisoboti yoziladi va sinfda muhokama qilinadi. So'ngra O'zbekistonning cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalarida tabiat komponentlari qanday o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

### **Geografik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish**

Geografik bilimlarning asosini tushunchalar tashkil qiladi. O'quvchilar tomonidan tushunchalarning o'zlashtirilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, geografik tushunchalar mazmunini yodlab olish bilan ularni o'zlashtirib bo'lmaydi. Buning uchun o'quvchilarning bilimni o'zlashtirib olish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish lozim. Mazkur faoliyat VII sinfda turli xil tabiiy-geografik manbalarga tayanadi. Mazkur manbalarga xaritalar, grafikli, raqamli ma'lumotlar, matnlar kiradi. Tushunchalarni shakllantirishning ikkinchi xususiyati shundan iboratki, ular ma'lum bir tizimdan iborat bo'lib, bir tushuncha boshqa tushunchalar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

„O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursida umumiy va xususiy tabiiy geografik tushunchalar tizimlari, kartografik hamda bilishning usullari haqidagi bilimlar tizimi shakllantiriladi.

Umumiy tabiiy-geografik bilimlardan VII sinfda rayonlashtirish, hududiy tabiiy komplekslar, mintaqalar, quyosh radiatsiyasi, siklon, antisiklon frontlar, daryolarning nishabi, qiyaligi, suv sarfi, tuproqlar va boshqa tushunchalar shakllantiriladi.

Kartografik bilimlardan kosmosurat, aerosurat, joy plani, xarita, shartli belgilar, vaqt, taqvim kabi tushunchalar va ular bilan ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi regional kurs bo'lganligidan unda xususiy tabiiy-geografik tushunchalarni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Ularga geomorfologik, geologik, iqlimiy, gidrologik, tuproqshunoslik, geobotanik, zoogeografik tushunchalar kiradi. Xususiy tushunchalar asosini VII sinfda yakka tushunchalar tashkil qiladi. Yakka tushunchalarni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yakka tushunchalarni o'rganish ularni Yer yuzasining ma'lum bir joyiga, geografik xaritalarga bog'lashni talab qiladi. Masalan, Pomir tog'i O'rta Osiyoning qaysi qismida joylashgan? Bunda

Pomir tog'i yakka tushuncha, uni qayerda joylashganligini aniqlash uchun tabiiy xaritaga bog'lash zarur bo'ladi. Shuning uchun yakka tushunchalarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning geografik joylanishidir. Demak, mazkur kursda geografik joylanishni aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Bunda geografik xaritaga suyanish lozim bo'ladi. Yakka tushunchalar umumiy tushunchalar kabi bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Masalan, „Tyanshan“ yakka tushunchasi qator tushunchalar tizimidan iborat (Shimoliy, G'arbiy, Markaziy va Janubiy Tyanshandagi tog' tizmalari) va h.k.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasida yakka tushunchalar umumiy tushunchalar asosida shakllantiriladi. Masalan, O'rta Osiyo va O'zbekiston relyefini o'rganganda „tog', tekislik, pasttekislik, adir, past tog', baland tog'“ kabi umumiy tushunchalardan foydalaniladi. Yakka tushunchalar, o'z navbatida, umumiy tushunchalarni aniqlashtiradi, ularni boyitadi.

Geografiya darslarida tushunchalar, odatda, *induktiv* va *deduktiv* usullar vositasida shakllantiriladi.

Deduktiv usulda, asosan, nazariy bilimlar shakllantiriladi.

Induktiv usulda tushunchalar mahalliy geografik obyektlar va hodisalar misolida shakllantiriladi. Masalan, relyef, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, daryolar, ko'llar, buloqlar, ob-havo va h.k. Induktiv usulda o'quvchilarning kuzatish, qiyoslash, xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlantiriladi. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish davomida ko'proq induktiv usul qo'llanmog'i lozim. Ammo induktiv usul deduktiv usulga qaraganda ko'proq vaqtni talab qiladi.

Agar o'quvchi tushuncha va ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa, quyidagi uchta narsaga to'la javob bera oladi: a) o'rganilayotgan geografik obyekt va hodisalarni to'la tasavvur qila oladi; b) tushunchaning mazmuni va mohiyatini to'la biladi va aytib bera oladi; d) topshiriqlarni bajarishda olgan bilimlaridan yaxshi foydalana biladi.

Geografik tushunchalarni shakllantirishda **L. M. Pancheshnikova** (1983) uchta bosqichni ajratadi va har bir bosqichda qanday o'qitish usullarini qo'llashni ko'rsatib o'tadi. Birinchi bosqichda o'quvchilar tayyor ma'lumotlarni o'zlashtiradi va ularni aytib beradi. Bunda bilimlar ko'rgazmali tushuntirish usulida shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini o'zlariga tanish dars sharoitida qo'llaydilar. Bunda reproduktiv usul qo'llaniladi. Uchinchi bosqichda

o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini yangi o'quv sharoitida qo'llashadi, bunda asosan, *qisman izlanuvchan va izlanuvchan* usullardan foydalaniladi.

**V. A. Korinskaya** va boshqalar (1990) ham „Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi“ kursida bilimlarni shakllantirishning uchta bosqichini ajratishadi: a) yangi tushunchalarni kiritish va ularning asosiy belgilarini ochib berish. Mazkur bosqichda o'quvchilar tushunchalarning mazmuni va mohiyatini o'zlashtirishlari lozim; b) tushunchaning mazmuni chuqurlashtirish va kengaytirish; d) tushunchalar tizimi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish.

„VII sinfda tabiiy geografiya“ kursini o'rganish jarayonida bilimlarni o'zlashtirish uchta bosqichda olib borilishi mumkin:

1. Yangi tushunchalarni o'zlashtirish bosqichi. Mazkur bosqichda yangi tushunchalar mazmuni va mohiyati ochib beriladi. Bunda o'quvchilar yangi tushunchalarning mazmun va mohiyatini o'zlashtirib olmoqlari lozim. Masalan, „Geoxronologik jadval va tog' hosil bo'lish bosqichlari“ tushunchasi. O'quvchilar eon, era, davrlar, tog' hosil bo'lish bosqichlari va ularning nomlarini o'zlashtirib oladilar.

2. O'rganilgan yangi tushunchalar chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi hamda tanish o'quv sharoitida qo'llaniladi. Bunda har bir erada qaysi tog'lar qanday tog' hosil bo'lish bosqichida ko'tarilgani, O'rta Osiyoda qaysi joylar ko'tarilib, qayerlari suv ostida qolgani aniqlanadi. Mazkur tushuncha va ko'nikmalardan foydalangan holda o'quvchilar har bir tog' hosil bo'lish bosqichida qanday tog'lar shakllanganligini aniqlay olishlari lozim.

3. Bilim va ko'nikmalarni yangi o'quv sharoitida qo'llash va tushunchalar tizimini bir-biri bilan bog'liqligini asoslab berish bosqichi. Mazkur bosqichda o'quvchilar O'zbekistondagi tabiiy-geografik o'lkalarda qaysi tog'lar qaysi tog' hosil bo'lish bosqichida shakllanganini 7-sinf atlasidagi mavzuli xaritalardan foydalanilgan holda aniqlay olishlari lozim.

VII sinfda sabab va oqibatlar bog'lanishlari, qonuniyatlar, tasavvurlar shu uch bosqichda shakllantiriladi.

### **Darslikning tuzilishi va mazmuni**

Shu paytgacha VII sinflar uchun O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi va O'zbekiston tabiiy geografiyasidan alohida-alohida darslik mavjud edi. Endi qaytadan ishlab chiqilgan yangi o'quv



dasturiga mos ravishda yaxlit bitta darslik tayyorlandi. Mazkur darslik kirish va ikkita bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, ikkinchi bo'limda esa O'zbekiston tabiiy geografiyasi o'rganiladi. Yangi darslikda O'rta Osiyo regional hududlari ta'rifi hajmi va tuzilishi keskin kamaytirildi va o'zgartirildi. Chunki, O'rta Osiyo tabiiy o'lkalari tavsifi O'zbekiston tabiiy geografiyasida ham qaytarilar edi.

**Darslikning O'rta Osiyo tabiiy geografiyasiga bag'ishlangan birinchi bo'limida** oltita yirik mavzu o'rganiladi: 1) *O'rta Osiyoning umumiy tabiiy-geografik tavsifi*; 2) *geografik xaritalar, atlaslar globus va ular bilan ishlash*; 3) *O'rta Osiyoning geologik tuzilishi va relyefi*; 4) *O'rta Osiyo iqlimi, suvlari*; 5) *O'rta Osiyo tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi*; 6) *O'rta Osiyoning hududiy tavsifi*.

„*O'rta Osiyoning umumiy tabiiy geografik tavsifi*“ to'rtta qismdan iborat (2, 3, 4, 5- §). Mazkur mavzuda O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi haqida, uning geografik o'rni, chegaralari va o'ziga xos xususiyatlari, tekshirilish tarixi, aholisi va siyosiy xaritasi haqida bilimlar, ko'nikmalar va malakalar shakllantiriladi.

„*Geografik xaritalar, atlaslar, globuslar va ular bilan ishlash*“ mavzusida xaritalar andazalari va ularning ahamiyati, xaritalarning turlari, shartli belgilari, topografik xaritalar va ulardagi foydalanish, vaqt o'lchovi haqida bilimlar beriladi va amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

„*O'rta Osiyoning geologik tuzilishi va relyefi*“ mavzusi u qismdan iborat bo'lib, unda geologik vaqt hisobi, geoxronologik jadval, tog' hosil bo'lish bosqichlari, o'lka foydali qazilmalari va asosiy relyef shakllari (tekisliklar, tog'lar) haqida bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi.

„*O'rta Osiyo iqlimi, suvlari*“ mavzulari yirik mavzulardan hisoblanadi, bularda o'lka iqlimi va ichki suvlari tavsifi bilan birga iqlim va daryolarga tegishli umumiy tushunchalar ham shakllantiriladi (siklon, antitsiklon, frontlar, termik depressiya, nishablik, qiyalik, suv sarfi va h.k.)

„*O'rta Osiyoning tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi*“ mavzusida; tuproq haqida, o'lka tuproqlari, o'simliklari, hayvonot dunyosi va tabiat zonalari haqida bilimlar beriladi va tegishli ko'nikmalar shakllantiriladi.

Birinchi bo'limning oxirgi mavzusi „*O'rta Osiyoning hududiy tavsifi*“ga bag'ishlangan. Unda o'lkaning rayonlashtirilishi va ajra-

tilgan tabiiy-geografik birliklar haqida umumiy bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi.

**Darslikning ikkinchi bo'limi** O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishga bag'ishlangan. Mazkur bo'limda yakka tushunchalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor beriladi. Ikkinchi bo'limni mantiqiy jihatdan uch qismga bo'lishimiz mumkin. *Birinchi* qismda O'zbekistonning geografik o'rni, chegaralari, aholisi va siyosiy-ma'muriy bo'linishi, tekshirilish tarixi ochib berilgan. *Ikkinchi* qismi mamlakatimizning tabiiy geografik tavsifiga bag'ishlangan. Unda Vatanimiz Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari, geologik tuzilishi, rivojlanish tarixi, foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tabiat mintaqalari bo'ylab tarqalishi, tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari haqida bilimlar berilgan. Bo'limning *uchinchi* qismida O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish muammosi va tabiiy geografik o'lkalariga tavsif berilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, darslikning tuzilishi, beriladigan bilimlar mazmunini ochib berishning uzluksizligi bo'limlar va qismlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni aks ettiradi.

„O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi“ kursining asosiy g'oyasi O'lkaning yaxlit berk havzada joylashgan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan hudud ekanligi haqidagi g'oyadir.

O'lka tabiatining turli tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro aloqalar kursning ikkinchi nazariy g'oyasi hisoblanadi.

Mazkur kursda jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir g'oyasiga ham katta o'rin ajratilgan. Bu g'oya mazmuni Orol muammosi, mamlakatimiz tabiatini muhofaza qilish mavzulari orqali ochib beriladi.

Darslikda umumiy metodologik xususiyatlarga ega bo'lgan bilimlarga ham anchagina e'tibor berilgan. Mazkur bilimlar geografik bilishning usullari, bilimlarning asosiy manbalari va ular bilan ishlash usullari va h.k. Masalan, xaritalarning turlari, shartli belgilari, topografik xaritalar va h.k.

O'quvchilarning qiziquvchanligini oshirish uchun darslikning maqsadi va mazmunini asoslab berish lozim bo'ladi. O'quvchilarda mazkur kursga qiziquvchanlikni oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim: a) geografiya fanining maqsadi va vazifalari, o'rganish obyekti, geografik bilimlarning jamiyat, har bir inson hayoti va faoliyatidagi o'rni va ahamiyati;

b) tabiatni va uning komponentlarining hamda tabiat komplekslarining aholining hayoti va xo'jalik faoliyatidagi o'rnini va ahamiyatini ko'rsatib berish; d) o'quvchilarni tabiat muhofazasi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, tabiatni inson tomonidan o'zgartirilishi muammolari bilan tanishtirish; e) O'rta Osiyo va O'zbekistonda tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning kishilar hayoti va faoliyatidagi ahamiyati va mamlakatimiz tabiatini inson faoliyati ta'sirida o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni keltirish hamda ularni baholash va h.k.

### **Darslik matnining tarkibiy qismlari**

Darslik matnini o'quvchilar oson va tez tushunishi uchun ular har bir paragrafda berilgan matnning tarkibiy tuzilishini bilishlari lozim. Matnning tarkibiy tuzilishiga quyidagilar kiradi (Korinskaya va boshq., 1990): a) umumiy geografik tushunchalarni aniqlash. Bunday tushunchalarga xarita, iqlim hosil qiluvchi omillar, geologik sana, vaqt o'lchovi, tabiat mintaqalari va h.k; b) hududdagi tabiiy-geografik jarayonlar va hodisalar tavsifi kiradi. Tavsiflarda tegishli tushunchalarning va o'rganilayotgan hududning, hodisa va jarayonlarning asosiy belgilari va xususiyatlari beriladi. Darslikda hududlarning iqlimi, o'simligi, tuprog'i va tabiiy-geografik birliklari tavsifiga katta o'rin ajratilgan; c) tabiiy geografik hodisa va jarayonlarning kelib chiqishini asoslab berish. Matnning mazkur qismida sabab va oqibatlar tavsifiga katta e'tibor beriladi; d) turli xil mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlar masalan, geografik nomlar, raqamli ma'lumotlar; e) xulosalar. Xulosalarda mazmunan tugallangan ma'lumotlar ta'kidlanadi; f) bilim va malakalarni tekshirish uchun savol va topshiriqlar tizimi beriladi.

### **Darslikning uslubiy jihozlanishi**

Darslikda matndan tashqari beriladigan komponentlar ham bo'ladi. Darslikni uslubiy jihozlash komponentlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— didaktik ko'rgazma materiallar — xaritalar; fotorasmlar, diagrammalar, chizmalar, kesmalar va b. Darslik turli xil fotosuratlar, xaritalar, chizmalar bilan jihozlangan. Ularning ko'pi rangli tasvirda berilgan;

— darslikdagi savol va topshiriqlar. Darslikda savol va topshiriqlar matndan oldin va keyin berilgan. Matndan oldin berilgan savol va topshiriqlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni yangi

mavzuni o'rganishga tayyorlashdir. Buning uchun quyidagilarni eslash lozim bo'ladi: a) tushunchalarni mazmun va mohiyatini, muhim sabab va oqibatlarini va V hamda VI sinflarda o'rganilgan geografik obyekt, jarayon va hodisalarning xususiyatlarini; b) har bir xaritaning ahamiyatini va xaritalar yordamida geografik obyektlar, hodisa va jarayonlarning rejasini tuzish va h.k.

Matndan oldin berilgan topshiriqlarning asosiy vazifasi xaritalardan zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishdir. Masalan, ma'lum bir obyektning geografik joylashishi, hududning kattaligi, iqlim mintaqalari, balandlik mintaqalari, foydali qazilmalar va boshqalarni aniqlash. Bunda o'quvchilar ma'lum izlanuvchanlik faoliyati bilan shug'ullanadilar.

Matndan so'ng berilgan savol va topshiriqlarning asosiy maqsadi berilgan bilimlarni mustahkamlashdir. Bu savol va topshiriqlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- matndagi asosiy material asosida berilgan;
- bilimlarni amalda qo'llashga imkon beradi;
- ijodiy xususiyatga ega;
- o'quvchilarni darslik matnidan foydalanishga majbur etadi.

Matnning oxirida berilgan topshiriqlar, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ularning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat: 1) geografik tushunchalarning muhim belgilarini tahlil qilish (Balandlikka ko'tarilgan sari havo harorati qanday o'zgaradi? O'zbekiston relyefi qaysi tomonga pasayib boradi? Mamlakatimizdagi tabiiy-geografik o'lkalarning asosiy xususiyatlari qanday?); 2) sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlash (Nima uchun O'rta Osiyo cho'llarida yozda termik depressiya hosil bo'ladi? O'rta Osiyo tog'laridagi balandlik mintaqalarining soni nimaga bog'liq?); 3) turli xil geografik o'lkalarni bir-biri bilan taqqoslash (Farg'ona va Qashqadaryo tabiiy-geografik o'lkalarini taqqoslang).

Topshiriqlar o'quvchilarni geografik tadqiqotlarning oddiy usullari bilan tanishtiradi (*kartografik, qiyosiy, kuzatish, tavsiflash*).

### **Ozbekiston tabiiy geografiyasi kursining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati**

Vatan tabiiy geografiyasini o'qitishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishning o'ziga xos jihatlari haqida alohida to'xtab o'tishni lozim topdik.

VII sinf O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish bilan maktab tabiiy geografiya kurslarini o'rganish yakunlanadi. Fan-texnika taraqqiyoti tufayli yig'ilgan va takomillashgan ko'pgina geografik tushunchalar, ilmiy tadqiqot natijalari ma'lum tizimga solinadi.

**Kursning ta'limiy vazifasi.** O'quvchilar ongida yangi umumiy tushunchalarni shakllantirish va tabiiy geografiyaning ilmiy asoslarini takomillashtirish O'zbekiston tabiiy geografiyasining eng muhim ta'limiy ahamiyatlaridan biri sanaladi.

Bu kursning eng muhim ta'limiy vazifasi, aniq hudud misolida tabiiy sharoitni hozirgi zamon ilmiy ma'lumotlari asosida o'rganishdan iborat.

O'zbekiston hududida uning tabiati, iqlimi resurslarini tadqiq qiluvchi o'nlab ekspeditsiyalar meteorologik va gidrometeorologik postlar, qo'riqxonalar, ilmiy kuzatish olib boruvchi boshqa tashkilotlar borki, ular mamlakatimiz tabiiy komponentlari to'g'risida tadqiqotlar olib boradilar va bormoqdalar.

Ular yiqqan ma'lumotlar kursni o'rganishda yirik ilmiy manba hisoblanadi. Bu ma'lumotlar mamlakatimiz tabiiy komponentlari o'rtasidagi murakkab aloqadorlik masalalarini ochib berishda, tabiiy, hududiy komplekslarining xilmaxilligini ko'rsatishda O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan tabiiy jarayonlarni o'rganishda juda qo'l keladi. Yuqoridagi ta'limiy vazifalarni o'rganilayotgan hudud to'g'risida o'quvchilar ongida aniq tasavvurlar hosil qilish orqali bajarish mumkin.

Tasavvurlar qachonki aniq bilimlar bilan boyitilsagina, u o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

Kursning muhim ta'limiy vazifalaridan yana biri o'quvchilarda tabiiy-geografik, kartografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda takomillashtirishdan iborat. O'quvchilarda zarur ko'nikma va malakalar shakllantirilmas ekan, ular kelgusidagi hayot faoliyatiga tayyor bo'la olmasligi aniq

O'quvchilarda davlat ta'lim standarti asosidagi zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirishga oid savol va topshiriqlar darslikda batafsil keltirilgan. Aksariyat tabiiy-geografik ko'nikmalarni hosil qilishda xaritalar bilan ishlash asosiy o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston geografik atlas (1999- y) katta imkoniyatlarga ega.

Kursning ta'limiy vazifalarini hal qilishda o'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlarini uyushtirish ham katta ahamiyatga ega. O'quvchilar bilimlarni mustaqil egallay olsalargina, ular geografik fikrlay olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar geografik fikrlash orqaligina voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni, aloqadorlikni aniqlash, ularni xaritaga bog'lay olish kabi jarayonlarni mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

O'quvchidagi mavjud geografik fikrlashni xarita bilan uyg'unlashtirish mamlakatimizning xilma-xil tabiat komplekslarini batafsil tushunishga imkon yaratadi.

O'zbekistonning geografik atlasidagi tabiiy xaritalarni u yoki bu hududga oid aerosuratlar, rasmlar, kosmosdan olingan suratlar, diafilmlar, slaydlar, kinofilmlar bilan qiyoslash shu hududga oid bo'lgan tipik xususiyatlarni aniqlashga imkon yaratadi. O'quvchilarda geografik fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchi o'z ixtiyorida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatdan unumli foydalanishi kerak. Ayniqsa, o'qituvchining jonli so'zi, yangi pedagogik texnologiya elementlari, darslik bilan ishlash, sinfdan tashqari ishlar, to'garaklar, ekskursiya kursning ta'limiy vazifalarini hal qilishda yetakchi omillar hisoblanadi.

**Kursning tarbiyaviy vazifasi.** O'quvchilar O'zbekistonning tabiiy geografiyasini o'rganish jarayonida fanning ilmiy-nazariy asoslarini egallash bilan birga mamlakatimizning tabiiy sharoiti, boyliklari, maftunkor obyektlari bilan g'ururlanish xislatlariga ham ega bo'lib boradilar.

O'quvchilar mustaqil O'zbekistonimizning o'tmishi, kelajagi haqidagi bilimlar bilan tanishadilar. Kursni o'rganish jarayonida o'quvchilarda o'z Vataniga muhabbat, o'z o'lkasini sevish kabi xislatlar shakllanadi. O'quvchilarni qadimda otabobolarimiz tomonidan tabiatni asrab-avaylab saqlanishi borasidagi qadimiy urf-odatlar bilan tanishtirib borilishi kursning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytiradi. Kursning har bir mavzusi o'quvchilarga tarbiya elementlarini singdirish va shakllantirish imkoniyatiga ega.

O'quvchilarni mamlakatimizning tabiatini qo'riqlash borasida qabul qilingan qonunlar tizimi bilan tanishtirib borish O'zbekiston tabiiy geografiyasining tarbiyaviy jihatini yanada oshiradi.

Tabiatni kelajak avlod uchun asrab-avaylash zarurligi har bir mavzu misolida ochib borilishi maqsadga muvofiqdir.

## **O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish tartibi**

O'zbekiston tabiatining tavsifi uning tabiiy komponentlariga tavsif berishdan, ya'ni Yer yuzasi, uning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, tabiati va uni muhofaza qilishni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Bu an'anaviy o'rganish tartibi aksariyat mamlakatlarda qo'llaniladi. Xuddi shunday o'rganish tartibi o'quv dasturida ham qayd qilingan.

O'zbekistonning tabiiy geografiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan 2 ta qismdan iborat.

1. „O'zbekiston tabiatining umumiy tavsifi“

2. „O'zbekistonning tabiat komplekslari“ (tabiiy o'lkalari).

Birinchi qism „O'zbekistonning geografik o'rni“, „Chegaralari“, „Aholisi va ma'muriy xaritasi, tabiati va tabiiy boyliklarini o'rganish tarixi“ kabi mavzulardan iborat. Bu qismda o'quvchilar diqqati mamlakatning geografik o'rni, chegaralarining o'ziga xos xususiyatlari, hududining kattaligi, davlat chegaralarining muqaddasligi kabi masalalarga qaratiladi.

„Respublika aholisi va ma'muriy xaritasi“ mavzusida o'quvchilar mamlakat aholisining soni, tarkibi, zichligi, ma'muriy tuzilishi kabi bilimlar bilan tanishadilar va ularni egallaydilar.

„O'zbekiston tabiatining umumiy tavsifi“ qismida mamlakatimiz tabiatiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar atroflicha o'rganiladi va quyidagi jarayonlar chuqur ochib beriladi.

1. O'zbekistonning tabiatiga xos eng muhim xususiyatlar. Bu xususiyatlarning turli hududlarda farqlanish sabablari.

2. O'zbekistonning eng muhim tabiiy boyliklari.

3. O'zbekiston hududida amal qiluvchi eng muhim tabiiy geografik qonuniyatlar va h.k.

Umumiy qismda O'zbekistonning tabiat komponentlarini o'rganish bilan birgalikda ko'pgina yangi umumiy tushunchalar ham beriladi.

Ikkinchi qism O'zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirishdan, ya'ni tabiiy o'lkalarga bo'linishidan, oshlanadi. Bunda har bir tabiiy o'lkaning o'ziga xos tabiiy xususiyatlarga ega ekanligi va o'lkalarni ajratishda ham ana shu xususiyatlar asos qilib olinganligiga alohida urg'u beriladi. Shundan keyin har bir o'lka tabiati quyidagi tartibda o'rganiladi:

- 1) geografik o'rni va chegaralari, tarkibiy qismlari;
- 2) Yer yuzasi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari;
- 3) iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi;
- 4) tabiatidan va tabiiy boyliklaridan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish.

Bu har bir bo'limni o'rganishda o'lkaning o'ziga xos xususiyatlarini alohida ta'kidlash talab etiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni darslik, qo'shimcha adabiyot va boshqa ma'lumot manbalaridan foydalanib, mustaqil ishlashga jalb etish ko'zda tutiladi.

---







## II qism


### „O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi“ mavzulari bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

#### 1- dars

#### Darsning mavzusi. Kirish.

 **Darsning maqsadi.** Mazkur kursning maqsadi va vazifalarini ochib berish; o‘quvchilarni o‘lkaga, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash; o‘quvchilarga ekologik tarbiya berish; o‘quvchilarning o‘lka va Vatan tabiatini o‘rganishga qiziquvchanligini rivojlantirish.

 **Ko‘rgazma materiallar.** Dunyo tabiiy xaritasi. Yevrosiyo tabiiy xaritasi, Osiyo tabiiy xaritasi, O‘rta Osiyo tabiiy xaritasi, O‘zbekiston tabiiy xaritasi.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur kurs bo‘yicha „Kirish“ mavzusini o‘rganishga bir soat ajratilgan. Mavzuni tushuntirish va suhbat usullarida o‘rganish yaxshi natija beradi. „Kirish“ mavzusini o‘rganishni ikki qismga bo‘lish mumkin. **Birinchi qism** tashkiliy qism bo‘lib, bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga mazkur kurs va darslik haqida axborot beradi. Darslikning tuzilishini va undan qanday foydalanishni tushuntiradi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilarga darsga doimo darslik, atlas, yozuvsiz xarita, jadval, sirkul, rangli qalamlar va ruchka olib kelishlarini uqtiradi.

**Ikkinchi qismda** kursning maqsadi va vazifalari ochib beriladi. Bunda o‘qituvchi quyidagilarga e‘tibor bermog‘i lozim bo‘ladi:


— geografik qobiq ham suv va quruqlik yuzasiga bo‘linishini, quruqlikning materiklar va qit‘alarga bo‘linishi, materik va qit‘alarning esa yirik tabiiy-geografik o‘lkalarga bo‘linishini tushuntirib beriladi. Bunda xaritalardan keng foydalanilmog‘i lozim;


— mamlakatimiz joylashgan O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi qaysi materik va qit‘ada joylashganligi va ularning asosiy xususiyatlari haqida bilimlar beriladi;


— mazkur kursning mazmuni, maqsadi va vazifalari ochib beriladi. O‘quvchilarning qiziquvchanligini kuchaytirish maqsadida o‘lka va Vatan tabiatini o‘rganishning amaliy ahamiyati tushuntiriladi. Masalan, tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarni xalq xo‘jaligini rivojlantirishdagi o‘rni. Bunda ekologiya fani tabiatdan va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolariga

qaratilmog' i lozim. O'lkadan chiqqan mashhur olimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi;


 **Atoqli nomlar.** Al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Bobur.

 **Atama va tushunchalar:** geografik qobiq, materik, qit'a, tabiiy-geografik o'lka.


 **Geografik obyektlar:** Yevrosiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Antarktida, Avstraliya, Tinch okean, Atlantika okeani, Hind okeani, Shimoliy Muz okeani, Osiyo, O'rta Osiyo, O'zbekiston.


 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** O'zbekiston Respublikasi. T., 1996; *Baratov P.* O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T., 1996; *Николаев П. А.* Ландшафти Азиатских степей. М., 2002; *Qoriyev M. K.* O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T., 1968.


### **Savol va topshiriqlar**


-  1. O'rta Osiyo va O'zbekiston qaysi yarim sharda joylashgan?
2. O'rta Osiyo va O'zbekiston qaysi materik va qit'ada joylashgan?
3. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi kurslarining maqsadi nima?
4. O'rta Osiyoni qanday tabiiy-geografik o'lkalar o'rab turishini Yevrosiyo tabiiy xaritasidan aniqlab, ularning nomlarini daf-taringizga yozing.

## **2- dars**

 **Darsning mavzusi.** O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi haqida tushuncha.

 **Darsning maqsadi.** O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi haqida bilimlarni shakllantirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo, Yevrosiyo va Osiyo ta-biiy xaritalari.


 **Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur dars tushuntirish usulida olib borilishi lozim, chunki darsning asosiy mazmunini o'rganishdan avval o'qituvchi tabiiy-hududiy komplekslar va ularning birliklari haqida o'quvchilarga tushunchalar berishi darkor.


Tabiat kompleksi deb, Yer yuzasining tabiat komponentla-rining o'zaro murakkab ta'siri natijasida tarkib topgan hamda tabiatining xususiyatlariga ko'ra boshqa joylardan farq qiladigan


qismlariga aytiladi. Eng katta tabiiy kompleks geografik qo'biq ekanligi, u quruqlik va suvlikka bo'linishi, suvlik okeanlarga, quruqlik materiklarga bo'linishi haqida ma'lumotlar beriladi. Tabiiy-hududiy komplekslar qanday kattalikda bo'lishidan qat'iy nazar muayyan hududni egallashi misollar orqali tushuntirilmog'i lozim. Masalan, O'rta Osiyo, Turon tekisligi, Pomir, Tyanshan, Qozog'iston past tog'lari va h.k. Har bir tabiiy-hududiy kompleksni bor butunligi hududni kelib chiqish va rivojlanishi tarixidagi, geologik-geomorfologik tuzilishidagi, gidroiklimiy, biogeografik xususiyatlarining umumiylikligiga asoslanishi atroflicha va chuqur tushuntirilishi lozim.


Shundan so'ng suhbat usulida Yevrosiyaning tabiiy-geografik o'lkalarga bo'linishi aniqlab olinadi va tabiiy-geografik o'lkalardan biri O'rta Osiyo ekanligi asoslab beriladi.

O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasining turlicha nomlanish haqida ham ma'lumotlar beriladi. Masalan, Movarounnahr, Turkiston, G'arbiy Turkiston, Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo. O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi o'zining tabiiy sharoiti, tabiiy-geografik xususiyatlariga ega bo'lgan, boshqa o'lkalardan tabiiy chegaralari bilan keskin ajralib turadigan yirik tabiiy-hududiy kompleks ekanligi misollar yordamida tushuntiriladi. So'ngra O'rta Osiyo qadimgi fan va madaniyat markazlaridan biri ekanligi asoslab beriladi (qadimgi shaharlar, olimlar, davlat arboblari va h.k.)

 **Atoqli olimlar va sayyohlar, davlat arboblari:** Ahmad Farq'oniy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Shayboniyxon, Mashrab, al-Buxoriy, At-Termiziy, Bahouddin Naqshband.

 **Atama va tushunchalar:** geografik qo'biq, tabiiy-hududiy komplekslar, tabiiy-geografik o'lka, muzlik, dasht, subtopik, vodi.


 **Geografik obyektlar:** Yevrosiyo, Osiyo, O'rta Osiyo, Termiz, Qoraqum.


 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** *H.A. Kogay.* Туранская физико-географическая провинция. Т., 1974; Средняя Азия. М., 1971; *Qoriyev M. K.* O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Т., 1971; *Baratov P. Rafikov A. A. Matmatqulov M. M.* O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Т., „O'qituvchi“, 2002.


## ❓ Savol va topshiriqlar


1. Yevrosiyo qanday tabiiy-geografik o'lkalarga bo'linadi?
2. Yevrosiyaning tabiiy-geografik o'lkalari chegaralari qanday tabiiy belgilarga qarab o'tkaziladi?
3. Qaysi qatorda olim, shoir va davlat arboblari keltirilgan (test).
  - A. Beruniy, Ulug'bek, At-Termiziy.
  - B. Al-Farg'oniy, Ulug'bek, Al-Buxoriy.
  - C. Ulug'bek, Bobur, Shayboniyxon.
  - D. Rudakiy, Navoiy, Mashrab.
  - E. Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Bahouddin Naqshband.

### 3- dars

 **Dars mavzusi.** O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasining geografik o'rni, chegaralari va o'ziga xos xususiyatlari.

 **Darsning maqsadi.** „Geografik o'rin“ tushunchasini shakllantirish, O'rta Osiyaning geografik o'rni, chegaralari va o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** Yevrosiyo va Osiyo tabiiy xaritasi, O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, globus.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** „Geografik o'rin yoki joylashish“ tushunchasi geografiya fanining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, juda ko'p tabiiy va iqtisodiy-geografik qonuniyatlarni ochib berishda muhim o'rin tutadi. Uning ahamiyati, ayniqsa, regional geografik sharoitning shakllanishida juda muhimdir. Geografik o'rin deganda quyidagi tushunchalar ko'zda tutiladi: umuman geografik joylashishi; matematik-geografik joylashishi; tabiiy-geografik joylashishi; iqtisodiy-geografik joylashishi.

Umuman olganda, geografik joylashish — bu Yer yuzasidagi ayrim nuqtaning yoki joyning shu nuqta yoki joydan tashqaridagi hudud yoki obyektga nisbatan joylashgan o'rnidir. Masalan, Qizilqum cho'lini Yer yuzasidagi boshqa cho'llarga nisbatan, okeanlarga, tog'larga va h.k.ga nisbatan joylashgan o'rni; O'zbekistonning Markaziy, Janubiy, Janubi-g'arbiy Osiyo va Yevropa davlatlariga, dengiz yo'llariga nisbatan joylashishi.

Matematik-geografik joylashish deganda har qanday nuqtaning ekvatorga va bosh meridianga nisbatan joylashishi tushuniladi. Geografik joylashishning ushbu tushunchasi haqida bilim va ko'nikmalar shakllantirilayotganda ekvator, bosh meridian, parallellar, kenglik, uzunlik, geografik koordinatalar va ularni aniqlash usullari eslatib o'tilishi shart.

Tabiiy-geografik joylashish — biror tabiiy o'lka, mamlakat, joy yoki nuqtaning boshqa tabiiy obyektga (materiklar, tog'larga, okeanlarga, dengizlarga, daryolarga va h.k.) nisbatan joylashishi Mamlakatning tabiiy-geografik joylashishi uning iqtisodiy rivojlanishiga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Tabiiy-geografik joylashish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— o'lka yoki mamlakat joylashgan materik yoki qit'aning qismi (markazida, dengiz bo'yida, tog' oldida, tekislikda, shimolida, sharqida, janubida, g'arbida va h.k.). Masalan, O'rta Osiyo, Yevrosiyo materigining o'rtasida joylashgan;

— ekvator va bosh meridianga nisbatan joylanishi. O'rta Osiyo ekvatoridan shimolda (shimoliy yarim sharda). Bosh meridiandan sharqda (sharqiy yarim sharda) joylashgan chekka nuqtalarining koordinatalari;


— okeanlarga, dengizlarga, issiq yoki sovuq havo massalari-ga, tog' tizmalariga, Yerning iqlim mintaqalariga nisbatan joylanishi. O'rta Osiyo okeanlardan ancha olisda joylashgan. Uning tabiiy sharoitiga Atlantika va Shimoliy Muz okeani tomonidan keladigan havo massalari katta ta'sir ko'rsatadi. Unga eng yaqin joylashgan Hind okeani baland tog'lar bilan to'silgan, shuning uchun uning ta'siri sezilmaydi. O'rta Osiyo shimoliy mo'tadil iqlim mintaqasining janubiy qismida joylashgan, uning janubiy qismi shimoliy subtropik iqlim mintaqasida joylashgan;


— o'lka yoki mamlakat qaysi tabiat mintaqasi doirasida joylashganligi. Masalan, O'rta Osiyo dasht, chalacho'l va cho'l mintaqalari zonalarida joylashgan.


So'ngra O'rta Osiyoning chegaralari dastlab xaritadan ko'rsatiladi, undan keyin chegara sinf doskasiga chiziladi, bunda g'arbiy, shimoliy, sharqiy va janubiy chegaralar qaysi geografik obyektlardan o'tishi aniq tasvirlanmog'i lozim. Chizmada o'lkaning chekka nuqtalari ham ko'rsatilishi shart.


Shundan so'ng O'rta Osiyoning o'ziga xos xususiyatlari asoslab beriladi. Darsning bu qismini suhbat usulida tashkil qilish mumkin. Unda o'quvchilarga suhbat uchun quyidagi savollar berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: O'rta Osiyo qayerda joylashgan? O'rta Osiyoga eng yaqin okean qaysi? O'rta Osiyoda qish qanday bo'ladi? O'lkada yozda ob-havo qanday bo'ladi? O'rta Osiyoning eng baland va eng past nuqtalari orasidagi farqni hisoblang; O'rta Osiyoning qaysi qismi ochiq va u uning iqlimiga qanday ta'sir qiladi? O'rta Osiyoning qaysi qismi tog'lar bilan o'ralgan?

Mazkur savollarga o'quvchilar xarita va darslikdan foydalanib javob berishgandan so'ng, o'qituvchi xulosa qilib, O'rta Osiyoning asosiy xususiyatlarini tushuntiradi.

 **Atoqli olimlar va sayyohlar:** Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Xorazmiy, Ulug'bek, Bobur.

 **Atama va tushunchalar:** geografik joylashish; matematik-geografik joylashish, tabiiy-geografik joylashish, geografik kenglik, geografik uzunlik, geografik koordinata, chegara, iqlim.

 **Geografik obyektlar:** O'rta Osiyo, Kaspiy dengizi, Ayirtov, Hindikush, Sarednuh, Nishopur tog'lari, Xarirud vodiysi, Tubqarag'ay burni, Savr tog'i, Qora Irtish daryosi, Hind okeani, Emba daryosi, Ko'kshag'al, Otboshi, Farg'ona, Oloy, Sariko'l tizmalari.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** Kazaxstan, Almati, 1970; Atlas mira, M., 2002.

### **Savol va topshiriqlar**

1. O'rta Osiyoning qaysi qismida uning chegarasi ko'l qirg'og'i bo'ylab o'tadi?


2. Nima uchun O'rta Osiyoda cho'llar katta maydonni egallashiga qaramasdan yirik daryolar ko'p?


3. O'rta Osiyo chegaralarini yozuvsiz xaritaga tushiring, unda alohida rang bilan chekka nuqtalar nomlarini va ularning koordinatalarini yozib qo'ying.


4. O'rta Osiyoning asosiy xususiyatlarini gapirib bering.

### **4- dars**

 **Darsning mavzusi.** O'rta Osiyoning tekshirilish tarixi.

 **Darsning maqsadi.** O'rta Osiyo tabiatini tekshirishni asosiy bosqichlari va ularning natijalari mazmunini ochib berish. O'quvchilarni tarixiy va madaniy meroslarni o'rganishga qiziquvchanligini oshirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** Dunyo tabiiy xaritasi, O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, globus.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur darsni hikoya usulida o'tkazilsa, maqsadga muvofiq keladi. Bunda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

— qadimgi davrda O'rta Osiyo G'arb va Sharq oralig'idagi xalqaro savdo yo'lida joylashganligi;


— O'rta Osiyoda shakllangan qadimgi yirik davlatlar va xonliklar;


— O'rta Osiyo tabiati haqida dastlabki ma'lumotlar qoldirgan olimlar;


— O'rta Osiyo tabiatini o'rganish tarixining bosqichlari va


har bir bosqichda faoliyat ko'rsatgan olimlar, sayyohlar ishlarining natijalari.

Hikoya qiziqarli, ma'lumotlarga boy, chuqur mazmunga ega bo'lmog'i lozim.

 **Atoqli olimlar, sayyohlar:** Gerodot, Strabon, Arrian, Ptolemey, Chjan-Syan, Syuan-Szan, Ma'sudiy, Istaxriy, Ibn Abdulla, Al-Xorazmiy, Beruniy, Bobur, P. P. Semyonov-Tyanshanskiy, A. P. Fedchenko, I. V. Mushketov, V. A. Obruchev, P. S. Berg, N. P. Korjenevskiy, H. M. Abdullayev, I. P. Gerasimov, Q. Zokirov, T. Zohidov, A. N. Babushkin, N. D. Dolimov, H. H. Hasanov, N. A. Kogay, M. Qoriyev va boshqalar.


 **Atama va tushunchalar:** „Buyuk ipak yo'li“, sayyoh, mamlakat, davlat, foydali qazilma, geologik tuzilish, iqlim.


 **Geografik obyektlar:** Zarafshon vodiysi, Amudaryo, Issiqko'l, Farg'ona, Xorazm, Tyanshan, Yettisuv, Chu vodiysi, Toshkent, Samarqand, Pomir.


 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** *Hasanov H. H.* O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar. T., 1964; *Azatyana A.* Vidayushchiesya issledovateli prirodi Sredney Azii. T., 1966. *Raximbekov R. U.* Iz istorii izucheniya prirodi Sredney Azii. T., 1970. O'zbekiston Respublikasi. T., 1996.

## 5- dars

 **Darsning mavzusi.** O'rta Osiyo aholisi va siyosiy xaritasi.

 **Darsning maqsadi.** O'rta Osiyo aholisi va siyosiy xaritasining shakllanishi haqida o'quvchilarga bilimlar berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** Yevrosiyo aholisi xaritasi, 7- sinf atlas, O'rta Osiyo siyosiy xaritasi, Yevrosiyo yoki Dunyo siyosiy xaritasi.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur darsni hikoya, suhbat va tushuntirish usullari orqali olib borish mumkin. Darsni mantiqan ikki qismga yoki blokka bo'lib o'tish mumkin.

Birinchi blokda yoki qismda, dastlab, aholi to'g'risida oddiy tushunchalar shakllantiriladi. Aholi deganda ma'lum bir hududda, mamlakatda, jahonda istiqomat qilayotgan kishilar majmuyi tushuniladi. Geografiyada aholi uch tomonlama o'rganiladi: ishlab chiqarish kuchlari sifatida, iste'molchi sifatida, tabiatni o'zgartiruvchi va yangi tabiiy-antropogen hududiy majmualarni hosil qiluvchi kuch sifatida. O'quvchilar ongida aholi ning soni, tarqalishi, tarkibi (millati, tili, dini, yoshi va

h.k.) to'g'risida dastlabki tushunchalar beriladi. So'ngra quyidagilarga e'tibor beriladi:

— O'rta Osiyoda aholi eng zich joylashgan hududlar, ya'ni vodiylar, vohalar, sanoat markazlari, ularni qaysi davlatlarda ekanligi;

— O'rta Osiyodagi tub xalqlar va ularning soni hamda joylashishi O'rta Osiyoda eng ko'p tarqalgan millat *o'zbeklar* hisoblanadi, so'ngra qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar, turkmanlar. O'rta Osiyoning tub xalqlari tojiklardan tashqari **turkiy** tilda, ya'ni o'zbek, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida so'zlashishadi. Tojiklar fors tilida so'zlashishadi. O'zbeklar, asosan, vodiy va vohalarda, qirg'izlar va tojiklar tog'li hududlarda, turkmanlar cho'llarda, qozoqlar cho'l, chalacho'l va dashtlarda tarqalgan.

O'rta Osiyodagi qadimgi tarixiy shaharlarning (Samarqand, Buxoro, Xiva, Urganch, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon va h.k.) deyarli hammasi O'zbekistonda joylashganligiga o'quvchilar diqqatini jalb qilmoq darkor. Bundan tashqari, o'zbeklar O'rta Osiyodagi eng ko'p sonli va eng yirik millat ekanligi, O'zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari ichida aholisi eng ko'p mamlakat ekanligiga urg'u berilmog'i lozim. Bu esa o'quvchilarni Vatanga, xalqiga muhabbat va g'urur ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi blokda yoki qismda dastlab siyosiy xarita va uni shakllanish omillari haqida bilimlar shakllantiriladi. „Siyosiy xarita“ mavzusi bo'yicha o'quvchilarga quyidagi bilimlar berilishi lozim:

- siyosiy xarita haqida tushuncha;
- siyosiy xaritaning shakllanish omillari;
- siyosiy xaritaning hosil bo'lishidagi asosiy bosqichlar.

Siyosiy xarita deganda ma'lum bir tarixiy davrda davlatlarning joylanishi yoki holati tushuniladi.

Siyosiy xarita juda ko'p omillar ta'sirida o'zgarib va shakllanib turadi. Mazkur omillarga urushlar, inqiloblar, davlat to'ntarishlari va bitim hamda kelishuvlar kiradi. Urushlar siyosiy xaritada yirik, regional va lokal o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Jahon miqyosidagi urushlar siyosiy xaritada keskin va yirik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Asrimizning Birinchi va Ikkinchi jahon urushi tamoman yangi tuzumli davlatlar tizimining shakllanishiga olib keldi. Regional — mintaqaviy urushlar jahonning ayrim qismlaridagina siyosiy xaritaning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, sobiq Yugoslaviyadagi urush natijasida Yevropa siyosiy xaritasida bir necha mustaqil davlatlar vujudga keldi. Bundan tashqari, mahalliy yoki lokal ahamiyatga ega bo'lgan urushlar



natijasida siyosiy xaritada qisman o'zgarishlar sodir bo'lib turadi. Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asrda O'rta Osiyoning bosib olinishi natijasida bu hududdagi uchta davlat (Qo'qon xonligi, Xiva xonligi, Buxoro amirligi) jahon siyosiy xaritasidan o'chirib tashlandi. Pokistondagi urush Bangladeshning alohida davlat sifatida ajralib chiqishiga olib keldi.

Inqiloblar ham siyosiy xaritaning o'zgarishida muhim rol o'ynaydi.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida jahon xaritasida 15 ta yangi davlat paydo bo'ldi.

Kelishuvlar asosida ham siyosiy xaritada o'zgarishlar bo'ladi. Mazkur o'zgarishlar natijasida ayrim davlatlar qo'shilib ketadi, ayrimlari bo'linadi. Bunga misol qilib ikkita Germaniya davlatining qo'shilib ketishini va Chexoslovakiyani Chexiya va Slovakiya davlatlariga bo'linib ketishini ko'rsatish mumkin.

Darsni o'qituvchi mazkur ikki blok bo'yicha yakunlaydi.

**Mashhur allomalar davlat arboblari, olimlar, sayyohlar.** Xorazmshoh, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Mashrab, Furqat, Fitrat, Cho'lpon.

☞ **Atama va tushunchalar:** aholi, millat, xalq, siyosiy xarita, siyosiy xaritaning shakllanish omillari.

🌐 **Geografik obyektlar:** O'rta Osiyo, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Qo'qon, Xiva, Buxoro, Afg'oniston, Eron.

### ❓ **Savol va topshiriqlar**

1. O'rta Osiyodagi tub xalqlarni aniqlab, ularning nomlarini va asosan, qaysi davlatda yashashini daftaringizga yozing.
2. Siyosiy xarita deganda nimani tushunasiz?
3. O'rta Osiyo siyosiy xaritasining shakllanishidagi asosiy bosqichlarning mazmunini gapirib bering.

### 6- dars

📖 **Darsning mavzusi.** Xarita andazalari (proyeksiyalari) haqida, tushuncha.

👆 **Darsning maqsadi.** Xaritalar andazalari mazmuni, mohiyati va ularning turlari haqida bilimlar berish va tegishli ko'nikmalarni shakllantirish.

🌐 **Ko'rgazma materiallar.** Xaritalar andazalari chizmalari, turli andazalarda tuzilgan xaritalar.

📖 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dars, asosan, tushuntirish usulida olib boriladi. Mazkur darsni bloklarga bo'lib o'rganish mumkin: xatoliklar bloki; andazalar bloki.

Birinchi blokda xaritalarda xatoliklarning kelib chiqishi sabablari va ularni xarita tuzishda hisobga olishning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Bunda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor bermog'i lozim bo'ladi:

— Yerning dumaloq shaklda ekanligi va uning modeli— globus ekanligi. Globusda Yer yuzasidagi barcha geografik obyektlar (materiklar, okeanlar, tog'lar, tekisliklar, daryolar, ko'llar, dengizlar) xatosiz tasvirlanishi;

— globusdan amalda foydalanish noqulay ekanligi, shuning uchun globus tekis yuzaga yoyilib turli xil xaritalar tuzilishi. Globusni tekislik yuzasiga yoyganda xatoliklar kelib chiqishini, shuning uchun globus va xaritalardagi geografik obyektlar qiyofasi bir-biridan farq qilishini;

— mazkur xatoliklarni kamaytirish yoki hisobga olish uchun turli xil matematik usullardan foydalaniladi. Xaritalarning mazmuni va vazifasiga ko'ra turli xil andazalar qo'llaniladi. Andazalar globus tekis yuzaga yoyilganda hosil bo'ladigan uzilishlarni bartaraf qilish maqsadida qo'llaniladi.

Shundan so'ng o'qituvchi xulosa qilib Yerning dumaloq yuzasini tekislikda tasvirlash jarayonida xatoliklar sodir bo'lishini, mazkur xatoliklar maydonlarni, uzunliklarni va burchaklarni tasvirlashda qiyinchiliklar tug'dirishini, agar mazkur xatoliklar hisobga olinmasa, geografik obyektlar tasvirida katta o'zgarishlar sodir bo'lishini asoslab beradi.


Xaritada tasvir xatoligi bo'lmagan chiziqlar yoki nuqtalar nol xatolikdagi chiziqlar yoki nuqtalar deyiladi. Xarita andazasidagi bir xil xatolikka ega bo'lgan chiziq'larga **izakollar** deyiladi.


Uzunliklar xatosi shundan iboratki, xaritadagi chiziqlarning masshtabi ularni o'rni hamda yo'nalishi o'zgarishi bilan o'zgaradi. Masalan, Yer yuzasidagi bir xil uzunlikdagi meridianlar xaritalarda har xil qiymatga ega bo'lgan yo'ylar ko'rinishida tasvirlanadi. Burchak xatosi shundan iboratki, xaritadagi burchaklar Yer yuzasidagi shunga mos burchaklarga teng bo'lmaydi. Burchaklar xatoligi geografik obyektlar qiyofalari shaklidagi xatolikni keltirib chiqaradi.


Xaritalar andazalari xususiyatiga ko'ra teng burchakli, teng maydonli va ixtiyoriy turlarga bo'linadi.


Teng burchakli andazalardagi shakl tasviri Yer shari yuzasidagi shunga mos shaklga o'xshash holda tasvirlanadi. Mazkur andazalarda berilgan nuqtadan chiqadigan hamma yo'nalishlar o'ycha masshtablar o'zaro teng va ular faqat bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga o'tganda o'zgaradi.

Maktab o'quv xaritalari turli andazalarda tuziladi. Yarim sharlar, materiklar xaritalari azimutal andazada, O'rta Osiyo va O'zbekiston xaritalari **konussimon** andazada tuziladi. Silindrsimon andazalar ekvatorga nisbatan simmetrik yoki unga yaqin joylashgan, shuningdek, uzoqlik bo'yicha cho'zilgan obyektlar uchun, konussimon andazalar o'rta kengliklarda joylashgan hududlar uchun azimutal andaza qutbiy o'lkalarni tasvirlash uchun ko'proq foydalaniladi.


 **Atoqli nomlar:** Merkator, Gauss, Kryucher, V. V. Krasovskiy, K. A. Salishev.


 **Atama va tushunchalar:** xarita, andaza, yuza, tekislik, teng burchakli, teng maydonli, ixtiyoriy, konussimon, silindrsimon, azimutal andazalar, ekvator, meridian, parallel, qutblar.


 **Geografik obyektlar:** Yevrosiyo, Afrika, Amerika, Antarktida, Arktika, Avstraliya, O'rta Osiyo, O'zbekiston.


 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** A. Egamberdiyev. Kartografiya. T., 2000.

## 7- dars

 **Darsning mavzusi.** Geografik xaritalar va ularning shartli belgilari.

 **Darsning maqsadi.** Geografik xarita va xaritalarning shartli belgilari haqida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

 **Ko'rgazmali qurollar.** Xaritalar, shartli belgilar, atlaslar, globus.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur dars ko'rgazmali tushuntirish usulida olib boriladi. Ushbu dars ham ikki blokdan iborat.

Xarita va shartli belgilar bloki.

Xaritalar blokida o'qituvchi quyidagilarga o'quvchilarning diqqatini jalb qilishi lozim:

— xaritalar geografiya fanining asosiy va ajralmas qismi hisoblanadi. Xaritalarda joyning va mamlakatning tabiiy, iqtisodiy sharoiti, ijtimoiy-siyosiy va tabiiy hodisa hamda voqealar tasvirlanadi. Xaritalardan xalq xo'jaligining turli sohalarida foydalaniladi;

— xaritani birinchi bo'lib tuzgan olim **Eratosfen** va uning dunyo xaritasida tasvirlangan geografik obyektlar haqida ma'lumotlar berish. Al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Beruniy tuzgan xaritalar va ularning ahamiyati;

— shundan so'ng o'quvchilarga plan, aerosurat, kosmosurat va xarita haqida bilimlar beriladi va tegishli ko'nikmalar shakllantiriladi.

**Shartli** belgilar blokida o'qituvchi darsni olib borishda quyidagi bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi:

— shartli belgilarning ahamiyati, mazmuni, mohiyati va ularni xaritalarni o'qishdagi va ulardan foydalanishdagi ahamiyati va o'rni haqida bilimlar berish; xaritalarda turli xil obyektlarni va ularni sifat va miqdor ko'rsatkichlarini ifodalash uchun qo'llaniladigan belgilarga **shartli belgilar** deb ataladi. Mazkur shartli belgilar iloji boricha sodda, tushunarli bo'lmog'i lozim;

— shartli belgilarning turlari va ularning ahamiyati haqida bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi. Masshtabsiz shartli belgilar — xarita masshtabida tasvirlash mumkin bo'lmagan obyektlar tasvirlanadi (alohida turgan daraxt, quduq, tegirmon, zavod va fabrikalar, neft va gaz vishkalari, yodgorliklar, elektrostansiya, shaxta, sharshara va h.k.). Bunda geografik obyektlarning tashqi qiyofasi saqlanmaydi. Maydonli-shartli belgilar xarita masshtabida qiyofasini saqlab qolish mumkin bo'lgan obyektlar tasvirlanadi (o'rmon, bog', poliz, ko'l, botqoq va h.k.). Geografik obyektlarning tashqi qiyofasi saqlanib qoladi. Maydonli-shartli belgilar masshtabli-shartli belgilar deb ham yuritiladi. Chiziqli-shartli belgilar bilan uzunligi xarita masshtabida tasvirlanadigan va cho'ziqsimon qiyofaga ega bo'lgan geografik obyektlar tasvirlanadi (daryo, ko'l, dengiz qirg'oqlari, chegaralar, temiryo'llar va h.k.). Mazkur obyektlarning o'xshashlik belgilari saqlanib qoladi;

— shundan so'ng o'qituvchi voqea va hodisalarni geografik xaritada tasvirlash usullari va ulardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi lozim. Mazkur shartli belgilarni tushuntirishda o'qituvchi shartli belgilar nomlari va mazmuni tasvirlangan chizmadan foydalanishi mumkin yoki mazkur chizmani sinf doskasida chizib ko'rsatishi mumkin. Bu esa shartli belgilarning mazmun-mohiyatini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini osonlashtiradi.

Dars so'ngida o'qituvchi yuqoridagi ikkita blok mazmuni bo'yicha xulosa qiladi. So'ngra xaritalar yordamida o'tilgan darsni mustahkamlaydi.

🗺 **Atoqli nomlar:** Eratosfen, Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Mahmud Koshg'ariy.

👉 **Atama va tushunchalar:** xarita, aerosurat, kosmosurat, plan, shartli belgi, masshtabsiz shartli belgi, chiziqli va maydonli-shartli belgi, nuqta, chiziqli chegara, rang berish, teng qiymatli chiziqlar usullari.

## 8- dars



**Darsning mavzusi.** Xaritalarning turlari. Globus



**Darsning maqsadi.** Xaritalar to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish. Xaritalarning turlari bo'yicha hamda globus bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.



**Ko'rgazma materiallar.** Globus, yarim sharlar, materiklar, davlatlar xaritalari.



**Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur darsni tushuntirishni ko'rgazmali usulda olib borgan ma'qul, chunki dars davomida turli xil xaritalarni o'quvchilarga ko'rsatish lozim bo'ladi. Mazkur darsni ham ikki blokka bo'lsa bo'ladi. Xarita turlari bloki va globus bloki.

Xarita turlari blokini tushuntirayotganda o'qituvchi quyidagi holatlarga e'tibor berishi lozim:

— xaritalar geografiya fanining hamma sohalarining asosiy tarkibiy qismidir. Xaritalarda joyning va mamlakatning tabiiy va iqtisodiy sharoiti, ijtimoiy-siyosiy va tabiiy hodisa-voqealar tasvirlanadi. VII sinf atlasida O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy, geologik, tektonik, iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy-geografik rayonlashtirish xaritalari hamda O'zbekistonning har bir tabiiy geografik o'lkasining tabiiy xaritasi berilgan;

— xaritalar xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llanilgani uchun ular masshtabiga, mazmuniga, vazifasiga, tuzilishiga va ularda tasvirlangan maydonning ko'lamiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Shundan so'ng o'quvchilarga xaritalarning turlari haqida bilimlar berishga kirishiladi. Xaritalarning masshtabi bo'yicha turlarga bo'linishini tushuntirishdan avval o'qituvchi o'quvchilarga masshtab haqida, sonli, chiziqli va nomli masshtablarni eslatadi va ularni xaritadan ko'rsatadi. Shundan so'ng o'quvchilarga xaritalar, ularda tasvirlangan maydoniga ko'ra ham turlarga bo'linishini aniq ko'rgazmalar yordamida tushuntiradi. Masalan, dars jarayonida yulduzlar, sayyoralar, dunyo, materik va okeanlar, o'lkalar, davlatlar, viloyatlar, tumanlar, shaharlar xaritalaridan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.


Xaritalar mazmuniga ko'ra **umumiy geografik** va **mavzuli** xaritalarga bo'linishi ham tegishli xaritalar yordamida tushuntiriladi. Umumiy geografik xaritalar, o'z navbatida, quyidagi turlarga bo'linadi: a) topografik xaritalar, masshtabi 1 : 200 000 va undan katta; b) umumtopografik xaritalar, masshtabi 1 : 200 000 dan 1 1000 000 gacha va h.k. Mavzuli xaritalar, o'z


navbatida, yana ikki guruhga bo'linadi: tabiiy va ijtimoiy hodisalar xaritalari. Vazifasiga ko'ra xaritalar quyidagi turlarga bo'linadi: ilmiy xaritalar, asosan, ilmiy ishlar bajarish va ulardan aniq, keng ilmiy ma'lumotlar olishda foydalaniladi; madaniy va tashviqot xaritalari keng xalq ommasiga mo'ljallangan.


Hozirgi paytda xaritashunoslik fanida xaritalar tuzilishiga ko'ra uch turga bo'linadi: **tasviriy, jamlama va yakuniy** xaritalar. Tasviriy xaritalarda alohida voqealarning xossalari boshqa voqealarga bog'lanmagan holda tasvirlanadi. Masalan, havo harorati, yog'inlar, shamollar va bosim xaritalari. Jamlama xaritalarda ma'lum bir hodisaning hamma o'lchamlari birga tasvirlanadi. Masalan, bitta xaritada shamol va bosimni tasvirlash mumkin. Ikki va undan ortiq hodisalar bitta xaritada tasvirlansa, ular **jamlama xaritalar** deyiladi. Yakuniy xaritalarda bir-biri bilan o'zaro bog'langan hodisalar bir butun holda tasvirlanadi. Bunday xaritalarda voqealar ta'rifi bevosita berilmaydi, ammo ularning umumiy ta'rifi bilvosita beriladi. Masalan, iqlim mintaqalari xaritasida havo harorati va bosimi haqida ma'lumot berilmaydi, lekin har bir iqlim mintaqasiga umumiy ta'rif beriladi. Bunday xaritalar yakuniy — xulosa xaritalar deyiladi. Ular juda ko'p ma'lumotlarni umumlashtirish asosida tuziladi.

Xaritalarning turlari bo'yicha bilimlar berib bo'lingandan so'ng, atlaslar va ularning turlari haqida hamda globus va undan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi.


Yuqoridagi bilim va ko'nikmalar shakllantirilgandan so'ng o'qituvchi quyidagi holatlar bo'yicha xulosa qiladi: xaritalarning ahamiyati, xaritalarning turlari, atlaslar, globuslar.


 **Atoqli nomlar:** Ptolemey, Beruniy, Merkator, Bexaym.


 **Atama va tushunchalar:** xarita, masshtab, yirik masshtabli, o'рта masshtabli, mayda masshtabli xaritalar, umumiy geografik va mavzuli xaritalar, ilmiy, o'quv, ommabop xaritalar, atlaslar, globus.


 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** O'zbekiston atlaslari, jahonning geografik atlaslari va h.k.

## 9- dars

 **Darsning mavzusi.** Xaritalardan foydalanish.

 **Darsning maqsadi.** Turli xil xaritalardan foydalanish, ular asosida kesmalar tuzish hamda tavsiflar tuzish ko'nikmalarini shakllantirish. O'quvchilarning olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatish.


 **Ko'rgazma materiallar.** O'rtasiy Osiyo tabiiy xaritasi, VII sinf atlaslari, yozuvsiz xaritalar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur dars tushuntirish usulida olib boriladi. Darsni boshlanishida o'qituvchi xaritalar, atlaslar va globuslar xalq xo'jaligining turli sohalarida, ilmiy-tadqiqod ishlarida keng va har tomonlama foydalanilishini ochib berishi lozim. So'ngra darsni quyidagi yo'nalishda olib borish lozim.

Xaritalar yordamida turli xil kesmalar tuzish tartibi tushuntiriladi. Geografik kesmalarining (umumiy va maxsus) turlari va ularni tuzish yo'llari misollar yordamida tushuntiriladi. Xaritalar yordamida **masofa, maydon, burchak** qanday aniqlanishi o'zi yashayotgan joyi yoki o'z viloyati xaritasi misolida tushuntirilsa, yaxshi bo'ladi.

Xaritalarda maydonni aniqlash **planimetr** yoki **paletka** yordamida bajariladi. Planimetr bu ikki yelkali asbob, yelkalar bir-biri bilan bog'langan va oxirgi qismida o'Ichagich joylashgan. Yelkasining bir uchiga xaritaga mahkamlab qo'yish uchun igna o'rnatilgan, ikkinchi uchiga esa aylanadigan marka o'rnatilgan. Maydoni o'Ichana yotgan hudud planimetr yurgizilganda o'Ichagich maydonni qanchaga tengligini ko'rsatib turadi.

Paletka — bu to'rt burchakli to'rt tushirilgan yaltiroq qog'oz, tagidan xarita ko'rinib turadi. Joy maydoni quyidagi tartibda aniqlanadi; xaritadan maydoni o'Ichana digan joyning chegaralari aniqlanadi; maydoni o'Ichana digan joyga paletka, ya'ni yaltiroq qog'oz qo'yiladi; to'rt burchaklar soni hisoblab chiqiladi, chegaradan chiqib ketgan, yarimta, chorakta to'rt burchaklar qo'shib chiqiladi; maydon quyidagi tenglikdan topiladi.  $S = a^2n$ , bu yerda  $a$  — to'rt burchak tomonlari, kilometrda,  $n$  — to'g'ri to'rt burchaklar soni. Paletkada hisoblash oson bo'lishi uchun to'g'ri to'rt burchakning tomonlarini 1 sm dan qilib olinmog'i darkor.

 **Atama va tushunchalar:** xaritaviy tadqiqod usuli, geografik bayon, kesma, maydon, uzunlik, burchak, masshtab.

### **Savol va topshiriqlar**


1. Quyidagi nomli masshtablarni sonli masshtabda ifodalang: 1 sm da 75 m; 1 sm da 15 km; 1 sm da 500 km.

2. Qaysi masshtabda 15 km li masofa xaritada: a) 3 sm li; b) 5 sm li; d) 15 sm li oraliqqa to'g'ri keladi?


3. Xarita yordamida Toshkent va Tokio shaharlari oralig'idagi masofani daraja hisobida va masshtab yordamida aniqlang.

## 10- dars

 **Darsning mavzusi.** Topografik xaritalar.

 **Darsning maqsadi.** O'quvchilarda topografik xaritalar, ularning turlari, varaqlarga bo'linishi, shartli belgilari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.


 **Ko'rgazma materiallar.** Topografik xaritalar, chizmalar, shartli belgilar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur dars ham tushuntirish — ko'rgazmali usulda olib boriladi. Darsning mazmuni murakkab bo'lganligi uchun o'qituvchi ularni mantiqiy qismlarga bo'lib alohida-alohida tushuntirgani ma'qul. Dars davomida turli xil chizmalardan, agar chizmalar bo'lmasa, mazkur tegishli chizmalarni sinf doskasiga chizib ko'rsatish mumkin. Dars jarayonida o'qituvchi quyidagi bilim va ko'nikmalarni asta-sekin va har tomonlama shakllantiradi.

Dastlab Yer yuzasini tasvirlovchi xaritalar mashtabi juda mayda bo'lganligi uchun ular hisob-kitob va o'lchash ishlariga yaramasligini, chunki ularda xatoliklar katta bo'lishini, yirik mashtabli xaritalarda esa katta maydonlar tasvirlansa juda ham qo'pol va foydalanish uchun noqulayligi asoslab beriladi. Masalan 1 100 000 mashtabli xaritada Yer yuzasi kengligi bir necha kilometr bo'lgan xaritada tasvirlangan bo'lar edi. Bunday xaritadan umuman foydalanib bo'lmaydi.

Shu sababli foydalanish qulay bo'lishi uchun yirik mashtabli topografik xaritalar varaqlarga bo'linadi. Varaqlarda Yer yuzasining kichik bir qismi tasvirlangani uchun unda xatoliklar kam bo'ladi.

Shundan so'ng topografik xaritalar shartli belgilari bo'yicha o'quvchilarda bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi.

 **Atama va tushunchalar:** topografik xarita, mashtab, trapetsiya, topografik xarita varag'i, meridian, parallel, shartli belgi, relyef, gorizontallar, bergshtrixlar, balandlik shkalasi.

 **Savol va topshiriqlar**

1. Nima uchun topografik xaritalar varaqlarga bo'linadi?
2. Geografik xaritaning har bir varag'i nima bilan chegaralangan bo'ladi?
3. Geografik xaritalarning shartli belgilari haqida gapirib bering.



## 11- dars

**📖 Darsning mavzusi.** Topografik xaritalardan foydalanish.

**👉 Darsning maqsadi.** O'quvchilarga topografik xaritalar bilan ishlash usullarini o'rgatish va topografik xarita yordamida joyning koordinatalarini, azimutni aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

**📁 Ko'rgazma materiallar.** Topografik xaritalar, darslik, turli xil chizmalar.

**📖 Darsni uyushtirish shakllari.** Ushbu dars ham tushuntirish va ko'rgazmali usulda olib boriladi. Avval o'qituvchi topografik xaritalardan qanday maqsadlarda foydalanish turlarini aytib o'tadi, iloji bo'lsa ularni sinf doskasiga yozib qo'yadi. So'ngra har bir foydalanish turiga ta'rif beradi va tushuntiradi. Tushuntirayotganda chizmalardan yoki sinf doskasidan keng foydalanmog'i lozim. Topografik xaritalardan joyning geografik o'rnini, har qanday nuqtani xaritaga tushirishda, relyefning turli shakllarini, yonbag'irlarning nishabini, azimut va direksion burchaklarni aniqlash mumkin. Mazkur masalalar darslikda keng yoritilgan.

Xarita yordamida relyefni o'qish, joydagi notekisliklarni gorizontallarga qarab aniqlash, yonbag'irlarning tikligini va yo'nalishini bilib olish, joyning mutlaq balandligini, bir nuqtani ikkinchisidan qancha baland ekanligini bilishni taqozo etadi.

Yonbag'irning qaysi tomonga qiyaligi bergshtrix degan maxsus belgi bilan ko'rsatiladi. Bergshtrix gorizontallarga perpendikular chizib qo'yiladigan chiziqchadir. U yonbag'irning qaysi tomonga pasayib borishini ko'rsatadi.


Yonbag'irning nishablik darajasini aniqlash uchun sirkul (yoki bir parcha uzun qog'oz) yordamida yonbag'irni tasvirlaydigan ikki qo'shni gorizontalar orasidagi masofani o'lchash, bu kesimni shkalaga qo'yish va daraja hisobida yonbag'irning nishabini bilib olish lozim.


**👉 Atama va tushunchalar:** geografik koordinata, yonbag'ir nishabi, azimut, kilometrli to'r, relyef, gorizontalar, bergshtrix.


**❓ Savol va topshiriqlar**


1. Topografik xaritada joyning o'imi qanday aniqlanadi?
2. Topografik xaritalarda relyef nima yordamida tasvirlanadi?
3. Geografik xaritalarda yonbag'irning nishabi qanday aniqlanadi?

## 12- dars

 **Darsning mavzusi.** Vaqt o'lchovi. Soat mintaqalari. Taqvimlar.

 **Darsning maqsadi.** Vaqt o'lchovi, yulduz, Quyosh, mahalliy vaqt, dunyo vaqti, mintaqa vaqti, sutka, taqvimlar haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** Soat mintaqalari xaritasi, turli xil taqvimlar. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy xaritasi.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Mazkur dars ham, asosan, tushuntirish usulida olib boriladi. Vaqt o'lchovi haqida tushunchani; yulduz, Quyosh vaqtlari va boshqa vaqtlarni; mahalliy vaqt, uning mazmuni va mohiyatini, mintaqa vaqti va uning ahamiyatini; dunyo vaqtini va uni qaysi hollarda qo'llanilishi; yangi sutka boshlanadigan meridianni; O'rta Osiyo va O'zbekistondagi soat mintaqalarini, turli taqvimlarni tushuntiriladi.

O'quvchilar mazkur mavzu bo'yicha quyidagilarni uddalay olishlari lozim: Quyosh, yulduz va boshqa vaqt o'lchoqlarining farqini aniqlay olishni; berilgan ma'lumotlar asosida har qanday nuqtaning mintaqa vaqtini aniqlay bilishni; daraja to'ri asosida soat, mintaqalarining tartib raqamini aniqlay bilishni; turli taqvimlarda yil hisobini aniqlay olishni.

Darsni boshlashda o'qituvchi o'quvchilar diqqatini quyidagilarga jalb qilmog'i lozim. Yerni Quyosh atrofida aylanishi, kecha va kunduzning almashinishi, yil, sutka va ularning mazmuni, mohiyati. Shundan so'ng o'quv materiali quyidagi tartibda tushuntiriladi: yulduz va Quyosh vaqti. Yulduz vaqtidan foydalanishning noqulayligi. Mahalliy, mintaqa vaqtlarining mazmuni va mohiyati. Taqvimlar.

Vaqt bo'yicha bilimlar kundalik hayotda muntazam qo'llanilib turishi tufayli, o'qituvchi ko'proq amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga harakat qilishi lozim. Amaliy ko'nikmalarni quyidagi yo'nalishda olib borish mumkin.

1. Berilgan daraja (gradus), ya'ni meridian yoki uzunlik qiymati orqali soat mintaqasining tartib raqami aniqlanadi. Buning uchun berilgan uzunlik yoki meridian qiymatini  $360^\circ$  dan ayirib, so'ng  $15^\circ$  ga bo'linaveradi. Masalan,  $30^\circ$  g'.u. dagi nuqtani qaysi soat mintaqasida ekanligini aniqlash kerak. Buning uchun ushbu sonni  $360^\circ$  dan ayiramiz.  $360^\circ - 30^\circ = 330^\circ$ , hosil bo'lgan ayirmani  $15^\circ$  ga bo'lamiz.  $330 : 15 = 22$ , demak berilgan nuqta 22 chi soat mintaqasida joylashgan ekan. Yana bir misol,

60° sharqiy uzunlikdagi nuqtaning qaysi soat mintaqasida ekanligini aniqlash kerak bo'lsin. Berilgan nuqta sharqiy yarim sharda joylashgan, shuning uchun uni to'g'ridan to'g'ri 15° ga bo'lamiz:  $60^\circ - 15^\circ = 4$ , demak nuqtamiz 4- soat mintaqasida joylashgan ekan.

2. Aniqlangan soat mintaqasining tartib raqami orqali berilgan nuqtadagi vaqt aniqlanadi. Buning uchun mintaqalar tartib raqamlari bir-biridan ayriladi. Agar vaqtni aniqlanishi kerak bo'lgan mintaqalar tartib raqamidan katta bo'lsa, mintaqalar ayirmasi tartib raqami kichik bo'lgan mintaqalar soatiga qo'shiladi, aksincha bo'lsa kattasidan ayriladi. Masalan, 5- soat mintaqasida soat 8<sup>00</sup> bo'lsa, 2- soat mintaqasida soat necha bo'ladi? Mintaqalar raqami ayirmasi  $5 - 2 = 3$ . Misolimizda vaqtni aniqlanishi kerak bo'lgan mintaqalar tartib raqami vaqtni aniq bo'lgan mintaqalar tartib raqamidan kichik. Demak, mintaqalar ayirmasining tartib raqami katta bo'lgan soat mintaqasi vaqtdan ayiramiz, ya'ni  $8 - 3 = 5^{00}$  soat bo'ladi.

Misol tariqasida Davlat test markazi tomonidan e'lon qilingan test topshirig'ini yuqoridagi usulda yechamiz.

Toshkentda soat 16<sup>00</sup> bo'lsa, 130° sharqiy uzunlikda joylashgan Yaponiyaning Nagasaki shahrida soat necha bo'ladi? (Axborotnoma, 1996, 2- son, 15- test.)

Mazkur test topshirig'ini yechish uchun quyidagi ishlarni bajarishimiz lozim:

— Toshkent shahrining uzunligi va nechanchi soat mintaqasida joylashganini aniqlashimiz kerak. Toshkent shahri 69° sharqiy uzunlikka ega. Endi (2) formula orqali Toshkentni nechanchi soat mintaqasida joylashganligini aniqlaymiz.

$$M = 69 : 15 = 4,6$$

demak, Toshkent 4- soat mintaqasida joylashgan;

— Nagasaki shahrini qaysi soat mintaqasida joylashganligini ham yuqoridagi (2) formula orqali aniqlaymiz (chunki Toshkent va Nagasaki shaharlari sharqiy yarim sharda joylashgan).

$$M = 130 : 15 = 8,6$$


demak, Nagasaki 8- soat mintaqasida joylashgan;


— Soat mintaqalar raqamlari ayirmasini topamiz:


$$8 - 4 = 4;$$

— Nagasaki shahridagi vaqtni aniqlaymiz. Vaqtni aniqlanishi kerak bo'lgan nuqta joylashgan soat mintaqasining tartib raqami

vaqti aniq bo'lgan soat mintaqasi tartib raqamidan katta, shuning uchun mintaqalar ayirmasini vaqti ma'lum bo'lgan mintaqaga vaqtiga qo'shamiz, ya'ni  $16 + 4$ , demak, Nagasaki shahrida soat  $20^{00}$  ekan. Mazkur test topshirig'ining „B“ javobi to'g'ri.

 **Atama va tushunchalar:** vaqt, yulduz va Quyosh vaqti, mahalliy vaqt, mintaqaga vaqti, bosh meridian, dunyo vaqti, sana o'zgarish chizig'i, taqvim, Quyosh taqvimi, oy taqvimi. Grigoriy va Xijriy taqvimlar, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sumbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv, Xut.

 **Geografik obyektlar:** O'rta Osiyo, O'zbekiston, Shimoliy qutb, janubiy qutb.

 **Darsga oid qo'shimcha materiallar:** vaqt o'lchovi bilan bog'liq bo'lgan test topshiriqlarini yechish. Zamonaviy ta'lim. 1- son 1998, 105 — 107- b.


### **Savol va topshiriqlar**


1. Siz Toshkentda yashaysiz. Toshkentda tush vaqti. Yer sharidagi qaysi shaharlarda yashovchilar tush vaqtini siz bilan bir vaqtda kutib olishganini aniqlab, ushbu shaharlar nomlarini daftaringizga ko'chirib yozing.


2. Toshkent shahri taxminan  $70^\circ$  sharqiy uzunlikda, Tokio shahri esa  $140^\circ$  sharqiy uzunlikda joylashgan, ular orasidagi vaqtlar farqini aniqlang.


3. Ikki shahar o'rtasidagi vaqt farqi 180 minut bo'lsa, ular orasidagi masofani daraja hisobida aniqlang.

## 13- dars

 **Darsning mavzusi.** Geologik vaqt hisobi.

 **Darsning maqsadi.** O'quvchilarga geologik vaqt geoxronologik jadval, tog' hosil bo'lish bosqichlari va geologik vaqtni aniqlash usullari bo'yicha bilimlar berish va tegishli ko'nikmalarni shakllantirish.

 **Ko'rgazma materiallar:** 7- sinf atlas, geoxronologik jadval, tog' hosil bo'lishi jadvali, O'rta Osiyo tabiiy xaritasi.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Darsni tushuntirish ko'rgazmali usulda olib boriladi. Dastlab o'qituvchi Yer yuzasining hozirgi holati, ya'ni okeanlar botig'i, materik ko'tarilmalari, tog'lar va tekisliklar Yerning ichki va tashqi kuchlarining uzoq vaqt davomidagi o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelganligini so'zlab beradi.

Yerning rivojlanish tarixi davomida ayrim o'lkalar suv ostida qolganligi, ayrim o'lkalarda vulqonlar otilib, tog'lar hosil bo'lganligi ta'kidlab o'tilgandan so'ng, Yer yuzasining qanday rivojlanganligini va geografik qobiqning hozirgi holati qanday shakllanganligini bilish uchun geologik vaqtni bilishimiz zarur ekanligi asoslab beriladi. Shundan so'ng geologik vaqt mazmunini ochib beriladi. „Yer po'stining hosil bo'lishi va o'zgarib, hozirgi holatga kelguncha ketgan vaqt geologik vaqt deb ataladi“

Geologik vaqt eonlarga, eonlar esa eralarga, eralar davrlarga bo'linadi. Mazkur eonlar, eralar va davrlar bir-birlaridan yerning relyefi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi xususiyatlari bilan farq qiladi.

Shundan so'ng o'qituvchi tog' jinslarining nisbiy va mutlaq yoshi haqida bilimlarni shakllantirishga kirishadi. Avval nisbiy, so'ngra mutlaq yosh haqida bilimlar beradi.

Yer po'stining rivojlanishida tog' hosil bo'lish bosqichlari muhim rol o'ynagan. Yer po'stining rivojlanishi davomida beshta tog' hosil bo'lish yoki burmalanish bosqichlari ajratiladi. Baykal yoki rifey tog' hosil bo'lish bosqichi proterozoy erasida sodir bo'lgan; Kaledon bosqichi paleozoy davrining birinchi yarmida sodir bo'lgan; gersin tog' hosil bo'lish bosqichi paleozoy erasining ikkinchi yarmida ro'y bergan, mezozoy burmalanishi mezozoy erasida va alp burmalanishi kaynozoy erasida sodir bo'lgan. Har bir tog' hosil bo'lish bosqichida ko'tarilgan tog'larga bir-ikkita misollar keltirilishi lozim.

Shundan so'ng o'qituvchi tog' jinslarining mutlaq yoshi va uni aniqlash usullari bilan o'quvchilarni tanishtiradi va quyidagi bo'limlar bo'yicha darsni xulosalaydi; geologik vaqt, tog' jinslarining nisbiy yoshi, geoxronologik jadval, tog' hosil bo'lish yoki burmalanish bosqichlari, tog' jinslarining mutlaq yoshi.

☞ **Atama va tushunchalar:** geologik vaqt, geoxronologik jadval, eon, era, davr, tog' jinslarining nisbiy yoshi, arxey, proterozoy, paleozoy, mezozoy, kaynozoy, baykal (rifey), kaledon, gersin, mezozoy, alp burmalanish bosqichlari, tog' jinslarining mutlaq yoshi.

## ❓ *Savol va topshiriqlar*

1. Quyidagi belgilardan foydalanib kesma tuzing:  
t (triass), r (paleogen), a (to'rtlamchi davr).


2. Quyidagi davrlar qaysi eraga tegishli? Devon va kembriy, paleogen va neogen?


- A. Paleozoy, arxey.
- B. Mezozoy, proterozoy.
- C. Kaynozoy, paleozoy.
- D. Paleozoy, kaynozoy.
- E. Proterozoy, mezozoy.


3. Platforma va geotsinklinallar nima?


4. O'rta Osiyodagi Pomir, Hindiqush, Kopetdog', Tyanshan tog'lari qachon paydo bo'lganligini aniqlang.

## 14- dars

 **Darsning mavzusi.** O'rta Osiyo hududining rivojlanish tarixi. Foydali qazilmalari.

 **Darsning maqsadi.** O'quvchilarga har bir geologik erada, tog' hosil bo'lish bosqichida O'rta Osiyo tabiatining rivojlanish tarixi asosiy xususiyatlari haqida bilimlar berish.

 **Ko'rgazm materiallar.** O'rta Osiyoning tabiiy xaritasi, 7- sinf atlas, geoxronologik jadval, tektonik xarita.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Darsni suhbat va tushuntirish — ko'rgazmali usulda olib boriladi. Dastlab geoxronologik jadval va tog' hosil bo'lish bosqichlari haqida qisqa suhbat o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollarni berishi mumkin:

1. Geologik vaqt nima?
2. Tog' jinslarining yoshi qanday aniqlanadi?
3. Yer po'sti tarixi rivojlanishiga ko'ra qanday bosqichlarga bo'linadi?
4. Eonlar nimalarga bo'linadi?
5. Yer po'stining rivojlanishida nechta tog' hosil bo'lish bosqichlari ajratiladi?


Geologik sana, geoxronologik jadval va asosiy tog' hosil bo'lish bosqichlari haqidagi tushunchalarni o'quvchilar yana bir bor takrorlaganidan so'ng o'qituvchi yangi mavzuni o'rganish uchun asos yaratilganiga ishonch hosil qilib, yangi darsni boshlaydi.


Har bir erada O'rta Osiyoda qanday tabiiy-geografik jarayonlar va qanday tog' hosil bo'lish bosqichi sodir bo'lgani bir tartibda tushuntiriladi. Masalan, arxey va proterozoy eralarida O'rta Osiyo hududi dengiz ostida bo'lganligi, asosan, cho'kindi tog' jinslari hosil bo'lganini, paleozoy erasida kaledon va gersin


tog' burmalanishi natijasida Qozog'istondagi va Turondagi asbsiy tog'larning ko'tarilgani, mezozoy erasi davomida ular yemirilib yassi tog'larga aylanib qolgani, kaynozoy erasida sodir bo'lgan alp tog' hosil bo'lish bosqichida Kopetdog', Pomir, Hindiqush va boshqa tog'larning ko'tarilishi, Tyanshanning yosharishi (qaytadan ko'tarilishi) va to'rtlamchi davrda hozirgi tabiiy sharoitning shakllanishi.

Uy vazifasining mazmuni quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi; 1) geoxronologik jadvalni daftaringizga ko'chirib yozing va har bir erada sodir bo'lgan voqealarni alohida ustunga to'ldiring; 2) har bir burmalanish bosqichida ko'tarilgan tog'lar jadvalini tuzing.

Shundan so'ng O'rta Osiyo foydali qazilmalari quyidagi tartibda o'rganiladi: yoqilg'i-energetika foydali qazilmalari (neft, gaz, ko'mir), metalli foydali qazilmalar (qora va rangli metall konlari), noruda foydali qazilmalar (qurilish materiallari, kimyo sanoati xomashyolari va h.k.).

 **Atama va tushunchalar:** arxey, proterozoy, paleozoy, mezozoy, kaynozoy, baykal, kaledon, gersin, kimmeriy, alp burmalanish bosqichlari, foydali qazilma konlari.

 **Geografik obyektlar:** O'rta Osiyo, Qozog'iston past tog'lari, Tyanshan, Markaziy Qizilqum, Mang'ishloq yarim oroli, Krasnovodsk platosi, Katta Bolxon tog'lari, Oloy, Pomir, Bolxon Paropamiz (Aredko'h, Hindiqush, Bandi Turkiston tog'lari. Qarag'anda, Ekibastuz, Ko'kyong'oq, Qizilqiya, Toshko'mir, Sharq'un, Boysun, Ohangaron ko'mir konlari. Polvontosh, Tengiz, Ko'kdumaloq, Mingbuloq neft konlari, Sokolov-Sarbay, Olmaliq, Jezqazg'on, Muruntov rangli metall konlari va h.k.).

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar.** Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T., „O'qituvchi“, 2002. 400 b. Hasanov I., G'ulomov P.N. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T., 2002. 160 b. Babushkin L.N., Kogay N.A. Fizicheskaya geografiya Sredney Azii.T., 1978; Mineralno-Siryevie resursi Uzbekistana. T., 1978, t.

### **Savol va topshiriqlar**


1. O'rta Osiyo hududida arxey va proterozoy erasida qanday sharoit bo'lgan?


2. Kaledon va gersin burmalanish bosqichlarida O'rta Osiyoda qaysi tog'lar ko'tarilgan?


3. O'рта Osiyoda alp burmalanishida ko'tarilgan tog'lar ro'yxatini tuzing.


4. O'рта Osiyodagi ko'mir konlari jadvalini tuzing.

## 15- dars

 **Darsning mavzusi.** Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari.

 **Darsning maqsadi:** O'рта Osiyoda tarqalgan asosiy relyef shakllari va ularning joylanishidagi asosiy xususiyatlarni ochib berish. O'рта Osiyo tabiiy xaritasini o'qish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'рта Osiyo tabiiy xaritasi, 7- sinf atlas, tekisliklar, yassi tog'lar, o'rtacha balandlikdagi va baland tog'lar tasvirlangan rasmlar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'qituvchi darsni suhbat usulida boshlaydi. Asosiy relyef shakllarini, tekisliklar va ularning turlari (pasttekislik, yassi tekislik, baland tekislik yoki qirsimon tekislik), tog'lar (yassi tog', o'rtacha balandlikdagi tog'lar, baland tog'lar), tekislik va tog'larning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, tabiiy xaritalarda relyef qanday tasvirlanishi va ularni qanday o'qish haqida qisqa suhbat o'tkazadi.

Shundan so'ng o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirishga kirishadi. Avval O'рта Osiyodagi eng baland va eng past nuqtalarni xaritadan ko'rsatadi, ular nomini va mutlaq balandliklarini sinf doskasiga yozadi va o'quvchilarga ham ko'chirib olishni aytadi.

O'рта Osiyoda tarqalgan yirik relyef shakllarini ajratadi (tekislik va tog'lar). Har bir relyef shakli tavsifini O'рта Osiyo tabiiy xaritasidan foydalanib ochib beradi. Tekisliklarni uch qismga bo'lib tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: Turon tekisligida joylashgan tekisliklar (Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt, Orolbo'yi qumlari, Badxiz va Qorabel qirlari); tog'oldi tekisliklari; tog'oralig'idagi vodiylarda joylashgan tekisliklar.

Tog'larni tushuntirish shimoldan boshlangani ma'qul, chunki O'рта Osiyo tog'lari shimoldan janubga tomon asta-sekin ko'tarilib boradi. Masalan, Qozog'iston past tog'lari, Tyanshan, Pomir, Hindiqush. O'рта Osiyoning orfografik chizmasini sinf doskasiga chizib ko'rsatilsa, darsning o'zlashtirilishi yaxshi bo'ladi yoki bu vazifani uyga topshiriq sifatida berilsa ham bo'ladi.

Shundan so'ng O'рта Osiyo tabiiy xaritasini o'qish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilinadi. Bunda tekisliklar (past tekislik, yassi



tekislik, qirsimon tekislik), tog'lar (yassi, o'rtacha, baland) qanday o'qish va tavsifini tuzish haqida ko'nikmalar beriladi. Darsning ushbu qismini amaliy mashg'ulot sifatida o'tsa ham bo'ladi.

☞ **Atama va tushunchalar:** relyef, tekislik, pasttekislik, yassi tekislik, qir, yassi tog', baland tog', vodi, tog'oldi tekisligi, tizma, tog' tizimi, chink.

📍 **Geografik obyektlar.** Qoragiyo botig'i, Trichmir cho'qqisi Qoraqum, Qizilqum, Badxiz va Qorabel qirlari, Ustyurt va To'rg'ay platolari, To'rg'ay botig'i, Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vodiylari, Qozog'iston past tog'lari, Chingiz tog', Torbog'otoy, Jung'oriya Olatovi, Tyanshan tog'lari, Pomir, Turkman-Xuroson tog'lari, Kopetdog', Nishopur, Bandi Turkiston, Safedko'h, Paropamiz tog'lari.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** Shchukin I.S. Geomorfologiya Sredney Azii. Izd-vo MGU, M. 1983; Qoriyev M. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T., 1968; Srednyaya Aziya. M. 1969.

### ❓ **Savol va topshiriqlar**

1. O'rta Osiyoda tarqalgan asosiy relyef shakllarini aniqlang.
2. O'rta Osiyoda daryolar ishi natijasida qanday relyef shakllari hosil bo'lgan?
3. O'rta Osiyodagi eng baland tog'lar jadvalini tuzing.

## 16- dars

📖 **Darsning mavzusi.** Iqlimga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

☝ **Darsning maqsadi.** O'rta Osiyo iqlimiga ta'sir etuvchi omillar, ularning o'lka iqlimining shakllanishidagi roli haqida bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish. Iqlim hosil qiluvchi omillar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish.

🌐 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, 7-sinf atlas, darslik, chizma va rasmlar.

📖 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dastlab o'qituvchi iqlim hosil qiluvchi omillarni suhbat usulida o'quvchilarni ongic' qaytadan tiklaydi, ularning javoblarini to'ldiradi va iqlim hosil qiluvchi omillar to'g'risidagi bilimlarni yakunlaydi. Shundan so'ng o'qituvchi iqlimga oid umumiy tushun

- chalar to'g'risida bilimlar beradi (Quyosh radiatsiyasi, havo massalari, frontlar, siklonlar, antitsiklonlar va h.k.).

Shundan so'ng O'rta Osiyo iqlimiga ta'sir etuvchi omillarni birin-ketin tushuntira boshlaydi. Darsning bu qismini qisman suhbat usulida o'tilsa ham bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi quyidagi savollar tizimini tuzishi va ularga o'quvchilarning xarita va darslikdagi chizmalardan foydalanib javob berishini taklif qiladi: 1) joyning geografik o'rni va Quyosh radiatsiyasi miqdori iqlimga qanday ta'sir ko'rsatadi? 2) O'rta Osiyoning geografik o'rni uning iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi? 3) O'rta Osiyoning shimolida va janubida Quyoshning ufqdan balandligi qancha va u Quyoshdan kelayotgan issiqlik miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi? 4) O'rta Osiyoga qishda qanday havo massalari kirib keladi va ular iqlimda qanday o'zgarishlar vujudga keltiradi? 5) Yozda O'rta Osiyoda qanday havo massalari hukmron bo'ladi va ular qanday iqlimni vujudga kelishiga sabab bo'ladi? 6) O'rta Osiyoning shimoliy va g'arbiy qismlarining ochiqligi uning iqlimiga qanday ta'sir qiladi? 7) O'rta Osiyoning janubiy qismining tog'lar bilan to'silganligi uning iqlimiga qanday ta'sir qiladi? Mazkur savollarga javob topish davomida o'quvchilar O'rta Osiyo iqlimiga ta'sir etuvchi omillarni bilib oladilar. O'quvchilar javobini eshitgandan so'ng o'qituvchi javoblarni tushuntiradi va to'ldiradi. So'ngra O'rta Osiyo iqlimiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha xulosa qiladi va o'quvchilar bahosini e'lon qiladi, hamda uyga vazifa beradi.

☞ **Atama va tushunchalar:** iqlim, iqlim hosil qiluvchi omillar, Quyosh radiatsiyasi, geografik o'rni, joy relyefi tarqoq radiatsiyasi, to'g'ri radiatsiya, yalpi radiatsiya.


📍 **Geografik obyektlar.** O'rta Osiyo, Qoraqum, G'arbiy Sibir, Ural tog'lari, Sharqiy Sibir, Volgabo'yi, Sharqiy Yevropa tekisligi.


📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** Babushkin L.N. Klimatografiya Sredney Azii. T., 1981; Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T., 2002.


### ❓ *Savol va topshiriqlar*


1. Iqlim hosil qiluvchi omillarga nimalar kiradi?
2. O'rta Osiyoda qanday havo massalari hukmron?
3. To'g'ri, tarqoq va yalpi radiatsiya deganda nimani tushunasiz?
4. O'rta Osiyoning relyefi uning iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi?


## 17-dars


 **Darsning mavzusi.** Havo massalari. Siklonlar, antisiklonlar.


 **Darsning maqsadi.** Havo massalari, ularning turlari, iqlim hosil qilishdagi o'rnini va ahamiyati, siklonlar, antisiklonlar va havo frontlari haqida bilimlar berish va tegishli ko'nikmalarni shakllantirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, 7- sinf atlas, darslik, siklon va antisiklon chizmasi.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dars tushuntirish usulida olib boriladi. Dastlab o'qituvchi havo massalari asosiy iqlim hosil qiluvchi omil ekanligini aytadi, VI sinfda o'tilgan havo massalar haqidagi bilimlarni o'quvchilarga eslatadi va qanday havo massalari turlari borligini o'quvchilardan so'raydi. Shundan so'ng O'rta Osiyo iqlimining shakllanishida faol ishtirok etadigan arktika, mo'tadil va tropik havo massalari ta'rifiga kengroq to'xtaladi. Ularni qaysi tomondan va qaysi faslda kirib kelishi va qanday ob-havoning shakllanishiga olib kelishini tushuntirib beradi. Ikki xil havo massalari oralig'ida oraliq zona yoki frontlar hosil bo'lishini, asosiy atmosfera jarayonlari (yog'in-sochin, shamol va h.k.) mazkur frontlarda sodir bo'lishini, ular iliq yoki sovuq bo'lishini yoritib beradi. Siklon va antisiklonlar hosil bo'lishini chizma yordamida yoki sinf doskasiga chizib tushuntiradi. Dars oxirida o'qituvchi havo massalari, havo frontlari, siklonlar bo'yicha umumiy xulosa qiladi va ularning O'rta Osiyo iqlimini shakllanishidagi o'rnini ochib beriladi.

 **Atama va tushunchalar:** havo massalari, havo fronti, sovuq front, iliq front, siklon va antisiklon.


 **Geografik obyektlar:** Arktika, Shimoliy Muz okeani, G'arbiy Sibir, Ural, Sharqiy Sibir, Volgabo'yi, Sharqiy Yevropa.


 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** Babushkin L.N. Klimatografiya Sredney Azii.T., 1981; Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T., 2002. Srednyaya Aziya M., 1979.


 **Savol va topshiriqlar**


1. Havo fronti qanday hosil bo'ladi?
2. O'rta Osiyo iqlimiga qanday havo massalari ko'proq ta'sir ko'rsatadi?
3. Siklon va antisiklon chizmasini tushuntirib bering.

## 18-dars

 **Darsning mavzusi.** O'lkam iqlimining ta'rifi.

 **Darsning maqsadi:** O'lkam iqlimining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish. Yoz va qish fasllarida havo massalari harakatining iqlimga ta'sirini o'rganish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, 7-sinf atlas. Osiyoning iqlim xaritasi.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dars mavzusi e'lon qilinganda o'quvchilardan havo massalari va havo frontlari, siklonlar va antisiklonlar haqida yana bir so'rab, yangi mavzuni tushuntirishga kirishiladi. Bunday dars quyidagi tartibda tushuntiriladi: a) qishda o'lkam iqlimi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari: b) yozda o'lkam iqlimi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Qish, ya'ni yilning sovuq davrida O'rta Osiyo iqlimining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– Osiyo yoki Sibir antisiklonining shakllanishi va uni O'rta Osiyo iqlimiga ta'siri;

– Qutb frontining O'rta Osiyo janubida hosil bo'lishi va mazkur frontda siklonlarning vujudga kelishi;

– g'arbdan mo'tadil havo massalarining kirib kelishi, ularning uzoq davomli yomg'irlar yog'ishiga sabab bo'lishi;

– shimoliy-g'arbiy va shimoliy arktika va mo'tadil havo massalarining kirib kelishi va O'rta Osiyoning sovib ketishi;

– Qish oylari g'arbiy havo oqimi kuchli bo'lsa, ob-havoning iliq va sernam bo'lishi, shimol va shimoli-sharqdan sovuq havo oqimi kuchayib ketsa ob-havo o'ta sovuq va yomg'irli bo'ladi.

Yoz, ya'ni yilning issiq davrida O'rta Osiyo iqlimining o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:


– O'rta Osiyo hududida kontinental tropik havo massasining shakllanishi va uni butun yoz davomida turib qolishi;


– qutb frontining shimolga, ya'ni Qozog'istonning shimoli, Ural va G'arbiy Sibirga ko'chishi;


– O'rta Osiyoning katta qismida past bosimli hudud, ya'ni termik depressiyaning vujudga kelishi;

– shimoldan, g'arbdan va shimol-g'arbdan kelayotgan havo oqimlari kuchayadi, ammo ularning o'lkam iqlimiga ta'siri sezilmaydi, chunki ular tez qizib, nisbiy namligini yo'qotadi.

Shundan so'ng o'qituvchi darsni yakunlaydi, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi hamda vazifa beradi.

 **Atama va tushunchalar:** Osiyo (Sibir) antisikloni, havo fronti, qutbiy front, mo'tadil havo massasi, g'arbiy havo iqlimi, siklon, termik depressiya, past bosim hududi.

 **Geografik obyektlar:** Sharqiy Sibir, Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston, Kaspiy dengizi, Murg'ob va Tajan vodiysi, Amudaryo, Atlantika okeani, O'rtayer dengizi, Turon, Qozog'iston, Ural, G'arbiy Sibir, Qizilqum, Tomdi, Qoraqum, Repetek, Surxondaryo, Sherobod cho'li.


 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** Babushkin L.N. Klimatografiya Sredney Azii, T., 1981; Qoriyev M. O'рта Osiyo tabiiy geografiyasi T., 1968; Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'рта Osiyo tabiiy geografiyasi, T., 2002.


### **Savol va topshiriqlar**


1. O'рта Osiyo iqlimi qanday omillar ta'sirida shakllanadi?
2. O'рта Osiyoda yozda qanday termik depressiyalar hosil bo'ladi?
3. O'рта Osiyodagi yil fasllariga ta'rif bering.

## 19—20- dars

 **Darsning mavzusi.** O'рта Osiyo tog'larining iqlimi. O'рта Osiyodagi iqlimiy tafovutlar

 **Darsning maqsadi.** Iqlimning balandliklar bo'yicha, o'zgarishi haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish. O'рта Osiyo tog'lari iqlimining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish.


 **Ko'rgazma materiallar.** O'рта Osiyo tabiiy xaritasi, 7- sinf atlaslari, xizmatlar, jadvallar, rasmlar.


 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dastlab harorat va bosimning balandlikka ko'tarilgan sari qanchaga pasayishi va buning iqlimga qanday ta'sir ko'rsatishi haqidagi bilimlar suhbat usulida o'quvchilar xotirasida qaytadan tiklanadi, so'ngra dars quyidagi tartibda tushuntiriladi:

— O'рта Osiyo iqlimining o'ziga xos xususiyatlari, yana bir bor qisqa tarzda ochib beriladi;

— O'рта Osiyo, asosan, mo'tadil iqlim mintaqasida joylashganligi, uning chekka janubiy qismlarigina subtropik iqlim mintaqasida joylashganligi;

— o'lkaning katta qismi deyarli bitta iqlim mintaqasida joylashganligiga qaramasdan shimoliy va janubiy qismlari iqlimi bir-biridan keskin farq qilishi asoslab beriladi.

 **Atama va tushunchalar:** iqlimiy rayonlashtirish, Qozog‘iston iqlimi, Turon iqlimi, atmosfera harakatlari, tropik havo, kontinental havo.


 **Geografik obyektlar:** Markaziy Osiyo, Sharqiy Sibir, Sharqiy Yevropa, O‘rtayer dengizi, Qorabo‘g‘ozgo‘l, Ustyurt, Qoraqum, Qizilqum, Qoratog‘


### **Savol va topshiriqlar**


1. O‘rta Osiyo iqlimining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Turon va Qozog‘iston iqlimlarining asosiy farqlarini jadval shaklida ifodalang.

## 21- dars

 **Darsning mavzusi.** O‘rta Osiyoning suvlari. Umumiy tushuncha.

 **Darsning maqsadi.** Hidrosfera haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish. O‘rta Osiyo ichki suvlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish.


 **Ko‘rgazma materiallar.** O‘rta Osiyo tabiiy xaritasi, 7- sinf atlas, jadvallar, rasmlar, chizmalar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dastlab o‘quvchilar bilan gidrosferaning tarkibiy qismlari, quruqlik suvlari haqida qisqacha suhbat o‘tkaziladi. So‘ngra dars quyidagi tartibda davom ettiriladi:

— O‘rta Osiyo ichki suvlarining tarkibiy qismlari: yer usti suvlari (daryo, ko‘l, botqoq, muzliklar), yer osti suvlari (chuchuk, shifobaxsh va sanoat suvlari);

— O‘rta Osiyoda oqar suvlarning notekis taqsimlanganligi va uning asosiy sabablari tushuntiriladi;


— O‘rta Osiyo hududida yog‘in miqdorining notekis taqsimlanishi va bu holatning ichki suvlarning taqsimlanishiga ta‘siri.


 **Atama va tushunchalar:** gidrosfera, ichki suvlar, yer usti suvlari, yer osti suvlari, daryo, ko‘l, muzlik, daryo qiyaligi. Daryo nishabi, daryo suv sarfi, daryoning to‘yinishi.


### **Savol va topshiriqlar**


1. O‘rta Osiyo ichki suvlari qanday suvlardan iborat?
2. O‘rta Osiyo daryolari to‘yinishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
3. Xaritadan foydalanib, o‘lkadagi yirik muzliklar ro‘yxatini tuzing.

## 22- dars

 **Darsning mavzusi.** O'rtasiyoning daryolari.

 **Darsning maqsadi.** O'rtasiyo daryolari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida o'quvchilarga bilimlar berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rtasiyo tabiiy xaritasi, 7- sinf atlas, jadvallar, chizmalar, rasmlar.


 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dars O'rtasiyo daryolarining to'yinishi va har bir to'yinish guruhiga kiruvchi daryolar bo'yicha suhbat o'tkaziladi, o'quvchilar bilimi baholanadi, so'ngra asosiy mavzu quyidagi tartibda o'rganiladi:

— O'rtasiyodagi yirik daryolar xaritadan ko'rsatiladi. G'arbga, shimolga janubga va sharqqa oquvchi daryolar guruhi ajratiladi;

— O'rtasiyoning eng uzun daryosi Sirdaryo kengroq o'rganiladi. Havzasi, to'yinishi, boshlanish joyi, quyilish joyi, Qoradaryo va Norin daryolarini qo'shilishidan hosil bo'lgani haqida ma'lumot beriladi.

O'rtasiyoda suv tanqisligi, suvdan oqilona foydalanish, muhofaza qilish masalalariga alohida to'htab o'tiladi.

 **Atama va tushunchalar:** daryo to'yinishi, suv rejimi, manba, mansab, deygish, kanal, GES.

 **Geografik obyektlar:** Amudaryo, Sirdaryo, Qoradaryo, Norin, Chirchiq, Zarafshon, Ohangaron, Sherobod, Ili, Chuv, Surxondaryo, Lepsa va boshqa daryolar.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**

### O'rtasiyoning asosiy daryolari

№	Nomi	Uzunligi (km)	Havzasining maydoni (ming km)	Boshlanadigan joy
1.	Amudaryo	2540	237	Hindiqush tog'i
2.	Sirdaryo	3019	219	Oqshyroq va Terskay Olatovi
3.	Ili (Tekes bilan)	1384	154	Xontangri tog' massivi
4.	Lepsa	374	618	Jung'oriya Olatovi

1	2	3	4	5
5.	Chuv	1100	148	Qirg'iz tizmasi
6.	Murg'ob	1300	63	Bandi Turkiston tog'lari
7.	Zarafshon	740	42	Zarafshon muzligi
8.	Tajan	1124	78	Safedko'h tog'i
9.	Sarisuv	800— 1100	100	Qozog'iston past tog'lari
10.	Nura	911	73	Qozog'iston past tog'lari


### ❓ Savol va topshiriqlar


1. O'rta Osiyodagi yirik daryolarni tabiiy xaritadan aniqlang?
2. Xitoy hududidan boshlanib Balxash ko'liga qo'shiladigan daryoni aniqlang
3. O'rta Osiyo daryolari jadvalini tuzing.


## 23- dars


 **Darsning mavzusi.** Ko'llari va suv omborlari.

 **Darsning maqsadi.** O'rta Osiyo ko'llari va suv omborlari haqida o'quvchilarga bilim berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, jadvallar, rasmlar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dars ko'llar bo'yicha bilimlarni takrorlash bilan boshlanadi. O'qituvchi ko'l deb nimaga aytiladi, ko'llar kelib chiqishiga ko'ra qanday guruhlar bo'linishi, oqar va oqmas ko'llar, chuchuk va sho'r ko'llar haqida qisqacha suhbat o'tkazadi, o'quvchilarning javoblari to'ldiriladi, so'ngra yangi mavzu quyidagi tartibda o'rganiladi. — O'rta Osiyo ko'llari haqida umumiy tushuncha. Eng yirik ko'llari, ko'llarning kelib chiqishiga ko'ra turlari (tektonik, qoldiq, o'zan, qayir, delta, to'g'on, tashlama va h.k.).

 **Atama va tushunchalar:** ko'l, tektonik, qoldiq, qayir, to'g'on ko'l va boshqa ko'llar, oqar va oqmas ko'l, sun'iy ko'l.

 **Geografik obyektlar.** Orol dengizi, Balxash ko'li, Issiqko'l, Sarez, Qorako'l, Buxtarma, To'xtag'ul, Qayroqqum, Tuyamo'yin, Norak, Andijon suv omborlari.



## **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**

### **O'rta Osiyoning eng yirik ko'llari**

Nomi	Maydoni (ming km <sup>2</sup> )	Eng chuqur joyi (m)	Suvining ta'mi	Dengiz sathidan balandligi
Orol	30,1	54	sho'r	40
Balxash	8,3	26	yarim sho'r	342
Issiqko'l	6,23	702	chuchuk	1608
Aydar	6,0	25	sho'r	236
Sonko'l	0,27	21	chuchuk	3016
Chatirko'l	0,16	2	chuchuk	3530
Qorako'l	0,39	236	sho'r	3914
Sariqamish	2,850	39,5	sho'r	483
Sarez	0,079	499,8	chuchuk	3263

### **O'rta Osiyoning eng katta suv omborlari**


Nomi	Maydoni	Suv hajmi (mln, m <sup>3</sup> )	Qaysi daryo havzasida
Buxtarama	5500	53000,0	Chartish
To'xtag'ul	284,0	19500,0	Norin
Qayroqqum	513,0	4200,0	Sirdaryo
Tuyamo'yin	790,0	7300,0	Amudaryo
Chordara	900,0	5700,0	Sirdaryo
Rogun	100,0	12400,0	Amudaryo
Norak	98,0	10500,0	Baxsh
Jan.Surxon	65,0	800,0	Surxondaryo
Chorvoq	40,0	2006,0	Chirchiq
Kattaqo'rg'on	83,6	845,0	Zarafshon
Chimqo'rg'on	44,4	449,0	Qashqadaryo
Andijon	80,0	1750,0	Qoradaryo


## Savol va topshiriqlar


1. O'рта Osiyo ko'llari kelib chiqishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. O'рта Osiyoda suv omborlari qanday maqsadlarda quriladi?
3. O'рта Osiyodagi yirik ko'llar ro'yxatini tuzing.

## 24- dars

 **Darsning mavzusi.** Yer osti suvlari.

 **Darsning maqsadi.** Yer osti suvlari haqida bilimlarni kengaytirish. O'рта Osiyo yer osti suvlarini shakllanishi, turlari va ulardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'рта Osiyoni gidrogeologik xaritasi, O'рта Osiyoning tabiiy xaritasi, chizmalar, rasmlar, jadvallar.






 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dars yer osti suvlari bo'yicha qisqa suhbat bilan boshlanadi. O'qituvchi o'quvchilar xotirasida yer po'stidagi suvlar, suv o'tkazadigan, suv o'tkazmaydigan tog' jinslari, grunt suvlari, qatlamlararo suvlar, artezian (bosimli) suvlari, mineral suvlar haqidagi bilimlarni tiklaganidan so'ng yangi mavzuni quyidagi tartibda yoritib beradi:

- O'рта Osiyoda yer osti suvlaridan qadimdan sug'orishda, ichimlik suvi sifatida foydalanib kelinayotganligi;
- O'рта Osiyoning tog'li va tekislik gidrogeologik kichik o'lkalarga bo'linishi;
- tog'lardagi yer osti suvlari, ularning manbalari;
- tekislikdagi artezian havzalari va ulardan xo'jalikda foydalanish;
- O'рта Osiyodagi mineral va shifobaxsh suvlar va ulardan foydalanish;
- suvlarni muhofaza qilish;
- darsni yuqoridagi bandlar bo'yicha yakunlaydi va mustahkamlaydi.

## Savol va topshiriqlar

1. Yer osti suvlari deb qanday suvlarga aytiladi?
2. O'рта Osiyoda yer osti suvlaridan qanday maqsadlarda foydalaniladi? Suvlar qanday muhofaza qilinadi?
3. Artezian qudug'i chizmasini chizing.





## 25- dars

-  **Darsning mavzusi.** Tuproqlar haqida tushuncha
-  **Darsning maqsadi.** Tuproqlar haqida o'quvchilar bilimlarini kengaytirish va yangi bilimlarni shakllantirish.
-  **Ko'rgazma materiallar.** Tuproq kesmalari, tuproq xaritasi, tuproq namunalari.
-  **Darsni uyushtirish shakllari.** Darsni suhbat, o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib ishlash asosida tashkil etish mumkin. Mazkur mavzuni o'rganishda quyidagi mantiqiy holatlarga e'tibor beriladi: 1) tuproq hosil bo'lish jarayoni; 2) tuproqlarning tarkibi (ona jinsi); organik moddalar; tuproq eritmasi; 3) tuproq qatlamlari; 4) turli iqlim sharoitida turli tuproqlarning hosil bo'lishi. 5) tuproqlarning mexanik tarkibi; 6) donador va og'ir tuproqlar; 7) madaniy tuproqlar; 8) turli tabiat zonalari tuproqlarining bir-biridan farqi; 9) tuproqlardan foydalanish va muhofaza qilish.
-  **Atama va tushunchalar:** nurash, ona jins, organik modda, chirindi, tuproq eritmasi, tuproq qatlamlari, mexanik tarkib, donador va og'ir tuproqlar, madaniy tuproq.

### Savol va topshiriqlar


1. Tuproq deb nimaga aytiladi?
2. Tuproq hosil bo'lishi nimadan boshlanadi?
3. Tuproqning mexanik tarkibi deganda nimani tushunasiz?


## 26- dars

-  **Darsning mavzusi.** O'rta Osiyo o'lkasida tarqalgan tuproqlar.
-  **Darsning maqsadi.** O'rta Osiyo tuproqlari, ularning turlari, tarqalishi, hosildorligi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.
-  **Ko'rgazmali qurollar.** O'rta Osiyo tuproqlari xaritasi, tuproq namunalari, tuproq kesmalari.
-  **Darsni uyushtirish shakllari.** Tuproq haqidagi bilim va ko'nikmalar eslab o'tilgach, yangi mavzu quyidagi tartibda o'rganiladi:
- O'rta Osiyoda shakllangan tuproq turlari (cho'l, bo'z, tog'-o'rmon, dasht, baland tog' tuproqlari);

— cho‘l tuproqlari, ularning turlari va tarqalgan hududlari, chirindi miqdori, kimyoviy tarkibi, unumdorlik darajasi;

— bo‘z tuproqlar, turlari, madaniy tuproqlar, tarqalgan hududlari, chirindi miqdori, unumdorligi.

 **Atama va tushunchalar:** cho‘l zonasi, sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar, taqirlar, taqir tuproqlar, bo‘z tuproqlar.


 **Geografik obyektlar:** O‘rta Osiyo, Turon tekisligi, Farg‘ona vodiysi, tog‘oldi va tog‘ oraligi tekisliklari, Tyanshan, Pomir, Kopetdog‘ tog‘lari.


### **Savol va topshiriqlar**


1. O‘rta Osiyoda qanday tuproqlar tarqalgan?
2. Cho‘llarda qanday tuproq turlari tarqalgan?
3. Bo‘z tuproqlar haqida gapirib bering.

## 27, 28, 29- darslar

 **Darslarning mavzusi.** O‘rta Osiyo o‘simliklari.

 **Darsning maqsadi.** O‘rta Osiyo o‘simliklari, ularning turlari, tarqalish omillari, o‘simliklarning tekislik zonalari va tog‘ balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalganligi, o‘simliklardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

 **Ko‘rgazma materiallar.** O‘rta Osiyo o‘simliklari xaritasi. O‘rta Osiyo tabiiy xaritasi, gerbariyalar, rasmlar, fotosuratlar.


 **Darslarni uyushtirish shakllari.** Har bir darsda uy vazifasi tekshirilib bo‘lingandan so‘ng dars quyidagi tartibda o‘rganiladi:


— dasht va cho‘l o‘simliklari tarqalgan hududida asosiy o‘simlik turlari, ularning tabiatga moslashuvi, dashtni to‘la o‘zlashtirilganligi va tabiiy dasht o‘simliklarining kam qolganligi;

— cho‘l o‘simliklari, ularning sharoitga moslashuvi, cho‘l o‘simliklari guruhlarini;

— adir va tog‘ o‘simliklarining o‘ziga xos xususiyatlari, tog‘lardagi dasht, o‘rmon, o‘tloq o‘simliklari;

— yuqoridagi bandlar bo‘yicha darslar yakunlanadi; mustahkamlanadi va uyga vazifa beriladi.

 **Atama va tushunchalar:** o‘simlik, dasht, cho‘l, chalacho‘l, adir, yaylov sho‘rxok o‘simliklari, Qumli cho‘l, gilli cho‘l, To‘qay, Taqir.


 **Geografik obyektlar.** Qozog'iston past tog'lari, Qizilqum, Qoraqum, Ustyurt, Pomir, Tyanshan, Parapamiz, Kopetdog', Turon, Bo'rsiq, Qoraqum, Sarisuv, Babxashbo'yi qumlari.


### **Savol va topshiriqlar**


1. O'rta Osiyoda qanday o'simlik turlari tarqalgan?
2. Dasht va cho'llarda qanday o'simlik turlari tarqalgan?
3. Issiqlikka va suvsizlikka chidamli o'simliklar qanday nom bilan ataladi?
4. Tog'larda o'simliklarning tarqalishi qanday o'ziga xos xususiyatga ega?

## 30- dars

 **Darsning mavzusi.** Hayvonot dunyosi.

 **Darsning maqsadi.** O'rta Osiyo hayvonlari, ularning tarqalishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari, ularni muhofaza qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo hayvonot dunyosi xaritasi, 7- sinf atlas, O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, rasmlar, fotosuratlar, diafilmlar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Darsni hayvonot olami to'g'risidagi qisqacha suhbat bilan boshlash lozim. Bunda quruqlikda, suvlarda, tuproqda yashovchi hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari, quruqlikdagi hayvonlarning turlari (sudralib yuruvchilar, sutemizuvchilar, qushlar, baliqlar va h.k.) va ularning tabiiy sharoitga moslashuviga ko'proq e'tibor beriladi. So'ngra dars quyidagi bo'limlar bo'yicha o'rganiladi:


— O'rta Osiyo tabiiy sharoiti xilma-xilligining hayvonlarni tarqalishiga va yashash sharoitiga ta'siri;


— chalacho'llarning hayvonlari va ularning mavsumlar bo'yicha o'zgarib turishi;

— cho'l hayvonlari, ularning cho'l sharoitiga moslashuvi, turlari, yashash sharoitlari;

— tog' hayvonlari, ularning balandlik mintaqalari bo'ylab tarqalishi, turlari, yashash sharoitlari;

— darsni yakunlash, mustahkamlash va uyga vazifa berish.

 **Atama va tushunchalar:** hayvonot dunyosi, sudralib yuruvchilar, tuyoqlilar, sutemizuvchilar, yirtqichlar, qushlar, baliqlar.


 **Geografik obyektlar.** Betpaq dala, Orolbo‘yi, Shimoliy Ustyurt, To‘rg‘ay, Balxash, Jung‘oriya Olatovi.


 **Savol va topshiriqlar**


1. O‘rta Osiyo tabiiy sharoiti hayvonlarning tarqalishiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
2. Cho‘l hayvonlari ro‘yxatini tuzing.
3. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar nomini daftaringizga yozib qo‘ying.

### 31- dars

 **Darsning mavzusi.** Tabiat zonalari.

 **Darsning maqsadi.** Tabiat zonalari haqida o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish.


 **Ko‘rgazma materiallar.** O‘rta Osiyo va Osiyo tabiat zonalari xaritalari, O‘rta Osiyo tabiiy xaritasi, rasmlar, fotosuratlar.


 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dars tabiat zonalari haqidagi qisqa suhbat bilan boshlanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini zonallik, kenglik zonalari, balandlik mintaqalari, tabiat zonalarning hosil bo‘lishida namlik va bug‘lanish hamda haroratning roli masalalariga qaratadi. So‘ngra dars quyidagi tartibda o‘tiladi:

— O‘rta Osiyoda shakllangan tekislik zonalari va balandlik mintaqalari, ularning shakllanish xususiyatlari va joylashishi;

— tekislik tabiat zonalari. Ularning shimoldan janubga tomon almashinishi. Dasht zonasi dashtning iqlimiy sharoiti, tuprog‘i, o‘simligi, hayvonlari, o‘zlashtirilish darajasi, Chalacho‘l zonasi joylashgan hududlar, iqlimi, tuprog‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi, cho‘l zonasi, uning juda katta maydonni egallagani, o‘ziga xos xususiyatlari, organizmlarning cho‘l sharoitiga moslashuvi; qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar;

— darsni yakunlash, mustahkamlash va uyga vazifa berish.


 **Atama va tushunchalar:** zonallik, kenglik zonalari, balandlik mintaqalari, dasht, chalacho‘l, cho‘l zonasi.


 **Geografik obyektlar.** To‘rg‘ay platosi, Qozog‘iston past tog‘lari, Turon tekisligi, Balxashbo‘yi qumlari.

 **Savol va topshiriqlar**


1. Tabiat zonasi deb nima aytiladi?
2. O‘rta Osiyodagi tabiat zonalari jadvalini tuzing.
3. O‘lkada balandlik mintaqalari qaysi tabiat zonasidan boshlanadi?

## 32- dars

 **Darsning mavzusi.** O'rta Osiyoning tabiiy-geografik rayonlashtirilishi.

 **Darsning maqsadi.** Tabiiy-geografik rayonlashtirish haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish. O'rta Osiyoni tabiiy-geografik rayonlarga ajratish tamoyillari va shart-sharoitlarini ochib berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, 7- sinf atlas, Yevrosiyo tabiiy xaritasi.


 **Darsni uyushtirish shakllari.** Dars tabiiy-geografik rayonlashtirishning maqsadi va ahamiyati haqida qisqa suhbat bilan boshlanadi. So'ngra dars quyidagi tartibda o'tkazilishi mumkin:

— Turon tabiiy-geografik kichik o'lkasining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Yil fasllaridagi iqlimning o'zgarishi, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosidagi o'ziga xosliklar tushuntiriladi (iqlimida subtropik iqlim belgilari borligi, yog'inlarning notekis taqsimlanganligi, yozning issiqligi va h.k.).

— Qozog'iston tabiiy-geografik kichik o'lkasining tabiatidagi o'ziga xos xususiyatlar (yog'in miqdori kam, ammo ular fasllar bo'yicha tekis taqsimlanganligi, efemer va efemeroidlarning o'smasligi va h.k.):

— Turon va Qozog'iston tabiiy-geografik kichik o'lklarining asosiy tafovutlari ochib beriladi;

— dars mustahkamlanadi va uyga vazifa beriladi.


 **Atama va tushunchalar:** tabiiy-geografik rayonlashtirish, tabiiy-geografik o'lka, tabiiy-geografik rayon.


 **Geografik obyektlar:** Turon, Qozog'iston.


### **Savol va topshiriqlar**


1. Tabiiy-geografik rayonlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. O'rta Osiyo hududi tabiiy-geografik sharoitiga ko'ra qanday yirik qismlarga bo'linadi?

## 33- dars

 **Darsning mavzusi.** Turon tabiiy-geografik kichik o'lkasi.


 **Darsning maqsadi.** Turon tabiiy-geografik kichik o'lkasining asosiy xususiyatlarini va tabiiy-geografik rayonlarga bo'linishini ochib berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, 7- sinf atlas, chizmalar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'tilgan dars bo'yicha bilim va malakalar tekshirilib bo'lgandan so'ng yangi mavzu quyidagi bloklar bo'yicha olib boriladi:

— Turon tabiiy-geografik kichik o'lkasining chegaralari xaritadan ko'rsatiladi, iloji bo'lsa, uning sxemasini sinf doskasiga chizib qo'yiladi. Shimoliy, janubiy, sharqiy va g'arbiy chegaralar qaysi geografik obyektlardan o'tishi ko'rsatiladi va tushuntiriladi. Turon tabiiy-geografik o'lkasining ikkita tabiiy geografik rayonlar guruhiga bo'linishi asoslab beriladi;

— dars mustahkamlanadi va uyga vazifa beriladi.


 **Geografik obyektlar.** Tyanshan, Pomir, Oloy, Qoraqum, Qizilqum, Kaspiybo'yi, Xorazm tekisligi, Yuqori Amudaryo.

 **Savol va topshiriqlar**


1. Turon tabiiy geografik o'lkasi tekislik qismiga qaysi joylar kiradi?
2. Turon tabiiy geografik o'lkasi tog'li qismiga qaysi tog'lar kiradi?

## 34- dars

 **Darsning mavzusi.** Qozog'iston tabiiy geografik kichik o'lkasi.

 **Darsning maqsadi.** Qozog'iston tabiiy geografik o'lkasining o'ziga xos xususiyatlari va rayonlarga bo'linishini ochib berish.


 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, 7-sinf atlas.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Turon tabiiy-geografik kichik o'lkasi haqida bilim va ko'nikmalarni tekshirib bo'lgandan so'ng dars quyidagi bloklar bo'yicha tushuntiriladi:

— Qozog'iston tabiiy geografik o'lkasining chegaralari xaritadan ko'rsatiladi. Qozog'iston tabiiy geografik o'lkasini ham ikkita tabiiy-geografik rayonlar guruhiga bo'linishi tushuntiriladi;


— dars mustahkamlanadi, uyga vazifa beriladi.

 **Geografik obyektlar.** Shimoliy Tyanshan, Markaziy Tyanshan, Qozog'iston past tog'lari, Ustyurt, To'rg'ay supasimon o'lkasi.

 **Savol va topshiriqlar**

1. Qozog'iston tabiiy-geografik kichik o'lkasi tekislik qismiga kiradigan cho'llar ro'yxatini tuzing.
2. Qaysi tog'lar Qozog'iston kichik o'lkasi doirasida joylashgan?












### III qism


## „O‘zbekiston tabiiy geografiyasi“ mavzulari bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

### 1- dars

-  **Darsning mavzusi.** O‘zbekistonning geografik o‘rni, chegaralari va maydoni.
-  **Darsning maqsadi.** O‘quvchilarda O‘zbekistonning tabiati va uning o‘ziga xos muhim jihatlari haqida tasavvurlarni shakllantirishga kirishish; o‘quvchilarni „O‘zbekiston tabiiy geografiyasi“ning mazmuni, tuzilishi bilan tanishtirish; o‘quvchilarda Respublikamizning geografik o‘rni, uning o‘ziga xos xususiyatlari, chegaralari, maydoni to‘g‘risida tasavvurlarni shakllantirish; O‘zbekistonning O‘rta Osiyo o‘lkasida va jahon mamlakatlari orasida tutgan o‘rni haqida tasavvur hosil qilish. O‘zbekiston hududidan yetishib chiqqan buyuk kishilar haqida ma‘lumot berish.
-  **Ko‘rgazma materiallar.** Dunyoning siyosiy xaritasi, O‘zbekistonning siyosiy-ma‘muriy xaritasi, yarimsharlar va O‘rta Osiyoning tabiiy xaritalari, 7- sinf atlas, ma‘lumotnomalar, rasmlar, diafilmlar, jadvallar.
-  **Darsni uyushtirish shakllari.** O‘qituvchining „O‘zbekistonning tabiiy geografiyasi“ kursining maqsadi va vazifasi haqidagi hikoyasi; O‘zbekistonning geografik o‘rnini xaritadan foydalangan holda hikoya qilish; jadvallardan foydalanib O‘zbekistonning maydoni, chegaralari kattaligini suhbat asosida tushuntirish; uning geografik o‘rnidagi asosiy xususiyatlarini ochib berish; xaritalardan O‘zbekistonning chekka nuqtalari koordinatalari va ular o‘rtasidagi masofalarni aniqlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish.
-  **Atama va tushunchalar.** Mamlakatning geografik o‘rni, chekka nuqtalari, chegaralari, maydoni.
-  **Geografik obyektlar.** O‘rta Osiyo, Yevrosiyo, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston, Turkmaniston.
-  **Darsga old qo‘shimcha ma‘lumotlar.**

## O'zbekistonning chegaralari


Chegaradosh davlatlar	Chegarasining umumiy uzunligi, km
Qozog'iston	2203
Qirg'iziston	1099
Tojikiston	1161
Afg'oniston	137
Turkmaniston	1221
Jami:	6221


 **Nomlar.** Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Al-Farg'oniy.


### Savol va topshiriqlar

- O'zbekistonning chekka nuqtalari o'rtasidagi masofalarni aniqlang:
  - Shimoliy va janubiy chekka nuqtalari orasidagi.
  - G'arbiy va sharqiy chekka nuqtalari orasidagi.
- O'zbekiston geografik o'rnining asosiy xususiyatlarini va uning tabiiy sharoitga ta'sirini aytib bering.
- O'zbekiston Respublikasining maydoni qancha?
  - 447,4 ming km.
  - 481,5 ming km.
  - 448,9 ming km.

## 2- dars

 **Darsning mavzusi.** Yer yuzasining asosiy xususiyatlari.

 **Darsning maqsadi.** O'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; o'quvchilarga O'zbekiston Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari, tekisliklar va tog'lar nisbatini aniq misollarda tushuntirish; o'quvchilarda mamlakatimizdagi tog'lar va tekisliklarning nisbati haqidagi tushuncha va tasavvur hosil qilish; darslikdan foydalanish va geografik axborotlar to'plash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy xaritasi, rasmlar, jadvallar, diafilmlar, kitoblar, qirqim-kesmalar, yozuvsiz xaritalar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilar bilan avvalgi

daroslarda egallangan tushuncha va ko'nikmalarni takrorlash; suhbat asosida yer yuzasining tuzilishi, uning tarkibiy qismlari haqidagi oldingi kurslarda egallangan bilimlarni esga olish; ko'rgazmali qurollar va darslikdan foydalangan holda respublikaning tekislik va tog'lik qismi yer yuzasining asosiy xususiyatlari haqida suhbat, savol-javob; geografik xaritada asosiy relyef shakllarini topish bo'yicha amaliy mashg'ulot; O'zbekiston hududidan o'tkazilgan profil-sxema bo'yicha amaliy mashg'ulot; o'quvchilar ongida O'zbekiston yer yuzasi tuzilishi haqida aniq tasavvurlar hosil qilish uchun diafilm, rasm, jadval va kitoblar bilan mustaqil ishlash.

☞ **Atama va tushunchalar:** Yer yuzasi, tekislik, tog'lik, profil, botiq, chink, plato, yassi tekislik, delta, qum tepa, do'ng, barخان, tog' tizmasi, burmali tog', yassi tog', past tog', o'rtacha balandlikdagi tog', baland tog', gilli cho'l, tog' tuguni, tog' oralig'i botig'i, vodiy, voha, qoldiq tog', tog' zanjiri, suvayirg'ich, dovon.

📦 **Geografik obyektlar:** Turon tekisligi, Ustyurt platosi, Qorabovur qiri, Borsakelmas, Asakaovdon botiqlari, Sariq-qamish botig'i, Amudaryo deltasi, Ko'kchadaryo, Daryolik deltalari, Qizilqum cho'li, Bukantog', Tomdibuloq, Ovminzatog', Kuljuktog', Yetimtog', Sul-ton Uvays tog'i, Mingbuloq, Oyoqog'itma, Qoraxotin botiqlari, Mirzacho'l, Qarnob, Malik cho'llari, Tyanshan, Hisor tog'lari, G'arbiy Tyanshan, Korjantog', Ugom, Piskom, Chotqol, Qurama tizmalari; Farg'ona, Oloy, Turkiston tog' tizmalari, Morguzar, Shumkor tog'lari; Nurota tog' tizmasi, Zarafshon tog' tizmasi, Hisor tizmasi, Bobotog' tizmasi; Chirchiq, Ohangaron, Farg'ona, Sangzor-Nurota, Zarafshon, Qashqadaryo, Sherobod-Surxondaryo tog' oralig'i botiqlari.

👉 **Nomlar:** A. Obidov, N. Dolimov, H. H. Hasanov, M. Qoriyev, P. Baratov, O. Akromxo'jayev, M. Mamatqulov va h. k.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**

**O'zbekiston tog' tizmalari va ularning eng baland nuqtalari**

❓ **Savol va topshiriqlar**

1. O'zbekiston hududining qancha qismini tekislik egallaydi?

- |            |           |
|------------|-----------|
| 1) 78,7%;  | 2) 43,5%; |
| 3) *21,3%; | 4) 25%.   |

2. O'zbekiston hududining qancha qismi tog'lardan iborat?
- 1)  $3/4$  qismi.
  - 2)  $2/4$  qismi.
  - 3)  $1/4$  qismi.
  - 4)  $1/3$  qismi.


3. O'zbekistonning g'arbiy va shimoli-g'arbiy qismida qaysi tekislikning bir qismi joylashgan?


- 1) Xorazm.
- 2) Turon.
- 3) Qoraqum.
- 4) Kaspiybo'yi.


4. O'zbekiston hududining katta qismini qaysi cho'l egallab yotadi?


- 1) Qoraqum.
- 2) Muyinqul;
- 3) Qizilqum.

### 3- dars


 **Darsning mavzusi:** Geologik tuzilishi va Yer yuzasining taraqqiyoti. Asosiy foydali qazilmalari.


 **Darsning maqsadi.** O'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; O'zbekistonning yer yuzasiga doir avvalgi darslarda olingan bilimlarni shakllantirishda davom etish; O'zbekistonning geologik tuzilishining xilma-xilligi, Turon plitasi, Tyanshan orogeni, ularning rivojlanish va shakllanish bosqichlari haqidagi tasavvurlarni hosil qilish; o'quvchilarga yer yuzasiga antropogen ta'sir, uning shakllari, oqibatlari haqida tushuncha berish; zilzilalar — ularning tarixi va oqibatlari, geologik jarayonlar davom etayotganligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; o'quvchilarni respublika hududidagi asosiy foydali qazilma konlarining joylashish qonuniyatlari bilan tanishtirish; geografik xaritalar va boshqa axborot manbayi bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.


 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning geologik, tektonik tabiiy xaritalari, foydali qazilmalar namunalari, geoxronologik jadval, sxemalar, kitoblar, diafilmlar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilar bilan oldingi kurslardan ma'lum bo'lgan atama va tushunchalarni takrorlash; ularni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; litosfera plitalari, ularning tuzilish xususiyatlari, joylashuvi va harakatlari haqida suhbat; orogen hudud, uning vujudga kelish bosqichlari haqida suhbat; yer po'stining tuzilishi va rivojlanish tarixi, geoxronologik jadvalni o'qish bo'yicha amaliy mashg'ulot uyushtirish; respublika hududidagi asosiy foydali qazilma konlari haqida savol-javob va

suhbat; geologik, tektonik va foydali qazilmalar xaritalari bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish; O'zbekistonning foydali qazilmalari haqida suhbat.

 **Atama va tushunchalar:** plita, platforma, harakatchan burmalanish hududlari, orogen tektonik tuzilma, yer yoriqlari, geoxronologiya, geologik eralar, davrlar, geoxronologik jadval, to'rtlamchi davr, relyef taraqqiyotining Toshkent, Mirzacho'l, Sirdaryo, Nanay bosqichlari.

 **Geografik obyektlar:** Turon plitasi, Tyanshan orogeni, Farg'ona tog' oralig'i botig'i, Shimoliy So'x, Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Chimyon, Sho'rsuv, Mingbuloq, Ko'kdumaloq, Sherobod-Surxondaryo tog' oralig'i botig'i, Xovdog', Uchqizil, Odamtosh, Pachkamar, Omonota, Muborak, Oqjar, Sariqtosh, Jarqoq, Qorovulbozor, Gazli, Shoxpaxta, Quvonish, Ohangaron, Sharg'un, Boysun, Qalmoqqir, Sarichekuv, Dalneye, Muruntog', Kakpas, Oqbosh, Xo'jaikon.

 **Nomlar.** N. M. Abdullayev, I. X. Hamroboyev, X. N. Boy-muhammedov, O. Akromxo'jayev.


### **Savol va topshiriqlar**

1. Quyida mamlakatimizda falokatli zilzilalar bo'lgan yillar berildi, yillar to'g'risiga zilzila bo'lgan joylarni yozing.


- |                  |             |              |
|------------------|-------------|--------------|
| 1. 1208—1209- y. | 5. 1902- y. | 9. 1976- y.  |
| 2. 1797- y.      | 6. 1935- y. | 10. 1980- y. |
| 3. 1818- y.      | 7. 1946- y. | 11. 1984- y. |
| 4. 1868- y.      | 8. 1966- y. | 12. 1988- y. |


## 4—5- darslar


 **Darsning mavzusi.** O'zbekiston iqlimi.

 **Darsning maqsadi va vazifalari.** O'zbekiston tabiatining asosiy xususiyatlari va o'ziga xos tomonlari haqidagi tasavvurlar va bilimlarni shakllantirishni davom ettirish; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; avvalgi kurslarda egallangan iqlim haqidagi bilimlarni mustahkamlash va iqlimning tabiatning asosiy komponentlaridan biri ekanligini o'quvchilar ongida shakllantirishni davom ettirish; o'quvchilar O'zbekiston iqlimining tarkib

topishida ta'sir etuvchi asosiy omillar: geografik o'rni, quyosh radiatsiyasi, havo massalari sirkulyasiyasi bilan tanishtirish; iqlim xaritalari va iqlim haqidagi boshqa manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; yil fasllari hosil bo'lishidagi qonuniyatlar bilan tanishtirish; iqlim xaritalari va boshqa axborot manbalari bilan tanishishda davom etish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy va iqlim xaritalari, Yevrosiyaning iqlim xaritasi, atlaslar, jadvallar, sxemalar, diafilm, adabiyotlar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilar bilan avvalgi darslarda ma'lum bo'lgan atama va tushunchalarni takrorlash; yangi atama va tushunchalar bilan tanishish; iqlim haqida o'quvchilarda ma'lum bo'lgan bilimlarni suhbat orqali aniqlash; O'zbekiston hududida quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi, havo massalarining harakati, yog'in-sochin, shamollar va ularning fasllar bo'ylab taqsimlanishi haqida o'qituvchi hikoyasi; xarita, xarita-sxemadan foydalangan holda respublika hududiga kirib keluvchi havo massalari va ko'p esuvchi shamollar (fasllar bo'yicha) yo'nalishini aniqlovchi va respublika hududida yog'in-sochin va radiatsiyaning taqsimlanishini aniqlash bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazish; „Siz yashab turgan joyning ob-havosi“ mavzusida mustaqil ish o'tkazish, O'zbekiston iqlimiga ta'sir qiluvchi havo massalari jadvalini tuzish.


 **Atama va tushunchalar:** Quyosh radiatsiyasi, yalpi radiatsiya, radiatsiya balansi, atmosfera sirkulyatsiyasi, havo massalari; Arktika, mo'tadil, tropik, Sibir antisikloni (Osiyo maksimumi), Atlantika siklonlari.

### **Savol va topshiriqlar**


1. O'zbekiston iqlimiga qaysi havo massalari ta'sir etadi?
2. O'zbekiston iqlimi qaysi omillar ta'sirida tarkib topadi?
3. O'zbekiston hududida quyosh radiatsiyasi qanday taqsimlanishi haqida so'zlab bering.


## **6- dars**


 **Darsning mavzusi.** O'zbekistonning ichki suvlari va suv boyliklari.


 **Darsning maqsadi.** O'quvchilarni yangi atama, tushuncha va geografik nomlar bilan tanishtirish; O'zbekiston daryolari, ularning to'yinish jihatidan turlari, oqimning fasllar bo'yicha taqsimlanishi haqida bilim berish; daryolarning respublika

hududida notekis taqsimlanganligi, asosiy daryolar va ularning har birining oqim xususiyatlari haqida tasavvurni shakllantirish; o'quvchilarda turli jadval va xaritalardan daryolar haqida ma'lumot to'plash ko'nikmalarini hosil qilish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy xaritalari, 7-sinf atlas, yozuvsiz xarita, jadvallar, kitoblar, diafilm.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilar avvalgi darslarda egallagan atama va tushunchalarni takrorlash va yangilari bilan tanishtirish; O'zbekistonning ichki suvlari, daryolari, ularning hududda joylashishi, to'yinishiga ko'ra turlari, oqim rejimi haqida o'qituvchining hikoyasi; O'zbekistonning yozuvsiz xaritasiga daryolarning nomini yozish bo'yicha amaliy ish uyushtirish.


 **Atama va tushunchalar:** daryo, irmoq, tarmoq, sohil, manba, mansab, delta, daryo havzasi, suvayirg'ich, daryoning to'yinishi, oqim rejimi, o'zan, qayr, terrasa.


 **Nomlar:** Abu Rayhon Beruniy, M. Qoriyev, V.L.Shuls, A.Rasulov, F. Hikmatov.


### **Savol va topshiriqlar**


1. O'zbekiston hududida ichki suvlar qanday taqsimlangan?
2. Respublikamizdagi daryolar to'yinishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Yozuvsiz xaritaga daryolar nomlarini yozing.
4. Daryolarni to'yinish turiga ko'ra jadvalini tuzing.


## 7- dars

 **Darsning mavzusi.** O'zbekistonning ko'llari va suv omborlari. Yer osti suvlari


 **Darsning maqsadi.** O'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; O'zbekistonning ichki suvlari va suv boyliklari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda davom etish; O'zbekiston hududidagi ichki suvlar — ko'l, suv omborlari, sug'orish shaxobchalari va yer osti suvlarining joylashishi va vujudga kelishi xususiyatlarini ochib berish; ichki suvlarning turli tiplarining vujudga kelishi, ahamiyati va o'zigaxos xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni hosil qilish; geografik xarita va bilimning boshqa manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish, Orol dengizining qurib borishining ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini ochib berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekiston tabiiy xaritasi, devoriy yozuvsiz xarita, rasmlar, sxemalar, jadvallar, diafilmlar, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilar bilan birgalikda avvalgi darslarda egallangan atama va tushunchalarni takrorlash va yangilari bilan tanishish; respublikaning ko'llari, suv omborlari, sug'orish kanallari va yer osti suvlari haqida o'qituvchi hikoyasi; devoriy yozuvsiz xarita va individual xaritalar yordamida yozuvsiz xaritada o'quvchilarning mustaqil ishi; respublikamiz sharoitida suv boyliklarining ahamiyati va suvdan tejab-tergab foydalanish haqida o'qituvchi suhbat-hikoyasi; „Orol dengizining muammosi“ mavzusida o'quvchilarning mustaqil ishi; yozuvsiz xaritaga respublika gidrografik shoxobchalarini tushirish.

 **Atama va tushunchalar:** suv ombori, qoldiq ko'l, tektonik ko'l, karst ko'li, chuchuk ko'l (oqar ko'l), sho'r ko'l (oqmas ko'l), to'g'on ko'l, suv ombori, yer osti suvlari, artezian suvlar, grunt suvlari, artezian havza, „Efemer ko'l“

 **Nomlar:** V. L. Shuls, M. V. Qoriyev, A. A. Rafiqov, P. Baratov, G. A. Mavlonov, N. A. Kenesarin.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** respublikamizdagi suv omborlari va sun'iy ko'llarning umumiy maydoni 20 ming kv. km. Bularning yuzasidan yiliga 5 km. kub. suv bug'lanadi. Bu Orol yuzasiga yog'indan tushadigan suv miqdoriga teng.

### O'zbekiston suv omborlarining morfologik tavsifi (P. Baratov)

Suv omborlari	Qaysi daryoda qurilgan	Qurilgan yili	To'la suv sig'imi, mln.m <sup>3</sup>	Foydali suv sig'imi, mln.m <sup>3</sup>	Maydoni, kv.km	Uzunligi, km	Eng ken joyi, km	Eng chuqur joyi, m	Foydalanish maqsadi
Chorvoq	Chirchiq	1970	2000,0	2596,0	40,0	22,0	10,0	140,0	Irri-gatsiya
Janubiy Surxon	Surxondaryo	1962	800,0	710,0	65,0	20,0	5,0	27,0	Irri-gatsiya



1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Katta-qo'rg'on	Zarafshon	1947	840,0	817,0	83,6	15,0	10,0	28,0	Irrigatsiya
Chim-qo'rg'on	Qashqadaryo	1963	449,0	410,0	44,4	15,7	5,5	30,0	Irrigatsiya
Quyimozor	Zarafshon	1957	313,5	254,5	16,9	5,25	5,0	34,0	Irrigatsiya
Pachkamar	G'uzordaryo	1967	28,0	279,8	12,4	4,3	3,9	65,0	Irrigatsiya
Ohangaron	Ohangaron	1974	255,0	242,0	6,3	3,74	3,0	90,0	Sanoat, Irrigatsiya
Tuyabo'g'iz	Ohangaron	1960	210,0	188,2	20,0	8,0	2,2	34,0	Irrigatsiya
Uchqizil	Surxondaryo	1957	165,0	80,0	10,0	5,5	3,5	40,0	Irrigatsiya
Jizzax	Sangzor	1965	90,0	88,4	11,0	3,3	5,12	22,4	Irrigatsiya
Andijon	Qoradaryo	1970	1730	1600,0	55,2				Irrigatsiya
Tolimarjon	Amu-Qarshi magistral kanali		1033	874,0					Irrigatsiya
Tuyamo'yin	Amudaryo	1976	7800	6600	650			40	Irrigatsiya
Karkidon	Isfayramsoy	1963	218,4	211,5	9,5			23	Irrigatsiya
Chordara	Sirdaryo	1968	5700	5700	900			22	Irrigatsiya
Qayroqum	Sirdaryo	1956		4210	513	55		23	Irrigatsiya energiya

## Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi ko'lga va suv omborlariga tegishli bo'lgan xususiyatlarni ajrating:

- 1) Turli xil botiqlarda oqar suv, yer osti suvlari, tashlama suvlar natijasida hosil bo'ladi.
- 2) Sho'r suvli va chuchuk suvli bo'ladi.
- 3) Inson tomonidan barpo etiladi.
- 4) Sug'orish ishlarini bir maromda boshqarish uchun barpo etiladi:  
a) ko'l; b) suv ombori.


2. O'zbekistondagi eng katta ko'l qanday ataladi?


- 1) Orol dengizi;
- 2) Aydarko'l;
- 3) To'dako'l.


3. Sirdaryo o'rta oqimida barpo etilgan eng katta suv omborining nomini ayting.


- 1) Qayroqqum; 2) Kattaqo'rg'on; 3) Chordara.


## 8- dars


 **Darsning mavzusi.** O'zbekistonning suv boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish.


 **Darsning maqsadi.** Oldingi darslarda o'rganilgan atama va tushunchalarni qaytarish va ularni o'quvchilar xotirasida mustahkamlash; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; suvdan foydalanish turlari haqida tushuncha berish; suvning qurg'oqchil iqlimli O'zbekiston uchun juda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida tasavvur hosil qilish; suvni avaylab, e'zozlab foydalanish, bu haqda xalqimizda mavjud urf-odatlarini o'quvchilarga eslatish, suvni muhofaza qilish haqida tasavvurlarni shakllantirish.


 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy iqtisodiy, tabiatni muhofaza qilish xaritalari, 7- sinf atlas, rasmlar, diafilmlar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Suvning ahamiyati haqida suhbat-hikoya qilish, suvdan oqilona foydalanish borasida mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar — suv omborlari, kanal, ariqlar qurish, ifloslangan suvni tozalash inshootlari haqida suhbat o'tkazish, jurnallardan, badiiy adabiyotlardan parchalar o'qish, suv omborlari jadvalini tahlil qilish, yozuvsiz xaritaga suv omborlari va kanallarni tushirib, nomini yozish yuzasidan amaliy ishlarni bajarish.

 **Atama va tushunchalar:** suv ombori, kanal, ariq, to'g'on, GES, sug'orma dehqonchilik, artezion suv, mineral suv, sardoba, suv tozalash inshootlari.

 **Geografik obyektlar:** Katta Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Amu-Buxoro, Qarshi magistral, Mirzacho'l kanallari, Chirchiq GES lar kaskadi.


 **Nomlar:** Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy.


 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** O'zbekistondagi suv omborlari, sug'orish kanallari jadvali.


### **Savol va topshiriqlar**


1. Suvdan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
2. Suvni toza saqlash uchun qanday ishlarni bajarish zarur?
3. Suvdan yaxshi foydalanish uchun qanday inshootlar bunyod etiladi?
4. O'zbekistondagi suv omborlari ro'yxatini tuzib, yoniga qaysi viloyatda ekanini yozib qo'ying.

## **9- dars**


 **Darsning mavzusi.** O'zbekistonning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi.


 **Darsning maqsadi.** Avvalgi darslarda olingan O'zbekiston tabiati haqidagi bilimlarni shakllantirishda davom etish va ularni mustahkamlash; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; respublika hududida tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalish qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi resurslari hajmi va ularning ahamiyati bilan tanishish; geografik xaritalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; O'zbekiston tabiat zonalariga oid o'simlik, tuproq, hayvonot dunyosining joylanish qonuniyatlarini ko'rib chiqish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari, rasmlar, jadvallar diafilmlar, adabiyotlar, gerbariylar, tuproq namunalari.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilar bilan avvalgi darslardan ma'lum bo'lgan atama va tushunchalarni takrorlash va yangilari bilan tanishish; O'zbekiston hududida

tarqalgan tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida o'qituvchi savol-javob va hikoyasi; tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi resurslari hajmi haqida suhbat; tuproq eroziyasi, o'simlik va hayvonot dunyosi muhofazasi haqida o'quvchilarning mustaqil ishi; jadval, rasm, sxemalardan foydalanib meliorativ ishlar haqida va ularning tuproq hosildorligini oshirishdagi ahamiyati haqida suhbat.

 **Geografik obyektlar:** Ustyurt platosi, Qizilqum, Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Qarnob cho'li, Farg'ona vodiysi, Chirchiq-Ohangaron vodiysi, Xorazm pasttekisligi, Surxon-Sherobod vodiysi.

 **Nomlar:** Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Q. Zokirov.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**

### O'zbekiston tuproqlarining turlari

Tuproq turlari	Maydoni	
	ming.ga	% hisobiga
Baland tog'och qo'ng'ir tusli tuproq	540	1,19
O'rtacha balandlikdagi jigar rang va qo'ng'ir tusli tuproqlar	1662	3,68
To'q tusli bo'z tuproq	1055	2,33
Tipik bo'z tuproq	3051	6,77
Och tusli bo'z tuproq	2592	5,74
O'tloq-bo'z va bo'z-tuproq	781	1,72
O'tloq (bo'z tuproqli mintaqa)	670	1,47
Botqoq-o'tloq (bo'z tuproqli mintaqa)	78	0,17
Sur-qo'ng'ir	11408	25,30
Cho'l-qumli	1372	3,04
Taqir tuproq va taqirlar	1784	3,96
O'tloq-taqir va taqir-o'tloq	465	1,02
O'tloq (cho'l zonasi)	1796	3,97
Botqoq-o'tloq (cho'l zonasi)	59	0,15
Sho'rxoklar	1272	2,81
Qumliklar	12413	27,54
Boshqalar (suv havzasi, tog', qoyavaboshqalar)	4118	9,12
Hammasi	45115	100

## ❓ Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston hududida eng ko'p tarqalgan tuproq turi:  
1) sur-qo'ng'ir, 2) och tusli bo'z tuproq,  
3) o'tloq-botqoq tuproqlar, 4) sho'rxok tuproqlar.
2. Cho'l sharoitiga moslashgan o'simlikni ayting:  
1) saksovul, 2) yulg'un, 3) assalomu alaykum.  
4) jiyda, 5) tol.
3. Chotqolda yashovchi va O'zbekistonning boshqa yerida yashamaydi-  
gan hayvon:  
1) qoraquloq, 2) arslon, 3) tyanshan ayigi,  
4) xongul, 5) jayron,

## 10- dars



**Darsning mavzusi.** Cho'l mintaqasi.



**Darsning maqsadi.** O'zbekistonning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida avvalgi darsda olingan tasavvur va tushunchalarni mustahkamlashda davom etish; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; cho'l mintaqasiga xos bo'lgan xususiyatlarni tahlil etish; avvalgi mavzuda olingan bilimlarga tayangan holda mintaqa tabiat komponentlariga ta'rif berish; geografik ma'lumot manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda davom etish; cho'l mintaqasining inson xo'jalik faoliyati natijasida o'zgarishini va ekologik muammolarini yoritish.



**Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, iqlim, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq xaritalari; rasmlar, jadvallar, sxemalar, gerbariy, diafilm, kitoblar, tuproq namunalari.



**Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilarga avvalgi darslarda ma'lum bo'lgan atama va tushunchalarni takrorlash; o'qituvchining O'zbekiston cho'l mintaqasi tabiat komponentlari haqidagi hikoyasi; darslik va xarita asosida cho'l mintaqasi tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosini jadvalga tushirish bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazish; ti pik cho'l o'simliklari va hayvonot dunyosi xususiyatlari haqida savol-javob va suhbat; cho'l mintaqasining xo'jalik ahamiyati haqida suhbat; mavzuga doir ma'lumot manbalari ustida o'quvchilarning mustaqil ishi; xaritalar ustida amaliy mashg'ulot, zonadagi kishilarning xo'jalik faoliyati haqida o'quvchilar chiqishlarini uyushtirish; diafilm, atlaslar, kitoblar bilan mustaqil ishlar tashkil etish.

☞ **Atama va tushunchalar:** mintaqa, cho'l, barxan, qum gryadasi, kserofit o'simliklar, mezofit o'simliklar, cho'l hayvonlari, cho'l o'simliklari, cho'l tuproqlari.

✍ **Nomlar:** P.Baratov, R.Rahimbekov, I.Nazarov, M.Umarov, Ibn Batutta, A.Abulqosimov.

📍 **Geografik obyektlar:** Qizilqum, Qarshi cho'li, Qarnob cho'li, Mirzacho'l, Ustyurt platosi, Borsakelmas sho'rxogi, Qoraqalpoq cho'li.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**

### O'zbekiston cho'l mintaqasi tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi

Mintaqa hududlari	Ko'p tarqalgan tuproq turlari	Tipik o'simlik turlari	Hayvonot dunyosi
Qizilqum	Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar, qumli cho'l tuproqlari va qum, taqirlar, vohalarda cho'l o'tloqi tuproqlari	Oq saksovil, yantoq, buta o'simliklari, tog' oldilaridagi efemer o'simliklari	Jayron, sayg'oq, echkamar, kapchabosh ilon, cho'l mushugi, ti pratikan, toshbaqa, turli kemiruvchilar
Qarshi cho'li	Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar, taqirsimon cho'l tuproqlari va taqirlar	Sho'rxok o'simliklar, efemer va efemeroidlar, ko'p yillik sho'ra	Bo'ri, ko'rsichqon, yumronqoziq, quyon, kaklik
Qarnob cho'li	Och tusli bo'z tuproqlar, sho'rxoklar	Sho'rxok o'simliklari (sho'ra), efemer va efemeroidlar	Dala mushugi, kemiruvchilar
Ustyurt platosi	Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar, taqirsimon cho'l tuproqlari	Shuvoq, boyalich, sho'ra, qora saksovil	Jayron, sayg'oq, qorsoq, chiyabo'ri

### 🔍 Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston hududining katta qismini egallab yotgan cho'l nomini ayting:

- |                |                       |
|----------------|-----------------------|
| 1) Qoraqum;    | 2) Qizilqum;          |
| 3) Mirzacho'l; | 4) Qoraqalpoq cho'li. |

2. Farg'ona vodiysida joylashgan cho'l nomini ayting.

- |                       |                   |
|-----------------------|-------------------|
| 1) Mirzacho'l.        | 2) Karnob cho'li. |
| 3) Qoraqalpoq cho'li. | 4) Qarshi cho'li. |

3. O‘zbekiston hududining qancha qismini cho‘l mintaqasi egallaydi?  
a) 70%;                                      b) 50%;  
d) 75%;                                      e) 80%.
4. Cho‘llarda eng ko‘p tarqalgan tuproqlarni ajrating.  
a) och tusli bo‘z tuproqlar, qizil tuproqlar;  
b) sur-qo‘ng‘ir, qumli cho‘l, taqir va bo‘z tuproqlar;  
d) sho‘rxok, o‘tloqi-allyuvial, to‘q tusli bo‘z tuproqlar;  
e) oddiy bo‘z tuproqlar, to‘q tusli bo‘z tuproqlar.

## 11- dars.



**Darsning mavzusi.** Adir mintaqasi.



**Darsning maqsadi.** Avvalgi darslarda olingan tasavvur va bilimlarni shakllantirishda davom etish; o‘quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; respublikaning adir mintaqasi joylashgan hududlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; o‘quvchilarni adir mintaqasi tuproqlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish; geografik manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda davom etish. Adir mintaqasining xo‘jalikda tutgan o‘rni haqida tasavvur hosil qilish; mintaqaning ekologik muammolari haqida tushunchalar berish.




**Ko‘rgazma materiallar.** O‘zbekiston xaritalari — tabiiy, iqlim, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tuproq xaritalari, rasmlar, jadvallar, sxemalar, gerbariy, diafilm, kitoblar, tuproq namunalari.




**Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan bilim, tushuncha va ko‘nikmalarni takrorlash, mustahkamlash; o‘qituvchining adir mintaqasi tabiat komponentlari haqidagi savol-javob va suhbat; o‘quvchilar bilan birgalikda darslik bo‘yicha ishlashni tashkil qilish; yangi mavzuga doir tushuncha va bilimlarni avvalgi darsda olingan tushuncha va bilimlar bilan taqqoslash; mintaqa tuproqlari haqida suhbat, hikoya; mintaqa o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida suhbat; o‘quvchilarni xarita bilan mustaqil ishini uyushtirish; o‘quvchilarning mintaqa tuproqlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi jadvalini mustaqil to‘ldirishlarini tashkil etish bo‘yicha amaliy ish uyushtirish.



**Atama va tushunchalar:** adir, adir o‘simliklari, adir tuproqlari, adir hayvonot dunyosi, efemer o‘simliklar, tog‘ oldi, bo‘z tuproq.

 **Geografik obyektlar:** Zarafshon vodiysi, Farg'ona vodiysi, Surxon-Sherobod vodiysi, Chirchiq-Ohangaron vodiysi.

 **Nomlar:** Z. Zokirov, D. N. Kashgarov, E. N. Korovin, A. I. Formozov, M. Orifxonova, O. Ashurmetov.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**


### Adir mintaqasi tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi


Tuproqlari	O'simliklari	Hayvonot dunyosi
Bo'z tuproqlar, oddiy bo'z tuproq, to'q tusli bo'z tuproqlar	Lola, lolaqizg'aldoq, qo'ng'irbosh, sasir yantoq, kavrak, gulxayri, zirk, na'matak, do'lana, jasmin, qoziquloq, ferul, chalov, chil, bodomcha, pista, yalpiz	Agama, gekkan, kapchabosh ilon, ko'kilon, falanga, qoraqurt, chayon, tulki, bo'ri, toshbaqa, yumronqoziq, jayra, bo'rsiq, ti pratikan, pushti rang chug'urchiq, ko'k-qarg'a, kaklik, zog'cha, kalxat, qirg'iy, burgut, qaldirg'och, musicha, chumchuq, bulbul, sassiqpopishak

### Savol va topshiriqlar

- Adir mintaqasi necha metr balandliklar orasida joylashgan?
  - 400—500 m dan 1700 m gacha;
  - 400—500 m dan 2000—2500 m gacha;
  - 400—500 m dan 1000—1200 m gacha;
  - 1000—1200 m dan 2700—2800 m gacha.
- Adir mintaqasi hayvonot dunyosi . ?
  - cho'l mintaqasi hayvonot dunyosidan boyroq;
  - cho'l mintaqasi hayvonot dunyosidan kambag'alroq.


## 12- dars


 **Dars mavzusi.** Tog' mintaqasi.


 **Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiat mintaqalarining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvur va bilimlarni shakllantirishda davom etish; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; tog' mintaqasi tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish; o'quvchilarda geografik axborotlar





bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; tog'larda tabiiy sharoitning o'zgarish qonuniyatlarini ko'rib chiqish; O'zbekiston tog'larining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekiston xaritalari — tabiiy, iqlim, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq xaritalari, rasmlar, jadvallar, diafilm, adabiyotlar, gerbariy, tuproq namunalari.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan bilim, tushuncha va ko'nikmalarni takrorlash, mustahkamlash; o'qituvchining tog' mintaqasi tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi hikoyasi; tog' mintaqasi tuproqlari. o'simlik va hayvonot dunyosini jadvalga tushirish bo'yicha amaliy ish uyushtirish; geografik manbalar, xarita va adabiyotlar bilan ishlash bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish; mavzuga doir mustaqil ish — qo'shimcha materiallarni yig'ish; yozuvsiz xarita ustida ishlash; olingan tushuncha va bilimlarni geografik o'yin tarzida yakunlash; test yechish, topshiriqlar berish; tog' va uning tabiati haqida yaqqol obrazlar hosil qilish uchun diafilm, jadval, rasmlardan foydalanish.

 **Atama va tushunchalar:** tog' mintaqasi, tog' yonbag'ri, tog' etaklari, tog' vodiylari, tog' tuproqlari, tog' o'simliklari.

 **Geografik obyektlar:** Tyanshan, Hisor, Zarafshon, Oloy, Turkiston, Nurota, Farg'ona, Chotqol, Ugom, Talas Olatovi, Oqtov, Qoratov Muruntov, Yetimtov va h.k.


 **Nomlar:** A.Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Z. M. Bobur, A.F. Middendorf, D.N.Qashqarov, H.Abdullayev, G.Z.Zokirov.


### **Savol va topshiriqlar**


1. Tog' mintaqasi necha metr balandliklar orasida joylashgan?
  - a) 1200 m — 1800 m;
  - b) 1000 m — 1200 m — 2700 m — 2800 m;
  - d) 2700 m — 3000 m.
2. O'zbekiston tog'larida keng tarqalgan asosiy tuproq turlarining guruhi:
  - a) qo'ng'ir, jigarrang tuproqlar;
  - b) och bo'z tuproq, sur-qo'ng'ir tuproqlar;
  - d) sho'rxok, taqir.


3. Turkiston tog'larida tarqalgan daraxt turi:  
a) Turkiston archasi;  
b) Tyanshan archasi;  
d) Terak.
4. Jigarrang tuproqlarda chirindi miqdori necha foizni tashkil etadi?  
a) 4 — 5%, ayrim hollarda 11%;  
b) 5 — 6%;  
d) 3 — 4%.

## 13- dars

 **Darsning mavzusi.** Yaylov mintaqasi.

 **Darsning maqsadi.** O'zbekistonning balandlik mintaqalari iqlimi, tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosi haqidagi tasavvur va bilimlarni shakllantirishda davom etish: o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; yaylov mintaqasi tabiat komponentlari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berish; o'quvchilarni mintaqa tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosining asosiy turlari bilan tanishtirish; turli xaritalar va axborotlarning boshqa manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom etish; mintaqadagi ekologik muammolarni ochib berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekiston xaritalari — tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, iqlim, devoriy, yozuvsiz xarita, sxemalar, jadvallar, diafilmlar, kitoblar, gerbariyalar, tuproq namunalari, rasmlar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Oldingi darslardan o'quvchilarga ma'lum bo'lgan atama va tushunchalarni takrorlash, yangilari bilan tanishish; xaritadan yaylov mintaqasi joylashgan hududlarni aniqlash; yaylov mintaqasi, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalishi qonuniyatlari haqida suhbat; darslik asosida o'quvchilarning yaylov mintaqasi tabiatining tuproq, o'simlik, hayvonoti bo'icha mustaqil ishini tashkil etish; yaylov mintaqasi o'simlik va hayvonotlarining „Qizil kitob“ga kirgan turlarini aniqlash asosida mustaqil ish uyushtirish; o'qituvchining mintaq va butun O'zbekiston tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi umumlashtiruvchi suhbatini.

☞ **Atama va tushunchalar:** Yaylov, Alp o'tloqlari, subalp o'tloqlari, nival mintaqa, O'zbekistonning „Qizil kitob“i, yaylov tuproqlari, yaylov hayvonot dunyosi.

📖 **Nomlar:** D. N. Kashgarov, Y. N. Korovin, A. I. Formozov, M. Orifxo'jayeva, S. N. Rijov, A. Z. Genusov, A. Rasulov, H. Abdullayev, Z. Zokirov.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**

**Yaylov mintaqasi tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi**

Tuproqlari	O'simliklari	Hayvonlari
Och-qo'ng'ir tuproqlar, o'tloq tuproqlar	Pakana archa, qo'ng'irbosh, mushuk quyruq, yovvoyi arpa, yovvoyi suli, qo'ziquloq, oq momiq, taran, sassiq quvray, pushti, qo'qongul, qayir, shuvoq, betaga, tikonli astragal, to'ng'izsirt, binafsha, qoqio't, yulduzgut, sariq ayiqtovon, yovvoyi ko'knori, qiziltikan, toshyorar, astragal	Oloy tog' iloni, chin-qiroq ilon, Himolay agamasi, ko'k qurbaqa, qizil, ko'k va Menzibir suguri, oq suvsar, qo'ng'ir ayiq, ilvirs, tog' takasi, arxar, muflon, qoplon, bo'ri, qu-may, boltayutar, tog' zog'chasi

❓ **Savol va topshiriqlar**

1. Yaylov mintaqasi necha metr balandliklar orasida joylashgan?
  - a) 1200 — 1800 m balandliklar orasida;
  - b) 500 — 1200 m balandliklar orasida;
  - d) 2700 — 2800 m balandda.

2. Yaylov mintaqasida qanday tuproqlar tarqalgan?
  - a) och-qo'ng'ir va o'tloq tuproqlar;
  - b) sur-jigarrang va o'tloq tuproqlar;
  - d) och-qo'ng'ir va bo'z tuproqlar.

3. Och tusli qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan yaylov mintaqasining ko'p qismi nima bilan band?

- a) toshloq, ochilib qolgan tub jinslar, qurumlar bilan;
- b) qum va taqirlar bilan;
- d) sug'oriladigan madaniy landshaftlar bilan.

4. Och tusli tuproqlar maydoni tuproqlar umumiy maydonining necha % ini tashkil qiladi?

- a) 1,19 % ni;
- b) 2,2 % ni;
- d) 4,1 % ni.

## 14- dars



**Dars mavzusi.** O'zbekistonning tabiatini muhofaza qilish.



**Darsning maqsadi.** O'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; avvalgi darslarda olingan tasavvur va bilimlarni shakllantirishni davom ettirish; tabiiy boyliklar, ularning turlari haqida tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; tabiatdagi muvozanat, uning buzilishi, respublikamizning hududlari ekologiyasi va tabiatini muhofaza qilish aspektlari bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish; O'zbekistonning „Qizil kitob“i va respublikamizdagi qo'riqlanadigan hududlar haqida o'quvchilarda yaqqol tasavvur hosil qilish; o'quvchilarda geografik ma'lumot manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda davom etish; mamlakat hududida qo'riqlanishi lozim bo'lgan o'simlik va hayvonot turlari haqida o'quvchilarda bilim hosil qilish.



**Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning xaritalari — ekologik, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, tabiiy xaritalar, diafilm, kinofilm, rasm, jadval va sxemalar, kitoblar.



**Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan bilim, tushuncha va ko'nikmalarni takrorlash; o'quvchilar bilan birgalikda tabiat boyliklari va ularning turlari haqida suhbat-hikoya; respublika tabiiy boyliklarining tuzilishi, zararlanishi va ekologik muammolar haqida o'qituvchi hikoyasi; atrof-muhitni ifloslovchi manbalar haqida suhbat-hikoya; respublikamiz hududida atrof-muhitni muhofaza qilish uchun olib borilayotgan tadbirlar haqida o'qituvchi hikoyasi; O'zbekistonning „Qizil kitob“i va unga kiritilgan hayvonot va o'simlik turlari haqida, muhofaza ostiga olingan yerlar — qo'riqxonalar haqida savol-javob uyushtirish; „O'zbekistonda qo'riqlanadigan hududlar“ deb ataluvchi jadvalni tuzish va

uni tahlil qilish; „O‘zbekistonning qo‘riqxonalari“ jadvali bo‘yicha o‘quvchilarning amaliy va mustaqil ishlarini tashkil etish; mamlakatning qo‘riqlanadigan hududlaridagi o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida diafilm, kinofilmlar ko‘rish.

☞ **Atama va tushunchalar:** tabiiy boyliklar, tabiat, qazilma boyliklar, tugaydigan tabiiy boyliklar, tugamaydigan tabiiy boyliklar, tozalovchi inshootlar, atrof-muhit, O‘zbekistonning „Qizil kitobi“, milliy bog‘, qo‘riqxonalar, buyurtmalar, ekologiya, nodavlat tashkilotlar.


📍 **Geografik obyektlar:** Chirchiq-Ohangaron, Farg‘ona, Zarafshon vodiysi, Olmaliq, Angren, Navoiy, Andijon, Toshkent, Orolbo‘yi, Sariosiyo, Tursunzoda, Ustyurt, Hisor qo‘riqxonasi, Bodayto‘qay, Qizilqum, Chotqol, Zomin.


✂ **Nomlar:** P.Baratov, H.Hasanov, Y.Shodimetov, Z.Zokirov, P.G‘ulomov.


### 🔍 *Savol va topshiriqlar*


1. Tabiiy boyliklar bu ...
  - a) inson olishi va hordiq chiqarishi uchun zarur bo‘lgan manba;
  - b) insonning oziq-ovqat, kiyim-bosh manbayi;
  - d) insonning yashashi va xo‘jalik faoliyati uchun zarur bo‘lgan hamda uning xilma-xil ehtiyojini qondiruvchi manbadir.
2. Tabiiy boyliklar qanday turlarga bo‘linadi?
  - a) tugaydigan va tugamaydigan.    b) moddiy va ma‘naviy.
  - d) Davlat va xususiy.
3. Respublikamizda atrof-muhitni eng ko‘p ifloslayotgan sanoat tarmoqlaridan qaysilari joylashgan?
  - a) kimyo, metallurgiya, sement, mashinasozlik korxonalar.
  - v) neft-kimyo, kemasozlik, avia-raketa.
  - d) selluloza-qog‘oz, rangdor metallurgiya, harbiy sanoat.
4. O‘zbekistonning „Qizil kitob“i ga turi, soni yo‘qolib borayotgan noyob o‘simlik va hayvonlarning nechtasi kiritilgan?
  - a) 63 ta hayvon va 163 ta o‘simlik turi;
  - b) 63 ta o‘simlik va 175 ta hayvon turi.


## 15- dars


 **Darsning mavzusi.** O‘zbekistonning tabiiy geografik o‘lkalari.

 **Darsning maqsadi.** O‘quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; O‘zbekiston hududini tabiiy o‘lkalarga bo‘lish sabablari va rayonlashtirish tamoyillari haqida bilimlar berish; respublika tekislik qismi, tog‘ va tog‘ oldi qismlari tabiiy o‘lkalari joylanishi bilan tanishish; har bir tabiiy geografik o‘lkaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar berish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda davom etish; THK komponentlari haqida tushuncha berish.


 **Ko‘rgazma materiallar.** O‘zbekistonning tabiiy xaritasi, tabiiy o‘lkalar xaritalari, iqlim xaritasi, diafilmlar, rasmlar, jadvallar, kitoblar, O‘zbekistonning tabiiy rayonlashtirish saxemasi

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda o‘rganilgan atama va tushunchalarni takrorlash; yangi atama va tushunchalar bilan tanishish; O‘zbekiston hududining turli qismlari tabiiy sharoiti, ularning farqlantiruvchi xususiyatlari va tabiat komponentlarining geografik makonda o‘zgarishi mumkinligi haqida o‘quvchilar bilan savol-javob va suhbat uyushtirish; tabiiy o‘lkalar va rayonlashtirish tamoyillari haqida o‘qituvchining hikoyasi; respublika yer yuzasining xususiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linishi va bu qismlarda qaysi o‘lkalar joylashganligini aniqlovchi mustaqil ish; tabiiy o‘lkalar chegarasini xaritada aniqlash va yozuvsiz xaritaga tushirish bo‘yicha mustaqil ish; THK lar haqida tushunchalar hosil qilish bo‘yicha o‘quvchilarning mustaqil amaliy ishlari; O‘zbekistonning tabiiy geografik o‘lkalari jadvalini tuzish.

 **Atama va tushunchalar:** tabiiy geografik o‘lka, THK — tabiiy-hududiy kompleks, tabiat komponentlari, tekislik tabiiy geografik o‘lkalari, tog‘oldi va tog‘ geografik o‘lkalari, vodi, plato, cho‘l.

 **Geografik obyektlar:** Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiysi, Mirzacho‘l, Chirchiq-Ohangaron vodiysi, Farg‘ona vodiysi, Sirdaryo, G‘arbiy Tyanshan, Piskom vodiysi, Chirchiq va Ohangaron

daryolari, Chotqol tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi, Oloy tizmasi, Qoraqalpoq va Yozyovg‘on cho‘llari.

 **Darsga oid qo‘shimcha ma‘lumotlar**

**„O‘zbekistonning tabiat komplekslarini o‘rganish“ o‘yini**


T/r	Tabiat komplekslari nomi	Qayerlar kiradi	Relyefi va foydali qazilmalari	Eng muhim o‘simlik va hayvonlari
1.	Chirchiq-Ohangaron			
2.	Mirzacho‘l			
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				
8.				

 **Savol va topshiriqlar**


1. O‘zbekiston hududi tabiiy sharoitiga ko‘ra qanday o‘lkalar guruhiga bo‘linadi?
2. Tabiiy-geografik o‘lkalarning nomlarini aytib O‘zbekiston tabiiy xaritasidan ko‘rsating?


**16- dars**


 **Dasrning mavzusi. Chirchiq-Ohangaron vodiysi.** Geografik o‘rni. Yer yuzasi geologik tuzilishi va foydali qazilmalari.


 **Darsning maqsadi.** O‘zbekistonning tabiiy sharoiti hamda tabiiy-geografik o‘lka va THK haqidagi tasavvur va bilimlarini shakllantirishni davom ettirish; o‘quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; o‘lka yer yuzasining tuzilishi, orografik sxemasini tahlil qilish va ta’rif berish; o‘lka zamini geologik tuzilishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari haqida tushuncha va bilimlarni shakllantirish; zilzilalar, asosiy tog‘ tizmalari va vodiylariga tavsif berish; foydali qazilmalari


- bilan tanishish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish, o'lkaning asosiy tabiat komponentlari va ular o'rtasidagi aloqadorlik masalalarini yechib berish; xilma-xil geografik axborot manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda davom etish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, foydali qazilmalari, tektonik xaritalari, yozuvsiz xaritalar, rasmlar, jadvallar, sxemalar, diafilmlar, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilarga avvalgi darslardan ma'lum bo'lgan atama va tushunchalarni takrorlash va yangilari bilan tanishtirish; o'lka geografik o'rnining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha xarita asosida o'qituvchi savol-javobi; xarita, sxema va jadvallar tuzish bo'yicha amaliy ish; o'lka georografiyasi haqida suhbat; o'lka relyefining asosiy obyektlarini yozuvsiz xaritaga tushirish; o'lka relyefining shakllanishi, geologik taraqqiyoti va hozirgi tog' hosil bo'lish jarayonlari haqida savol-javob; darslik va xaritadan foydalangan holda o'quvchilarning mustaqil ishi — o'lka orografik kesimini (profilini) tahlil qilish; o'lka hududida tarqalgan foydali qazilmalar va ularning qatlamlar orasida joylanishi haqida o'qituvchi hikoyasi; yangi mavzuda olingan tushuncha va bilimlarni umumlashtiruvchi suhbat.

 **Atama va tushunchalar:** geografik o'rni, orografiya, vodiy, tog' oldi, balandlik mintaqasi, geologik tuzilishi, zilzila, yer po'sti yorig'i.

 **Geografik obyektlar:** Chirchiq-Ohangaron vodiysi, G'arbiy Tyanshan tog'lari, Sirdaryo, Qorjantog', Kalos vodiysi, Ugom, Talas, Piskom, Chotqol, Qurama tizmalari, Dalvarzin cho'li, Mo'g'ultog', Chapchama, Qamchiq, Ko'ksuv, Sandalash, Oqbel, Arashon, Qizilnura.

 **Nomlar:** I. Hamroboyev, N. A. Kogay, I. V. Mushketov, Sh. Zokirov, P. G'ulomov, N. D. Dolimov, P. Baratov, Z. Zokirov.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**



## O'lka hududidagi asosiy tog'lar va ularning baland nuqtalari

Tog' tizmalari	Cho'qqilari
Tolos Olatog'i	Utmon (3330), Manas (4448), Maydantol (3521)
Qorjontog'	Mingbuloq (2834), Qoziqurt (1768)
Ugom	Sayram (4238), Tuproqbol (4234)
Piskom	Piyozan (3718), Oqtuyao'lgan (4224), Opalitov (4216), Beshtor (4299)
Chotqol	Qirchandi (4045), Katta Chimyon (3266), Kichik Chimyon (2100)
Qurama	Boboiyob (3769)
Mo'g'ultog'	Mirzarabot (1628)
Arashon	Oqtog' (4045)

### ❓ Savol va topshiriqlar

1. Chirchiq-Ohangaron vodiysi qaysi tabiiy o'lkalar bilan chegaradosh?

1. Mirzacho'l, Farg'ona vodiysi.
2. Zarafshon vodiysi, Quyi Amudaryo.
3. Qizilqum, Zarafshon.

2. Chirchiq-Ohangaron vodiysi shimoli-sharqdan janubi-g'arbgga tomon qancha km.ga cho'zilgan?

1. 270 km.
2. 280 km.
3. 320 km.

3. Chirchiq-Ohangaron vodiysi sharqdan g'arbgga tomon qancha km. ga cho'zilgan?

1. 180 km.
2. 280 km.
3. 270 km.

4. Tabiiy-geografik o'lka tog'lari qaysi eralar jinslaridan tashkil topgan?

1. Arxey, proterozoy, mezozoy.
2. Paleozoy, mezozoy va kaynozoy.
3. Kaynozoy

## 17- dars



**Darsning mavzusi.** Iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi



**Darsning maqsadi.** Tabiiy-geografik o'lkalar haqidagi tasavvur va bilimlarni shakllantirishni davom ettirish; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; o'lkaning iqlimi va suvlari, iqlimi va gidrografik sharoiti, o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar berish; o'lkaning tuproq qoplami, o'simliklari, hayvonot dunyosi turlari va hudud bo'ylab tarqalishini ko'rib chiqish; o'simlik va hayvonot dunyosi muhofazasi masalalari va suv eroziyasi haqidagi bilimlarni rivojlantirishni davom ettirish; ularda xilma-xil geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda davom etish.



**Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari, o'lka xaritasi, diafilmlar, jadvallar, sxemalar, kitoblar.



**Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda o'rganilgan atama va tushunchalarni takrorlash va yangilari bilan tanishish; Chirchiq-Ohangaron vodiysi iqlimiy sharoiti, ichki suvlari haqida o'qituvchi savol-javobi va hikoyasi, o'lkaning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi turlari, hudud bo'ylab tarqalish xususiyatlari haqida suhbat; amaliy ish — o'lkaning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosini yozuvsiz xaritaga tushirish; darslik matni asosida o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish — o'lkaning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi turlari jadvalini tuzish; mavzuni geografik o'yin tarzida umumlashtirish; bilimlarni test savollari asosida o'rganish; yozuvsiz xaritaga daryolari, ko'llari, kanallari, suv omborlarini tushirish.



**Atama va tushunchalar:** iqlim, havo massalari, havo harorati, haroratlar amplitudasi, namlik koeffitsienti, fyon, garmsel, tog'-vodiy shamoli, suv ombori, tuproq, o'simlik qoplami, efemer o'simliklar, biosfera qo'riqxonasi, noyob hayvonlar.



**Geografik obyektlar:** Chirchiq-Ohangaron vodiysi, Toshkent shahri, Chimyon, Burchmulla, Nanay, Xumson, Oqtosh, Chirchiq, Chotqol, Chorvoq suv ombori,

Piskom, Ugom, Ohangaron daryolari, Tuyabo'g'iz suv ombori -- „Toshkent dengizi“, Ugom daryosi, Sirdaryo, Chotqol tog'-o'rmon qo'riqxonasi, Qizilsuv, Qoraqiya, Oqtosh, Sho'ralisoy, Qoranko'lsiy, G'alabasoy, Oqsoqotasoy, Parkentsoy, Boshqizilsiy daryolari.

**Nomlar:** M. Qoriyev, N. A. Kogay, V. L. Shuls, F. A. Mo'minov, G. O. Mavlonov, R. Yugay, P. Baratov, L. N. Babushkin, L. S. Berg, A. Soatov, P. G'ulomov.

## Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar

### Daryolari

Daryolarning nomi	Irmoqlari
Chirchiq	O'ng irmoqlari: Chotqol, Piskom, Ugom, Ko'ksuv, Qizilsuv, Qoraqiya, Oqtosh, Sho'ralisoy Chap irmoqlari: Qoranko'lsiy, G'alabasoy, Oqsoqotasoy, Parkentsoy, Boshqizilsiy
Ohangaron	Yakkaarchasoy, Yertoshsoy, Serkaxirildisoy, Dunkent, Qorator, Niyozboshi.

**Ko'llari:** Shovliko'l, Katta Ixkach, Yuqori Urungach, Bodako'l, Qorataka, Katta Arashon, Arashondumaloq. Bu ko'llar kichik ko'llar bo'lib, har birining maydoni 1 kv.km.dan ham kichik.

Chirchiqning o'rtacha suv sarfi (Xo'jakentda) 224 m.kub/ sek, 1959- yil 9- aprelda suv sarfi 2160 m.kub/sekga, 1956- yil 23-fevralda 22 m.kub/sekga tushib qolgan.

Chirchiq daryosining havzasida 222 ta muzlik bo'lib, ularning eng kattasi Ayutur — 3 (5,6 kv.km.). Chirchiq suvining 55% i Chotqol, 36% i Piskom, 9% i Ugomga to'g'ri keladi.

Chirchiq daryosining energiya resursi 2,3 mlrd kvk, hozir shuning atigi 35% ga yaqinidan foydalanilmoqda. Daryo vodiysida 19 ta GES qurilgan.

## Savol va topshiriqlar


1. Chirchiq-Ohangaron o'lkalarining iyul va yanvar oylaridagi eng yuqori va eng past havo haroratlarini aniqlang.


2. Chirchiq-Ohangaron vodiysida eng ko'p va eng kam yog'in yog'adigan joylarni belgilang, buning sababini tushuntirishga harakat qiling.


3. Chirchiq-Ohangaron vodiysida qaysi tuproq turlari uchraydi? Ular qay tartibda o'zgaradi?


4. O'lkada tekislikdan toq'ga tomon o'simlik qoplami qanday o'zgaradi? Qanday mintaqalar uchraydi?


## 18- dars


 **Darsning mavzusi.** Farg'ona vodiysi. Geografik o'rni. Yer yuzasining geologik tuzilishi va foydali qazilmalari


 **Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiati, tabiiy geografik o'lkalarning o'ziga xos xususiyatlari va THK lar haqidagi tasavvur va bilimlarni shakllantirishda davom etish; Farg'ona vodiysi geografik o'rni, chegaralari va uning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish; tabiiy geografik o'lka yer yuzasi tuzilishi, orografiyasi, geologik tuzilishi, yer po'stining taraqqiyot bosqichlariga ta'rif berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, foydali qazilmalar, tektonik xaritalari, rasmlar, jadvallar, sxemalar, diafilmlar va kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilarga avvalgi darslardan ma'lum bo'lgan atama va tushunchalarni takrorlash, ularning yangilari bilan tanishtirish; o'lkaning geografik o'rni, xususiyatlari, geografik o'rning o'ziga xosligi va tabiiy sharoiti haqida hikoya va suhbat; o'lka yer yuzasining geologik taraqqiyoti, tuzilishi, tektonik harakatlar haqida o'qituvchi suhbat, savol-javobi.

 **Atama va tushunchalar:** geografik o'rin, geologik davr, peneplon, lyoss, tektonik botiq, konglomerat.

 **Geografik obyektlar:** Farg'ona vodiysi, Xo'jand darvozasi, Tyanshan, Mo'g'ul tog', Qurama, Oloy, Chotqol, Turkiston tizmasi, So'x, Shohimardon, Isfayramsoy, Oqbura, Sirdaryo, Norin, Yozyovg'on cho'li, Qoraqalpoq cho'li, G'ovasoy, Qorasuv, Katta Farg'ona kanali, Oto'ynoq tizmasi, Qoramozor, Markaziy Farg'ona, Janubiy Farg'ona.

 **Nomlar:** Ahmad Farg'oniy, Z.M. Bobur, Burhoniddin Marg'iloniy, H. Abdullayev, A.F. Middendorf, A.P. Fedchenko, M.Qoriyev, A. Mo'minov, Z. Zokirov, P. Baratov.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**

## Farg'ona tabiiy o'lkasiga xos xususiyatlar

1. Farg'ona vodiysining uzunligi g'arbdan-sharqqa 370 km, o'rtacha kengligi 80—100 km, eng keng joyi — sharqida 150 km. Vodiy Xo'jand darvozasi orqali Dalvarzin va Mirzacho'l tekisliklari bilan tutashib turadi.

2. Farg'ona vodiysi tektonik botiqda joylashgan bo'lib, dengiz tagi bo'lgan.

3. Vodiyning markaziy qismi cho'l landshaftidan iborat bo'lib, qumlar va barxanlar ham mavjud.

### Savol va topshiriqlar


1. Farg'ona vodiysi tabiiy geografik o'lkasi respublikaning qaysi qismida joylashgan?

- A. Markazida
- B. Shimoli-sharqida
- C. Sharqida

2. Qaysi davrda Farg'ona vodiysi hududi batamom quruqlikka aylangan?


- A. Paleogenda
- B. Neogenda
- C. Antropogenda

## 19- dars

 **Darsning mavzusi.** Farg'ona vodiysi iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.



**Darsning maqsadi.** O'zbekistonning tabiiy-geografik o'lkalari haqida geografik tasavvur va bilimlarni shakllantirishda davom etish; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; o'lka iqlimi va ichki suvlariga xos xususiyatlarni ochib berish; vodiy tuproqlari, o'simliklari, hayvonot dunyosi turlari va ularni hudud bo'ylab tarqalish qonuniyatlariga to'xtalish; xilma-xil geografik bilim manbalari va axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda davom etish; o'quvchilarni vodiyning ma'danli buloqlari, shifobaxsh maskanlari bilan tanishtirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning iqlimi, gidrografik, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari, diafilm, kitoblar, rasmlar, jadvallar, sxemalar.



**Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan bilim, tushuncha va atamalarni takrorlash, yangilari bilan tanishish; o'lka iqlimi, iqlim hosil qiluvchi asosiy omillar va o'lka ichki suvlarining hudud bo'ylab joylashishi haqida suhbat; o'lka

• tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida o'qituvchi hikoyasi; darslik asosida mustaqil ish — matn ma'lumotlaridan foydalanib o'lka o'simliklari, hayvonot dunyosi, tuproqlari jadvalini to'ldirish; ko'rgazma materiallardan foydalanib, o'lka iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida olgan bilimlarni mustahkamlash; yozuvsiz xaritaga yirik daryo va ko'llarni tushirish; mineral suvlar va vodiyning shifobaxsh maskanlari haqida o'quvchilar chiqishlarini eshitish.

☞ **Atama va tushunchalar:** qo'qon shamoli, bekobod shamoli, fyon, tog'-vodiy shamoli, sel, adir, tog', yaylov tuproqlari, adir o'simliklari, soy.

🗺 **Geografik obyektlar:** Norin, Qoradaryo, Sirdaryo, Qayroq-qum suv ombori, So'x, Isfayramsoy, G'ovasoy, Kosonsoy, Namangansoy, Chortoqsoy, Chodaksoy, Pochchaotasoy, Qubbon ko'li, Kosonsoy suv ombori, Andijon suv ombori, Karkidon suv ombori.

📖 **Nomlar:** Ahmad Farg'oniy, Z.M. Bobur, H. Abdullayev, A. S.Cho'lpon, R. Fitrat, H. Sulaymonov, Y. Rajabiy, M.Turg'unboyeva, S. Zunnunova, M. Dadaboyeva, Y. Sultonov.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar.**

Farg'ona vodiysining iqlimi, ichki suvlari, tuproq va o'simliklariga xos xususiyatlari

1. Vodiya foydali haroratlar 4000—4800 °C, vegetatsiya davri 235—240 kun. 50—62 kun harorat 0°C dan past bo'ladi, qor bir yilda 30—40 kun erimay turadi.

2. Vodiyning yirik daryolari — Norin, Qoradaryo, Sirdaryoning 45% suvi mart-iyunda, 36% i iyul-sentabrda, 19%i oktabr-fevralda oqadi.

3. Markaziy Farg'ona yer osti suvlariga boy va kuchli bosimga ega.

4. Vodiy yer osti shifobaxsh suvlariga boy.

5. Vodiya tabiiy tuproqlar deyarli saqlanmagan, ular o'zlashtirilib, madaniy voha tuprog'iga aylangan.

6. Vodiy boshqa tabiiy o'ikalarga nisbatan suv taqchilligiga ega emas.

7. Sirdaryo bo'ylarida to'qayzorlar ham uchraydi.


❓ **Savol va topshiriqlar**


1. Farg'ona vodiysi atrofidagi tog' tizmalari iqlimning tarkib topishiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?


2. Vodiyning shimol va janub tomonidagi tog'lardan qanday dafyolar boshlanadi? Ular nima uchun Sirdaryoga yetib bormaydi?


3. Farg'ona vodiysi iqlimining tarkib topishida qanday omillar ta'sir etadi?


## 20- dars


 **Darsning mavzusi.** Mirzacho'l. Geografik o'rni. Yer yuzasi, geologik tuzilishi. Foydali qazilmalari.


 **Darsning maqsadi va vazifalari.** O'zbekiston tabiati va tabiiy-geografik o'lkalari haqidagi geografik bilimlarni shakllantirishda davom etish; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; Mirzacho'lning geografik o'rni, chegaralariga ta'rif berish; o'lka yer yuzasi, geologik tuzilishi, taraqqiyot bosqichlari bilan tanishish.


 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, foydali qazilmalari xaritalari, diafilmlar, sxemalar, jadvallar, kitoblar, tog' jinslari namunalari, yozuvsiz xarita.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda berilgan tushuncha va atamalarni takrorlash, yangilari bilan tanishish; Mirzacho'l tabiiy-geografik o'lkasining geografik o'rni, chegaralari haqida savol-javob va hikoya; o'lka yer yuzasining geologik taraqqiyoti haqida o'qituvchi hikoyasi; xarita asosida mustaqil ish; o'lka hududida tarqalgan foydali qazilmalarni aniqlash; darslik ustida mustaqil ish — o'lkaning tabiiy-geografik kesimini tahlil qilish.

 **Atama va tushunchalar:** tekislik, yoshargan tog', sho'rxok, yassi tekislik, lyoss, qumtosh, jarlar, yoyilma konus, adir, sho'rxoklar, qayirlar, zovur-drenaj.

 **Geografik obyektlar:** Mirzacho'l, Sirdaryo viloyati, Jizzax viloyati, Turkiston, Nurota, Morguzar tog'lari, Sangzor vodiysi, Sirdaryo, Amir Temur darvozasi, Hayotboshi cho'qqisi, Zarafshon daryosi, Sangzor daryosi, Eski tuyatortar arig'i, Aydarko'l, Tuzkon ko'li, Arnasoy ko'llari, Sardoba, Sho'ro'zak, Xovos.

 **Nomlar:** H. M. Abdullayev, Y. A. Skvorsov, G. O. Mavlonov, M. Qoriyev, I. Hamroboyev, D. Dolimov, A. Soatov.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar.**

Tabiiy-geografik o'lka quyidagi tabiiy o'lka va ma'muriy birliklar bilan chegaraga ega:


— Shimolda — Qizilqum cho'li va Qozog'iston respublikasi.


- Shimoli-sharqda — Chirchiq-Ohangaron vodiysi.
- Sharqda—Tojikiston respublikasi.
- Janubda—Tojikiston va Zarafshon vodiysi.
- Janubi-g'arbda—Zarafshon vodiysi.
- Tekislik qismining o'rtacha balandligi 250—300 m.
- Eng baland joyi Turkiston tizmasida — 4000 m.
- Yer yuzasi asosan yassi tekislikdan iborat.
- Hududning katta qismi 60—70- yillarda o'zlashtirilgan.
- Janubiy chekka qismida Turkiston tog'lari joylashgan bo'lib, asosan paleozoy qumtoshlari va slaneslaridan tuzilgan.
- Morguzar va Nurota tog'lari o'rtasida, ya'ni Sangzor daryosi vodiysida mashhur Amir Temur (Ilonuti) darvozasi darasi bor.

### ❓ Savol va topshiriqlar

1. Mirzacho'l shimolidagi eng yirik ko'lni ayting.
  - A. Armasoy
  - B. Tuzkon
  - C. Aydarko'l
2. Mirzacho'lning janubidagi eng baland tog' nomini ayting.
  - A. Turkiston
  - B. Morguzar
  - C. Nurota
3. Tabiiy geografik o'lka ma'muriy jihatdan qaysi viloyatlar hududiga to'g'ri keladi?
  - A. Jizzax, Navoiy
  - B. Jizzax, Samarqand
  - C. Sirdaryo, Jizzax
4. Mirzacho'l tekislik qismining o'rtacha balandligi qancha?
  - A. 250—300
  - B. 300—350
  - C. 350—400


## 21- dars


 **Darsning mavzusi.** Mirzacho'l. Iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi


 **Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiiy geografik rayonlari haqidagi geografik bilimlarni shakllantirishni davom etish; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; o'lka iqlimi va uni hosil qiluvchi yetakchi omillar bilan





tanishish; o'lka suvlarining hududdagi tarqalishi, asosiy daryolari, katta ko'llari va yer osti suvlariga ta'rif berish; o'lka tuproqlarining hosil bo'lishi va ularning hudud bo'ylab tarqalish qonuniyatlarini ochib berish.


 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning iqlimi, tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq xaritalari, o'lka xaritalari, yozuvsiz xarita, jadval, sxema, diafilm, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda o'rganilgan atama va tushunchalarni takrorlash va yangilari bilan tanishtirish; o'lka iqlimini hosil qiluvchi omillar haqida suhbat: o'lka ichki suvlari va ularni hududda tarqalishi, joylashish haqida hikoya; o'lka tuproqlari va ularni hududda tarqalishi haqida savol-javob va suhbat; mustaqil ish — „Mirzacho'l o'simliklari va hayvonot dunyosi“ jadvalini darslikdan foydalanib to'ldirish; amaliy ish — o'lka tuproqlarini yozuvsiz xaritagga tushirish.

 **Atama va tushunchalar:** kontinental iqlim, radiatsiya, bekobod shamoli, tog'-vodiy shamoli, daryolari, ko'llari, suv omborlari, GES, adir, cho'l tuproqlari, sho'rxoklar, zovurdrenaj, botqoq-o'tloq tuproqlar, cho'l o'simliklari, adir o'simliklari, tog' va yaylov o'simliklari, qo'riqxonasi, milliy bog'

 **Nomlar:** P. Baratov, R. Rahimbekov, L. N. Babushkin, V. L. Shuls, S. Nishonov, A. Abulqosimov, L. Alibekov, A. Abirqulov.

 **Geografik obyektlar:** Mirzacho'l tekisligi, Turkiston tizmasi, Morguzar va Nurota tog'lari, Sangzor daryosi, Sirdaryo Aydar ko'l, Arnasoy va Tuzkon ko'li, Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi, Nurota tog'-yong'oqzor qo'riqxonasi, Marjonsoy, Qizilqum, Farhod GESi, Jizzax cho'li, Sho'ro'zak, Zominsuv, Dalvarzin cho'li.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:** Mirzacho'l iqlimi, ichki suvlari, tuprog'i, o'simligi, hayvonot dunyosiga xos xususiyatlar

1. Mirzacho'l shimoliy qismining ochiq bo'lishi Arktika havomassalarining bimalol kirib kelishiga imkon yaratadi.

2. Haroratning yillik o'rtacha amplitudasi 80 °C ga boradi (yozda +41, +47 °C, qishda -29 -35°C).

3. 261—272 kun davomida harorat +5°C dan yuqori bo'ladi.

4. Yillik yog'in miqdori 250—300 mm, uning 40—45% i bahorda, 35% i qishda tushadi.

5. O'lkada kuchli shamollar esadi.

### ❓ **Savol va topshiriqlar**

1. Mirzacho'lning geografik o'rni uning tabiatiga qanday ta'sir etadi?
2. Mirzacho'l tekisligining janubida qanday tog'lar bor?
3. Mirzacho'l o'lkasining geografik o'rni qanday xususiyatlarga ega?

## 22- dars

**📖 Darsning mavzusi.** Zarafshon vodiysi. Geografik o'rni. Yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari.

**👉 Darsning maqsadi.** Respublika tabiiy geografik o'lkalari tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi geografik bilimlarni shakllantirishda davom etish, o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; Zarafshon vodiysining geografik o'rni, yer yuzasining geologik tuzilishi, geologik taraqqiyot bosqichlari va foydali qazilmalari bilan o'quvchilarni tanishtirish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; o'quvchilarda tekislik va tog'li o'lkalarga oid ekologik bilimlarni rivojlantirish va qanday ekologik muammolar mavjudligini aniqlash; o'quvchilarni Zarafshon o'lkasidagi qiziqarli tabiiy geografik obyektlar bilan tanishtirish

**📊 Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, foydali qazilmalari xaritalari, o'lka xaritalari, yozuvsiz xarita, jadval, sxema, diafilm, kitoblar, tog' jinslari namunalari.

**📖 Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan tushuncha va bilimlarni takrorlash; yangi atama va tushunchalar bilan tanishish; Zarafshon vodiysi geografik o'rni, chegaralari haqida, o'quv ko'rgazmalardan foydalangan holda, savol-javob va suhbat; o'lka tabiiy xaritasi bo'yicha o'qituvchi hikoyasi; mustaqil ish: xarita va darslikdan foydalangan holda o'lkadagi foydali qazilma turlarini jadval tarzda aks ettirish; amaliy mashg'ulot — foydali qazilmalarini yozuvsiz xaritaga tushirish; Zarafshon o'lkasi tog' hosil bo'lish jarayonlari haqida savol-javob uyushtirish.

☞ **Atama va tushunchalar:** geografik o'qmi, vodiy, tabiiy-geografik kesim, lyoss yotqiziqlar, voha, tektonik botiq, cho'kindi yotqiziqlar, gersin tog' burmalanishi, neogen, paleozoy erasi, slanes, granit, gneys.

🗺 **Geografik obyektlar:** Zarafshon vodiysi, Shumkar tog'i, G'o'bdun tog'i, Nurota, Oqtog', Qoratog', Chaqilkalon, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari, Sanduqliqum, Qizilqum, Samarqand botig'i, Samarqand, Buxoro va Qorako'l vohalari, Hazar va Qorako'l yo'lagi, Zarafshon daryosi, Kimirakqum, Quyimozor, Buxoro-Qorako'l deltasi, Sangzor.

👤 **Nomlar:** Mirzo Ulug'bek, A. P. Fedchenko, V. A. Obruchev, N. A. Kogay, P. G'ulomov, S. Nishonov, A. Abulqosimov, L. Alibekov, I. Nazarov, M. Umarov.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:**

**1. O'lka tabiiy geografik chegaralari**

- Shimolda Qizilqum o'lkasi bilan.
- Shimoli-sharqda Mirzacho'l bilan.
- Sharqda Tojikiston bilan.
- Janubda Qashqadaryo o'lkasi bilan.
- Janubi-g'arbda Turkmaniston bilan.
- G'arbda Qizilqum o'lkasi bilan.

**2. O'lka yer yuzasining morfologik tuzilishi**

- Sharqdan g'arbgacha yer yuzasi pasaya boradi.
- Shimolga va janubga tomon ham pasayadi.
- Aksariyat hudud tektonik botiqda joylashgan.
- Vodiy tubi asosan paleogen va neogen yotqiziqlari bilan qoplangan.

— Samarqand botig'ining eng keng yeri 80 km, uzunligi 220 km.

— Yer yuzasida lyoss, qum, shag'al, konglomerat ko'p tarqalgan.


Zarafshon o'lkasi, o'z navbatida, bir necha geografik qismlarga bo'linadi:


1. „Buxoro-Qorako'l“ deltasi va qayirlar.
2. „Gazli“ tabiiy rayoni.
3. Sanduqliqum tabiiy rayoni.
4. Kattaqo'rg'on tabiiy rayoni.
5. Samarqand tabiiy rayoni.
6. Zarafshon tizmasi.


## Savol va topshiriqlar


1. Quyidagilar ichidan Zarafshon vodiysiga tegishlilarini ajrating:
  - a) viloyat hududining ma'lum bir qismini qamrab olgan;
  - b) Zarafshon daryosi vodiysini o'z ichiga oladi;
  - d) hududining asosiy qismi qumli cho'l bilan qoplangan;
  - e) to'rtlamchi davr sochilma jinslari bilan qoplangan;
  - f) sharqdan g'arbgga tomon hududi pasaya boradi;
  - g) janubga va shimolga tomon hududi ko'tarila boradi;
  - h) Samarqand, Buxoro, Qorako'l vohalarini o'z ichiga oladi;
  - i) Quyi Amudaryo tabiiy geografik rayoni bilan chegaradosh;
  - j) Jom va Qarnob botiqlari mavjud;
  - k) Qashqadaryo, Mirzacho'l, Qizilqum tabiiy geografik o'lkalari, Tojikiston va Turkmaniston respublikalari bilan chegaradosh. Jarqoq, Gazli, Qorovulbozor gaz konlari topilgan.
2. Quyidagi foydali qazilmalarning qayerlarda qazib olinishini aniqlang:
  - a) tabiiy gaz;
  - b) volfram.

## 23- dars

 **Darsning mavzusi.** Zarafshon vodiysi. Iqlimi va suvlari, Tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.

 **Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiiy geografik o'lkalari haqidagi geografik bilim va tasavvurlarni shakllantirishda davom etish; o'lka iqlimi, iqlim hosil qiluvchi omillar bilan tanishish; o'lka ichki suvlari: daryolari, ko'llari, suv omborlari va ularning gidrografik rejimiga ta'rif berish; o'lka hududida tarqalgan tuproq turlari va ularning tarqalish qonuniyatlari bilan tanishish; o'lka o'simlik va hayvonot dunyosi, ularning turlari va tabiat muhofazasi haqidagi bilimlarni berish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; tabiat komponentlari o'rtasidagi aloqadorlikni iqlim, suv, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi misolida ochib berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekiston tabiiy, iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari, 7- sinf atlas, o'lkaning xaritalari, sxema, jadvallar, diafilm, devoriy yozuvsiz xarita, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan tushuncha va atamalarni takrorlash va mustahkamlash; o'quvchilarni yangi

atama va tushunchalar bilan tanishtirish; o'lka iqlimi va iqlim hosil qiluvchi asosiy omillar haqida suhbat; o'lka ichki suvlari haqida o'qituvchi suhbat va hikoyasi; o'lka tuproqlari va ularning hudud bo'yab tarqalish qonuniyatlari haqida o'qituvchi savol-javobi; mustaqil ish — darslik va xaritadan foydalangan holda o'lka o'simlik va hayvonot dunyosi jadvalini tuzish; mavzuni geografik o'yin-musobaqa tarzida umumlashtirish; o'lkaning ekologik muammolari bo'yicha o'quvchilar fikrlarini tahlil etish; o'lkaning tabiati haqida tasavvur hosil qilish uchun diafilm, kolleksiyalar namoyish etish.

☞ **Atama va tushunchalar:** tabiiy sharoit, kontinental iqlim, quyosh radiatsiyasi, havo massalari, vodiylar, koriz, soy, tuproq qoplami, cho'l mintaqasi, adir mintaqasi, tog' mintaqasi, yaylov mintaqasi, o'simlik qoplami, YUNESKO, „Qizil kitob“

📍 **Geografik obyektlar:** Zarafshon vodiysi, Zarafshon qo'riqxonasi, Nurota, Oqtog' tog'lari, Omonqo'ton, Dengizko'l, To'dako'l, Kattaqo'rg'on suv ombori, Oqsoy, Sangardak, Sho'rko'l suv ombori, Qoradaryo, Oqdaryo

✍️ **Nomlar:** Z. Zokirov, P. Barátov, L. Alibekov, A. Abulqosimov, M. Umarov.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:**

— Quyi Zarafshon O'zbekistonning eng issiq hududlaridan biri sanaladi. O'rtacha yillik harorat  $14^{\circ}\text{C} - 15^{\circ}\text{C}$ . Bu yerda iyulning o'rtacha harorati  $28^{\circ}\text{C} - 29,6^{\circ}\text{C}$ .

— O'lkaning tekislik qismida, ya'ni Buxoro va Qorako'l deltasida qorning erimay turish muddati 5—10 kun atrofida.

— Zarafshon daryosi Buxoro deltasida ikki tarmoqqa bo'linadi. Vobkentdaryo va Qorako'ldaryo. Qorako'ldaryo Qorako'l shahrida yana 2 ta tarmoqqa — Toykir va Saribozorga bo'linadi. Hozirgi kunda ular quruq o'zanlarga aylanib qolgan.

— Hududdan uzunligi 268 km keladigan Amu-Buxoro kanali oqib o'tadi. Kanal Amudaryo suvini 66 m balandga ko'tarib beradi.


— Zarafshon o'lkasida o'nlab ko'llar bor. Bular:


Dengizko'l, To'dako'l, Hojioyl, Chuqurko'l, Somonko'l, Sho'rko'l, Kattako'l, Makonko'l, Qoraqirko'l, Parsanko'l, Zammonbobo va h.k. Bu ko'llarning umumiy suv sig'imi  $1 \text{ km}^3$ .


## **Savol va topshiriqlar**


1. Yozuvsiz xaritada Zarafshon tabiiy geografik o'lkasi chegaralarini belgilang.
2. O'lka yer yuzasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Samarqand, Buxoro va Qorako'l vohalari yer yuzasi bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Zarafshon vodiysi bilan uni o'rab olgan tog'lar geologik tuzilishi jihatidan qanday farq qiladi?

## **24- dars**

 **Darsning mavzusi.** Qashqadaryo. Geografik o'rni. Yer yuzasi geologik tuzilishi va foydali qazilmalari.

 **Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiiy-geografik o'lkalari haqidagi geografik tasavvur va bilimlarni shakllantirishni davom ettirish; o'quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; xaritalar yordamida Qashqadaryo o'lkasi geografik o'rni va chegaralari bilan tanishish; o'lka yer yuzasining geologik tuzilishi va geologik taraqqiyotini ko'rib chiqish; o'lka hududida tarqalgan foydali qazilmalar turlari va konlari bilan tanishish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; tabiat komponentlari o'rtasidagi aloqadorlik masalalarini aniq misollarda ko'rib chiqish.

 **Ko'rgazma materiallr.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, foydali qazilmalar, tektonik xaritalari, Qashqadaryo viloyati xaritalari, yozuvsiz xarita, sxema, jadval, kitoblar, tog' jinslari namunalari, rasmlar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda o'rganilgan atama va tushunchalarni takrorlash va yangilari bilan tanishish; o'lka geografik o'rni va xususiyatlari haqida xaritadan foydalangan holda savol-javob tarzida suhbat; o'lka yer yuzasi geologik tuzilishi va taraqqiyoti haqida geoxronologik jadvalni tahlil etish; geologik xaritadan foydalangan holda o'lka geologiyasi haqida o'qituvchi hikoyasi; o'lka foydali qazilmalari, ularning kelib chiqishi va hudud bo'ylab joylashishini xarita asosida suhbat qilish; amaliy ish: o'lka tabiiy xaritasidan foydalanib foydali qazilmalar konlarini yozuvsiz xaritaga tushirish; o'lka tabiati haqida yorqin tasavvurlar hosil qilish uchun diafilm va har xil rasmlarni ko'rib chiqish.

☞ **Atama va tushunchalar:** geografik o'lni, karst, g'orlar, era, davr, tog' tizimi, burmalanish, kenglik stansiyasi, qoldiq tog', jarliklar, platosimon balandliklar.

🗺️ **Geografik obyektlar:** Qashqadaryo o'lkasi, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari, Jarqoq, Dengizko'l va Muborak balandliklari, Hisor tog'lari, Boysun tog'i, Chaqilkalon tog'i, Taxtaqoracha dovoni, Qoratepa tog'i, Zebon cho'qqisi, Hazrat Sulton, Chaqchar tog'lari, Miraki, Yakkabog' va G'uzor adirlari, Kitob-Shahrisabz botig'i, Qashqadaryo, Oqsuv, Qarshi botig'i, Jom, Malik, Qarnob, Nishon, Sandiqliqum cho'llari, „Saksondara“, Sho'rsoy.

📖 **Nomlar:** H. Abdullayev, I. Hamroboyev, M. Qoriyev, M. Mamatqulov, A. Rafiqov, M. Yangiboyev, A. Ro'ziyev.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:**

### **O'lka yer yuzasining morfologik tavsifi**

- Eng baland joyi Hazrati Sulton cho'qqisi — 4643 m.
- Hududi sharqdan g'arbgacha tomon pasaya boradi.
- Shimoldan janubga 200 km ga cho'zilgan.
- G'arbdan sharqqa 300 km ga cho'zilgan.
- O'lkaning sharqiy qismi tog'liklardan, g'arbiy qismi esa asosan tekisliklardan iborat.

### **O'lkaning tabiiy chegaralari**

- Shimolda Ziyovuddin-Zirabuloq tog'lari orqali Zarafshon vodiysi bilan.
- Janubda va janubi-sharqda Turkmaniston bilan.
- Sharqda va janubi-sharqda Hisor-Boysun tizmasi orqali Tojikiston va Surxondaryo bilan chegaradosh.
- Shimoli-g'arbdan Zarafshon vodiysi bilan chegaralanadi.
- O'lka Quyi Qashqadaryo va Qarshi tabiiy geografik rayonlariga bo'linadi.

### **❓ Savol va topshiriqlar**

- 1 : 6000000 masshtabli xaritada Qashqadaryo o'lkasining g'arbdan sharqqa va shimoldan janubgacha bo'lgan uzunligini aniqlang.
2. Yozuvsiz xaritaga Qashqadaryo o'lkasidagi tog'lar va tekisliklarni yozing.
3. Jahon ahamiyatiga ega bo'lgan kenglik stansiyasi Qashqadaryoning qaysi shahrida joylashgan? Bu yerda qanday tadqiqotlar olib boriladi?

4. Quyidagi shaharlarni dengiz sathidan balandligiga ko'ra to'g'ri joylashtiring.

Qarshi, Muborak, Jarqoq, Sandiqli, Kitob, Yakkabog'

5. Quyidagi cho'qqilar to'g'risiga ularning qaysi tog'larda joylashganligini yozing:


2336 m.....,


1630 m.....,


2195 m.....,


4400 m.....

## 25- dars

 **Darsning mavzusi.** Qashqadaryo. Iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi.

 **Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiiy geografik o'lkalarining tabiiy sharoiti haqidagi bilim va tasavvurlarni shakllantirishni davom ettirish; o'lka iqlimi, iqlim hosil qiluvchi omillar bilan tanishish; o'lka ichki suvlariga ta'rif berish; o'lka tuproqlari va ularning hudud bo'ylab va balandlik mintaqalari bo'ylab joylashish qonuniyatlarini ochib berish; o'lka o'simlik va hayvonot dunyosi, o'lkada tabiat muhofazasini ko'rib chiqish; o'simlik va hayvonot dunyosining balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishi bilan tanishish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; o'lka tabiat komponentlari o'rtasidagi aloqadorlikni aniq hudud misolida ko'rib chiqish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, iqlim, gidrografik, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari, 7- sinf atlas, diafilm, sxemalar, jadvallar, rasmlar, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan tushuncha va bilimlarni takrorlash, yangilari bilan tanishish; o'lka iqlimiy sharoiti va iqlim hosil qiluvchi omillar haqida o'qituvchi savol-javobi va suhbat; o'lka tuproqlari va ularning balandlik mintaqalari bo'ylab tarqalishi haqida suhbat; o'lka o'simliklari va hayvonot dunyosi haqida diafilm va rasmlardan foydalangan holda suhbat; mustaqil ish — o'lka tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi turlari jadvalini to'ldirish; darsda xilma-xil geografik o'yinlardan foydalanish; o'lka tabiati haqida o'quvchilarda yaqqol tasavvurlar hosil qilish uchun diafilm,



rasmlarni ko'rish; mavzuga oid test savollari yechish bilan darsni uyushtirish.

☞ **Atama va tushunchalar:** subtropik iqlim, o'rtacha harorat, radiatsiya, yalpi radiatsiya, yog'in miqdori, havo bosimi, tuproq qoplami, o'simlik qoplami, madaniy tuproq, qayir, cho'l, adir, tog', yaylov, qo'riqxonona, geologik qo'riqxonona.

📖 **Geografik obyektlar:** Sandiqli cho'li, Qashqadaryo, G'uzor, Kitob, Qarshi, Oqsuv, Tanhoz, Yakkabog', G'uzordaryo, Tollimarjon suv ombori, Kitob geologik qo'riqxonasi, Hisor qo'riqxonasi.

📖 **Nomlar:** P. Baratov, G. O. Mavlonov, D. N. Kashgarov, A. Rasulov, H. Abdullayev, A. Azatyan, R. Yugay, A. Ro'ziyev, I. Hasanov.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:**

- O'lkada 284—298 kun davomida harorat  $+5^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'ladi.
- Qishki o'rtacha harorat  $0^{\circ}\text{C}$ , iyulning o'rtacha harorati  $29^{\circ}\text{C}$  —  $30^{\circ}\text{C}$ .
- Bahorgi sovuq tushishining oxirgi muddati 16—25 martda.
- Kuzgi birinchi sovuq tushishi 21- oktabr, 14- noyabrda.
- Eng kam yog'in g'arbida — 180 mm, sharqida 550 mm.
- Yillik yog'inning 45—50% i bahorda, 37—40% i qishda yog'adi.

**Daryolari:**

Qashqadaryo (322 km), uning irmoqlari — Jindaryo, Oqsuv, Tanhoz, Yakkabog'daryo, G'uzordaryo, Maymondaryo, Qamashidaryo.


**Suv omborlari:**


Chimqo'rg'on, Qamashi, Pachkamar, Sho'rsoy, Tollimarjon.


🔍 **Savol va topshiriqlar**


1. Qashqadaryo iqlimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat va uni vujudga keltiruvchi qanday omillarni bilasiz?
2. Nima uchun o'lkaning tekislik qismida yanvarning o'rtacha harorati  $0^{\circ}\text{C}$  dan yuqori, tog'larda esa  $0^{\circ}\text{C}$  dan past.
3. O'lkada yog'inlarning notekis taqsimlanish sababini tushuntiring.


## 26- dars


 **Darsning mavzusi.** Surxondaryo. Geografik o'рни. Yer yuzasi va geologik tuzilishi. Foydali qazilmalari


 **Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiiy geografik o'lkalari haqidagi tasavvur va bilimlarni shakllantirishni davom ettirish; Surxondaryo o'lkasining geografik o'рни va chegaralari bilan tanishish; o'lka yer yuzasi geologik tuzilishi, geologik taraqqiyoti va yer yuzasining umumiy orfografik xususiyatlari bilan tanishish; o'lka foydali qazilmalari va ularning joylashishi bilan tanishish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, foydali qazilmalari xaritalari, Surxondaryo o'lkasi xaritalari, sxema, jadval, yozuvsiz xarita, diafilm, tog' jinslari, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan bilim va tushunchalarni takrorlash, yangilari bilan tanishish; o'lka geografik o'рни va chegaralari haqida xaritalardan foydalangan holda suhbat uyushtirish; o'lka yer yuzasi, geologik tuzilishi va geologik taraqqiyoti haqida o'qituvchi hikoyasi; o'lka foydali qazilmalarini darslik va xaritadan foydalangan holda jadvalga tushirish bo'yicha mustaqil ish; amaliy mashg'ulot — Surxon-Sherobod vodiysining yaxlit tabiiy geografik kesimini tahlil qilish; o'lka yer yuzasi shakllanishida ta'sir etgan tashqi omillar haqida suhbat; mavzuni savol-javob yoki geografik musobaqa tarzida umumlashtirish; yozuvsiz xaritaga o'lka relyefiga oid muhim obyektlarni tushirish; Surxondaryo tabiati haqida yaqqol tasavvurlar hosil qilish uchun har xil rasmlar, jadvallar, kitoblarni ko'rib chiqish.

 **Atama va tushunchalar:** geografik o'рни, tabiiy geografik chegara, ma'muriy chegara, subtropik o'lka, burmali tog'lar, burmali-palaxsali tog'lar, arxeologik yodgorlik, marza, ko'hna qayir, lyoss.

 **Geografik obyektlar:** Surxondaryo, Surxon vodiysi, Sherobod vodiysi, Hisor, Boysuntog', Chaqchar, Sherobod past tog'lari, Ko'hitang tog'i, Qizilolma soyligi, Sayrob soyligi, Boysun soyligi, Surxon tizmasi, Sherobod daryosi, Bobotog', Sherobod-Sariqamish past tog'lari, Jayronxona, Lalmikor, Oqtog'.

 **Nomlar:** At -Termiziy, A. Ro'ziyev, M. Qoriyev, N. Kogay, Z. Zokirov, H. M. Abdullayev, I. Hamroboyev, G. O. Mavlonov, Y. A. Skvorsov.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:**

Foydali qazilmalari:

Toshko'mir, neft, polimetall, osh tuzi, qurilish materiallari.

Qazib olinadigan joylar nomi:

Sharq'un, Boysun, To'da,

Lalmikor, Ko'kaydi, Xovdog', Amudaryo,

Sariosiyo (Sangoboak), Xondiza,

Xo'jayikon.

Yer yuzasi.

— Surxondaryo o'lkasining shakli uchburchakka o'xshaydi, u shimoli-sharqdan janubi-sharqqa 170 km ga cho'zilgan.

— O'lka hududida balandligi 270—550 m keladigan qiya tekisliklar ko'pchilikni tashkil etadi.

Bular: Eski Termiz, Uchqizil (417 m), Xovdog (557 m), Zang, Ko'kaydi, Oqqo'rg'on, Jayronxona, Lalmikor, Oqtog' (750 m).


— Surxondaryo qirg'oqlarida bir necha qayir va ko'hna qayirlar bor.


Ularning usti 30—90 m qalinlikdagi qumoq va lyossimon jinslar bilan qoplangan.

### **Savol va topshiriqlar**


1. Surxondaryo iqlimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Xaritadan foydalanib, o'lkadan qanday daryolar oqib o'tishini belgilang.


## **27- dars**


 **Darsning mavzusi.** Surxondaryo. Iqlimi va suvlari. Tuproqlari. O'simliklari va hayvonot dunyosi


 **Darsning maqsadi.** O'quvchilarda O'zbekiston tabiiy o'lkalari haqidagi tasavvur va bilimlarni shakllantirishda davom etish; o'lka iqlimiy sharoiti va iqlimini hosil qiluvchi asosiy omillar bilan tanishish; o'lka ichki suvlariga oid xususiyatlarni ochib berish; o'lka tuproqlari, ularni hosil qiluvchi omillar va tuproqlarning o'lka bo'ylab tarqalish qonuniyatlari bilan


tanishish; o'lka o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'rif berish; o'lkada tabiat muhofazasi, qo'riqxonalariga ta'rif; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; o'lkadagi o'simlik va hayvonot dunyosini jadvalga tushirish bo'yicha amaliy ish uyushtirish; o'lka ichki suvlari haqida o'quvchi ma'ruzalarini eshitish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, iqlim, tabiatni muhofaza qilish xaritalari, Surxondaryo o'lkasi xaritalari, diafilm, sxema, jadvallar, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'tgan darslarda egallangan atama va tushunchalarni takrorlash va yangilari bilan tanishish; o'lka iqlim sharoiti haqida savol-javob; o'lka o'simliklari va hayvonot dunyosi, ularning hudud bo'ylab tarqalishi haqida diafilm ko'rish; xarita va darslikdan foydalangan holda amaliy mashg'ulot o'tkazish; o'lka iqlim xaritasiga oid ma'lumotlarni yozuvsiz xaritaga tushirish; mustaqil ish: o'lka o'simliklari va hayvonot dunyosi jadvalini tuzish; darsni savol-javob va test tarzida umumlashtirish; tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi haqida o'quvchilarning ma'ruzalarini eshitish, darsni har xil o'yinlar bilan yakunlash.

 **Atama va tushunchalar:** iqlim, gidrografik to'r, suv ombori, afg'on shamoli, subtropik iqlim, garmsel, suv ombori, qayir, tog', tog' oldi, eroziya, qo'riqxonona.

 **Geografik obyektlar:** Surxondaryo, Sherobodaryo, Machaydaryo, To'polondaryo, Qorasuv, Xo'jayipok, Zang kanali, Xazarbog' kanali, Janubiy Surxon suv ombori, Amudaryo, Payg'ambar oroli.

 **Nomlar:** A. Ro'ziyev, P. Baratov, R. Rahimbekov, Z. Zokirov, Sh. Mirzayev, A. Rasulov, H. Abdullayev, H. Hasanov.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:**

- O'lkada yillik o'rtacha harorat +17°C.
- Yanvarning o'rtacha harorati -1°C, +4°C.
- Iyulning o'rtacha harorati +29°C, +32°C.
- Yoz oylarida harorat 50°C gacha ko'tariladi.
- Vegetatsiya davridagi haroratlar yig'indisi 5500—5960°C.
- Bahorgi sovuq tushish davri 2—15- mart.
- Kuzgi sovuq tushish muddati 20—25- oktabr.
- Sovuq bo'lmaydigan kunlar 227—266 kun.

**Daryolari.** Surxondaryo, To‘polondaryo, Qoratog‘daryo, Sherobodaryo, 60 ga yaqin soylar bor. Bular: Toshko‘mirsoy, Oqqoshsoy, Quruqsoy, Sho‘rchisoy, Lalmikorsoy, Lovlovsoy, Sangardak, Xo‘jai pok, Irg‘ali, Qizilsoy va boshqalar.

Jayronxona, Ko‘kayda, Lalmikorda shifobaxsh suvlar bor.

Surxondaryo o‘lkasi tabiiy-geografik jihatdan 2 qismga bo‘linadi. Bular: Termiz-Denov va Sherobod tabiiy rayoni.

### ❓ Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi raqamlar asosida yog‘in ko‘p tushadigan ikkita faslning toping.

46—48%, 43—44%, 8—10%, 1—2%. Fasllar nomini yozing.

2. O‘lkadagi daryolar nomlarini o‘qing.

\_\_ \_ a \_ \_ \_ \_ , \_ a \_ a \_ a \_ , \_ \_ o \_ o \_ \_ \_ \_ \_ ,  
\_ \_ o \_ o \_ .

3. Payg‘ambarorolda qo‘riqlanadigan 4 ta o‘simlik va 4 ta hayvon nomlarini o‘qing.

a) \_ \_ \_ sh, \_ \_ \_ \_ \_ ak, \_ \_ \_ da, \_ \_ v, \_ \_ \_ gul \_  
\_ \_ \_ iz, \_ \_ \_ \_ \_ i, tojdor \_ \_ \_ \_ \_ uk;


b) Hisor \_ o \_ \_ \_ \_ \_ , o \_ \_ \_ \_ o \_ , \_ kk \_ , k \_ k \_ \_ k, \_  
u \_ \_ u \_ , k \_ \_ \_ \_ k, \_ i \_ \_ \_ \_ i \_ .  
\_ \_ \_ o \_ o \_ , \_ o \_ \_ \_ O \_ .


4. „Qizil kitob“ga tushgan xongul Surxondaryodagi qaysi qo‘riqxonada asraladi?


## 28- dars


### 📖 Darsning mavzusi. Qizilqum


👉 **Darsning maqsadi.** O‘zbekiston tabiiy o‘lkalari haqidagi geografik tassavur va bilimlarni chuqurlashtirishda davom etish; Qizilqum geografik o‘rni, geologik tuzilishi, rivojlanish tarixi, asosiy relyef shakllari bilan tanishish; o‘lka foydali qazilmalariga ta’rif berish; o‘lka iqlimi va suvlari, tuproqlari, o‘simligi va hayvonot dunyosi haqida tasavvurlar hosil qilish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; Qizilqumning beqiyos foydali qazilmalari haqida yorqin tasavvurlar hosil qilish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, tektonik, iqlim, ichki suvlari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari, diafilm, jadvallar, sxema, yozuvsiz xarita, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan tushuncha va bilimlarni takrorlash, yangilari bilan tanishish; Qizilqumning geografik o'rnini, yer yuzasining asosiy xususiyatlari, chegaralari haqida savol-javob va suhbat; o'lka yer yuzasining geologik tuzilishi va geologik taraqqiyoti haqida o'qituvchi hikoyasi; o'lka iqlimiy sharoiti va ichki suvlari haqida savol-javob; Qizilqum tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida suhbat; mustaqil ish—xarita, darslikdan foydalanib Qizilqum tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi jadvalini tuzish; Qizilqum tabiat komponentlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida o'quvchilarning atlas, xarita, darslik asosida mustaqil ishlarini tashkil etish; yozuvsiz xaritaga muhim tabiiy obyektlarni tushirish.

 **Atama va tushunchalar:** arid zona, yer po'sti plitasi, tog' jinslari, vaqtinchalik oqar suvlar, artezian suvlar, barxan, gryada, allyuvial jins, elyuviy, konglomerat, keskin kontinental iqlim, o'simliklar, to'zima qum, efemer, efemeroid, sho'rxok, qoldiq tog'lar, eroziya, dyuna.

 **Geografik obyektlar:** Qizilqum, Sulton Uvays, Bo'kantog', Tomditog', Ovminzatog', Qozoqtog', Quljuqtog', Mingbuloq botig'i, Mulali botig'i, Oyoqog'itma ko'li, Turon plitasi, Yetimtog', Oyoqog'itma botig'i, Qoraxotin botig'i, Tetis.

 **Nomlar:** V.A.Obruchev, I.Hamroboyev, P.Baratov, M.Qoriyev, L.A.Babushkin, G.O.Xojiboyev, H.Abdullayev, H.Hasanov, I.Nazarov.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar**

Nomi	Eng baland joy, m	Jinslar qoplami	Xususiyatlari
Bo'kantog'	764	Paleozoy erasining kristalli jinslari	Tog'lar vaqtinchalik oqar suvlar ta'sirida o'yilgan,
Tomditog'	922	—	Cho'qqilar yemirilgan,
Ovminzatog'	649	—	ustki qismi

1	2	3	4
Quljuqtog'	785	—	quyosh nuri
Sulton Uvays tog'i	473	—	ta'sirida parchala-
Yetimtog'	568	—	nib ketgan, o'sim-
Qozoqtog'	394	—	lik qoplami kam-
			bag'al

Qizilqum tog'lari.

— Qizilqumning o'rtacha mutlaq balandligi 200—300 m, eng past qismi shimoli-g'arb hisoblanadi — 90—100 m .

— Qizilqumning asosiy relyef shakllari botiq, tekislik, yassi plato, qoldiq tog', barxanlar.

— Zol relyef shakllari: qum marzalari, do'ng qumlar, barxanlar, qum marzalari balandligi 15—20 m, eng baland joyi 60—70 m keladi.


### ❓ Savol va topshiriqlar


- Qizilqum o'lkasi O'zbekistonning qaysi qismida joylashgan?
  - G'arbida
  - Sharqida
  - Markazida
- Yer yuzasining asosiy qismi nima bilan qoplangan?
  - Qum.
  - Tog'.
  - O'simlik.
- Qizilqum zamini qachon va qaysi davr yotqiziqlaridan tuzilgan?
  - Paleozoy.
  - Mezozoy.
  - Kaynozoy.
- Qizilqum yer yuzasi qaysi davr yotqiziqlari bilan qoplangan?
  - To'rtlamchi va paleogen.
  - Bo'r, trias.
  - Yura, karbon.


## 29- dars


**📖 Darsning mavzusi.** Quyi Amudaryo. Geografik o'rni, yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari


**👉 Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiiy geografik o'lkalari haqidagi tassavur va bilimlarni shakllantirishni davom ettirish; xaritalar asosida Quyi Amudaryo o'lkasi geografik o'rni, chegaralari, yer yuzasining tuzilishi bilan tanishish; o'lka geologik tuzilishi va geologik taraqqiyotiga ta'rif berish; o'lka foydali qazilmalari bilan tanishish; geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; Quyi Amudaryoning asosiy tabiat komponentlari to'g'risida o'quvchilarda tasavvurlar hosil qilish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, foydali qazilmalari xaritalari, Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati xaritalari, sxema, jadval, diafilm, tog' jinslari, namunalari, kitoblar, yozuvsiz xaritalar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda olingan tushuncha va bilimlarni takrorlash; o'lka yer yuzasining tuzilishi, relyef hosil bo'lishidagi asosiy omillar haqida savol-javob suhbat, o'lkaning geologik tuzilishi, geologik taraqqiyoti haqida o'qituvchi hikoyasi; o'lkada tarqalgan foydali qazilmalar joylanishi qonuniyatlari haqida o'qituvchi tushuntirishi; mustaqil ish: o'lka yer yuzasi geografik kesimini tahlil qilish; amaliy mashg'ulot, relyefga oid obyektlarni yozuvsiz xaritaga tushirish; mavzuni geografik o'yin tarzida umumlashtirish; o'quvchilar bilimini test savollari asosida tekshirib ko'rish; Quyi Amudaryo haqida diafilm, jadval, rasmlarni ko'rish.

 **Atama va tushunchalar:** daryo deltasi, voha, yassi tekislik, qayir, marzasimon relyef, quruq o'zan, qir, cho'llanish, antropogen jinslar, voha.

 **Geografik obyektlar:** Quyi Amudaryo, Turon tekisligi, Orolqum, Turon plitasi, Amudaryo deltasi, Amudaryo, • Qushkanotog' qiri, Beltog' qiri, Orol dengizi, Toshquduq qumi, Qizilqum, Xorazm-Toshhovuz tekisligi, Tuyamo'yin tangligi, Qoratorov, Qumbeltov, Jumirtov, Kuchkan.

 **Nomlar:** Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, V. A. Obruchev, I. Hamroboyev, P. Baratov, R. Qurbonniyozov, Y. Umarov, T. Ollaberganov, N. Kubro.

 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:**

**O'lkaning umumiy tabiiy geografik tavsifi**

— Umumiy maydoni 46 ming kv. km.

— Shimolda Orol dengizi bilan, janubda Qoraqum, g'arbda Ustyurt platosi, sharqda va janubi-sharqda Qizilqum bilan chegaradosh.

— Asosan, yassi tekislik.

— Janubi-sharqdan, shimoli-g'arbgacha 400 km ga cho'zilgan.

— O'lka zamini bo'r davri yotqiziqlaridan, usti esa Kaynozoy erasi yotqiziqlaridan iborat.

— Yer yuzasi janubi-sharqdan shimoli-g'arbgacha tomon pasaya boradi.

— Amudaryo deltasidagi cho'kindi loyqa qalinligi 80 m ga yetadi.




— Foydali qazilmalardan binokorlik materiallari, osh tuzi mavjud.


— Yer relyefi o'zgarishida inson xo'jalik omili katta rol o'ynaydi.


### ❓ Savol va topshiriqlar


1. Quyi Amudaryo yer yuzasi qanday xususiyatga ega?
  1. Tekislik.
  2. Tog' va qir.
  3. Marzasimon yassi tekislik.
2. O'lka yer yuzasi qaysi davr jinslari bilan qoplangan?
  1. Antropogen.
  2. Bo'r.
  3. Karbon.
3. Tuyamo'yin tangligining balandligi qancha?
  1. 150 m.
  2. 171 m.
  3. 200 m.
4. Sug'oriladigan yerlarda agroiirrigatsiya qatlami qalinligi qancha?
  1. 4—5 m.
  2. 2—3 m.
  3. 1 m.

### 30- dars

 **Darsning mavzusi.** Quyi Amudaryo iqlimi va suvlari. Tuproqlari. O'simlik va hayvonot dunyosi

 **Darsning maqsadi.** O'zbekiston tabiiy o'lkalari haqidagi geografik tassavur va bilimlarni shakllantirishni davom ettirish; Quyi Amudaryo iqlimiy sharoiti va iqlimini hosil qiluvchi omillarga tavsif berish; o'lka ichki suvlari gidrografik xususiyatlari va joylashishi bilan tanishish; o'lka tuproqlari, ularning hudud bo'ylab tarqalish qonuniyatlarini ko'rib chiqish; o'lka o'simliklari va hayvonot dunyosi; ularning hudud bo'ylab tarqalishi bilan tanishish; geografik bilim manbalari va xaritalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; Quyi Amudaryo tabiat komponentlari o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishi masalalarini ochib berish.

 **Ko'rgazma materiallar.** O'zbekistonning tabiiy, iqlim, ichki suvlari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari, Quyi Amudaryo o'lkasi xaritalari, sxema, jadval, yozuvsiz xaritalar, tuproq namunalari, rasmlar, kitoblar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** O'quvchilarga avvalgi darslardan ma'lum bo'lgan atama va tushunchalarni takrorlash, yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; o'lka iqlimini hosil qiluvchi omillar haqida ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda suhbat; o'lka ichki suvlari va Orol muammosi sabablari

haqida o'qituvchi hikoyasi: o'lka tuproqlari, ularning hosil bo'lishi va tarqalishi haqida savol-javob, o'lka o'simlik va hayvonot dunyosi haqida o'qituvchi hikoyasi; amaliy mashg'ulot — darslik va ko'rgazmali qurollardan foydalanib o'lka tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi jadvalini to'ldirish; yozuvsiz xaritaga eng muhim gidrografik obyektlarni tushirish; o'lka tabiat komponentlari haqida o'quvchilarda yorqin xotiralar va tasavvurlar hosil qilish uchun rasm, kitob, diafilm va boshqa ko'rgazmalardan foydalanish.

☞ **Atama va tushunchalar:** keskin kontinental iqlim, siklon, antisiklon, quyosh radiatsiyasi, yalpi radiatsiya, arid zona, bug'lanish, yog'in miqdori, foydali harorat, degish, delta, allyuvial tuproqlar, elyuviy, eol, chirindi miqdori, tashlama suvlar, qo'riqxonasi, o'zak, qayir, grunt suvlari.

🗺 **Geografik obyektlar:** Xorazm vohasi, Orol dengizi, Amudaryo, Toldiq, Quvonishjarma, Qilichniyozboy kanali, Qizketgan kanali, Kegayli kanali, Toshsoqa kanali, Tuyamo'yin suv ombori, Bodayto'qay qo'riqxonasi, Qipchoqdaryo, Qozoqdaryo, Erkindaryo, Sudachye.

👤 **Nomlar:** Z. Zohidov, A. Rasulov, M. Qoriyev, V. Sizerling, N. Kogay, P. Babushkin, T. Ollaberganov, R. Qurboniyozov, E. Umarov.

📖 **Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:**

— Hududda Amudaryoning Orol tomon yo'nalgan eng qadimiy o'zanlari bo'lgan. Bular: Shartonboy, Qorao'zan, Kindiksoy, Qorako'lsoy, Ko'hnadaryo, Dovdon, Daryolik.

— 1878- yilda Ko'hnadaryo o'zanidan Sariqamish ko'liga 60 kub metr/sek suv oqqan.

— Hududda o'rtacha yillik harorat 10°C—12°C, yanvarning o'rtacha harorati —4,5°C —7,5°C. (Xivada —4,5°C; Chimboyda —7,5°C).

— Eng past harorat —33°C, —35°C ga tushgan (Taxiatosh). Yillik yog'in 75—110 mm.

— Yillik yog'inning 45% i bahorda, 35% i qishda, 5% i yozda, 15% i kuzda yog'adi.

— Amudaryo Sulton Uvays, Jumurtov, Qorator orasida torayib, 450—480 m ni tashkil etadi.

— Qoratorodan o'tgach Amudaryo vodiysi kengayib 10 km ga yetadi.

— Amudaryo Nukusdan oʻtgach, quyidagi tarmoqlarga boʻlinadi: Qipchoqdaryo, Oqdaryo, Erkindaryo, Koʻhnadaryo, Qoraboyzuk, Qozoqdaryo va h. k.

— 1960- yilda Amudaryo Orolga 37,8 km kub suv quygan boʻlsa, 1965- yilda 25,2 km. kub, 1975- yilda 10 km. kub, 1980- yilda 8,3 km. kub, 1985- yilda 2,4 km. kub, quygan, 1986, 1990- yillarda va hozirda suv deyarli tushmayapti.

— Quyi Amudaryoda 100 dan ziyod koʻl bor. Bular: Qadimiy deltada Toʻngʻizkoʻl, Shoʻrkoʻl, Ziyokoʻl, Oqkoʻl, Abilkoʻl va h. k.

Hozirgi deltada Moshankoʻl, Xoʻjakoʻl, Sudachye, Qorateren va h. k.

— Grunt suvining yer yuziga yaqinligi oʻrtacha, yillik chuqurligi 0,8 m — 2,7 m (bahorda 0,4—0,6 m, qishda 2,2—3,6 m), choʻlga borgan sari yer osti suvlari chuqurligi 20 dan 40 metrgacha boradi

— Grunt suvlarining 1 litrida 2—5 gr dan 10—50 grgacha tuz bor.

— Asosiy tuproqlari: oʻtloq-botqoq, oʻtloq-allyuvial, oʻtloq-taqir, botqoq.

— Oʻsimliklari: toʻqay, golofit, psammofitlardan iborat.

— Quyi Amudaryo quyidagi tabiiy rayonlarga boʻlinadi:

1. Chimboy-Qoʻngʻirot (shimolda Orol koʻli, gʻarbda Ustyurt, sharqda Beltov, janubda Xorazm bilan chegaradosh).

2. Beltov (gʻarbda Chimboy-Qoʻngʻirot chizigʻidan sharqda to Orol koʻli va Qozogʻistongacha boʻlgan hududlarni egallaydi).

3. Xorazm (Amudaryoning qadimiy deltasini oʻz ichiga oladi).

### Savol va topshiriqlar

1. Quyi Amudaryo tabiiy geografik oʻlkasining iqlimi qaysi omillar taʼsirida tarkib topadi?


2. Amudaryoning oʻziga xoc xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Orol dengizi nima uchun quriy boshladi?


4. Orol dengizi fojiasi atrof-muhitga qanday taʼsir koʻrsatmoqda?


### 31- dars


 Dars mavzusi. Ustyurt


 Darsning maqsadi. Oʻzbekiston tabiiy geografik oʻlkalari haqidagi bilim va tasavvurlarni shakllantirishni davom ettirish; oʻquvchilarni Ustyurt tabiiy-geografik oʻlkasining geografik


- oʻrni va chegaralari bilan tanishtirish; oʻlka yer yuzasi, geologik tuzilishi, geologik taraqqiyoti bosqichlarini ochib berish; oʻlka hududida tarqalgan foydali qazilmalar va ulardan foydalanishning istiqbollariga taʼrif berish; oʻlka iqlimiy sharoiti, iqlim hosil qiluvchi omillari, ichki suvlari bilan tanishish; oʻlka tuproqlari, ularning hosil boʻlishi; oʻsimlik va hayvonot dunyosining hudud boʻylab tarqalishi bilan tanishish; geografik bilim manbalari bilan ishlash koʻnikmalarini shakllantirishni davom ettirish.

 **Koʻrgazma materiallar.** Oʻzbekistonning tabiiy, iqlim, geologik, tektonik, ichki suvlari, foydali qazilmalari, tuproq, oʻsimlik va hayvonot dunyosi xaritalari, oʻlka xaritasi, sxema, jadval, rasmlar, togʻ jinslari namunalari, tuproq namunalari, diafilm, kitob va maqolalar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalgi darslarda oʻrganilgan atama va tushunchalarni takrorlash, yangilari bilan tanishish; oʻlka geografik oʻrni, yer yuzasining asosiy shakllari, chegaralarini suhbat tarzida ochib berish; oʻlka yer yuzasining geologik tuzilishi va yer poʻsti rivojlanishining asosiy bosqichlari haqida oʻqituvchi hikoyasi; oʻlka iqlimiy sharoiti va iqlimni hosil qiluvchi omillari, ichki suvlari haqida savol-javob va suhbat; oʻlka tuproqlari, ularning hosil boʻlishi haqida oʻqituvchi hikoyasi; darslik va xaritalar boʻyicha mustaqil ish — Ustyurtning oʻsimlik va hayvonot dunyosi, tuproqlari jadvalini tuzish; ayrim oʻsimliklar va hayvonlar haqida oʻquvchilarning qisqa maʼruzalari, Ustyurtda olib borilayotgan geografik tadqiqotlar va uning ekologik muammolari haqida oʻqituvchi axboroti.

 **Atama va tushunchalar:** plato, chink, plita, bukilma, koʻtarilma, botiq, foydali harorat, landshaft, yogʻin miqdori, tuproq qoplami, kserofit, efemer, efemeroid, shoʻrxoklar, arid, denudatsiya, eol, mergel, gil.

 **Geografik obyektlar:** Ustyurt platosi, Qorabovur qirlari, Kassarma koʻtarilmasi, Borsakelmas botigʻi, Asakaovdon botigʻi, Qoplonqir platosi, Borsakelmas shoʻrxogi, Sariqamish botigʻi, Shimoliy Ustyurt, Markaziy Ustyurt, Janubiy Ustyurt.

 **Nomlar.** Bekovich-Cherkasskiy, R. Rahimbekov, P. Baratov, T. Mirzaliyev, N. A. Kogay, L. N. Babushkin, E. M. Mirzayev, Y. Umarov.

## Darsga oid qo‘shimcha ma‘lumotlar:

### O‘lka yer yuzasi, geologik tuzilishi, tuproqlari, o‘simliklari, iqlimi

O‘lka tabiiy geografik qismlari	Geologik tuzilishi	Tuproqlari	O‘simliklari	Iqlimi
1. Shimoliy Ustyurt	Neogen yotqizilari, Orol - bo‘yi qismida paleogen yotqizilari	Sur tusli qo‘ng‘ir cho‘l tuproqlari Orolbo‘yida sho‘rxoklar	Sho‘ra, saksovul, yulg‘un, burgan, boyalich, shuvoq	Yanvarning o‘rtacha harorati $-8^{\circ}\text{C}$ , iyulniki $+26^{\circ}\text{C}$
2. Markaziy Ustyurt (Borsakel-mas botig‘i)	To‘rtlamchi davr yotqizilari, neogen yotqizilari	Sho‘rxok, shimolida qumli oho‘l tuproqlari, sur-qo‘ng‘ir tuproqlar	Borsakel-masda o‘simlik deyarli o‘smaydi, burgan guruh-lari	Yanvar o‘rtacha harorati $-6^{\circ}\text{C}$ , iyul o‘rtacha harorati $+27^{\circ}\text{C}$
3. Janubiy Ustyurt	Asosiy qismi neogen yotqizilari, Asakaovdon botig‘ida to‘rtlamchi davr yotqizilari	Taqirsimon cho‘l tuproqlari, sur-qo‘ng‘ir tuproqlar	Shuvoq, boyalich Asakaovdonda bir yillik sho‘ra, qora saksovul, burganlar	Yanvar o‘rtacha harorati $-5^{\circ}\text{C}$ , iyul o‘rtacha harorati $+27^{\circ}\text{C}$

— Ustyurtning mutlaq balandligi 100 — 200 m, arid-denudasion plato bo‘lib, chinklar bilan o‘ralgan.

— Chinklarda jarliklar ko‘p.

— Ustyurt kimmeriy burmalanishda paydo bo‘lgan degan taxminlar bor.

— Ustyurtda botiqlar, sho‘rxoklar, balandlik relyef shakllari anchagina.

— Ustyurtning baland qismi Qorabovur balandligi (286 m) hisoblanadi.

— Yanvarning o‘rtacha harorati  $-11 - 12^{\circ}\text{C}$ , iyulniki  $27 - 28^{\circ}\text{C}$ .

— Eng past harorat  $-37 - 38^{\circ}\text{C}$ , eng yuqori harorat  $44 - 45^{\circ}\text{C}$  ga yetadi.


- Bahorgi sovuq tushishining oxirgi muddati 15- may.
- Kuzgi birinchi sovuq tushishi 5- oktabr.
- Foydali haroratlar yig'indisi juda kam bo'lib, 1890°C ni tashkil etadi.
- Yillik yog'inning 17% i qishda, 34% i bahorda, 23% i yozda, 26% i kuzda tushadi.
- Yer osti suvlari chuqurligi o'rtacha 20—50 m.
- Umumiy maydonining 90% i sur-qo'ng'ir tuproqlardan iborat bo'lib, uning chirindisi juda kam—0,5—0,8%.
- Ustyurtda noyob hayvonlardan ko'rshapalak, qoplon (gepard), Ustyurt qo'yi, qoraquloq, Hind asalxo'ri uchraydi.
- Ustyurt 3 qisimga bo'linadi:
  1. Shimoliy Ustyurt.
  2. Markaziy Ustyurt.
  3. Janubiy Ustyurt.


### ❓ **Savol va topshiriqlar**


1. Ustyurt tabiiy geografik o'rining o'ziga xosligi nimadan iborat?
2. Ustyurtning yer usti tuzilishi janubdan shimolga tomon qanday o'zgara boradi?
3. Ustyurt o'lkasini qanday magistral gaz quvurlari va temiryo'l kesib o'tadi?

## 32- dars

 **Darsning mavzusi.** Tabiatga ekskursiya.

 **Ekskursiyaning maqsadi.** Darslarda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash; aksariyat atama va tushunchalarni amalda ko'rish, his qilish, tuproq, o'simliklar, hayvonot dunyosi rasmlarini, ularning kolleksiyalarini yig'ish; ekskursiyaga borilgan hududning ekologik va geografik muammolarini ochib berish; joyning qanday THK, landshaftga taalluqli ekanligini ochib berish; mahalliy obyektlar misolida tabiat bilan jamiyat, inson bilan tabiat o'rtasidagi murakkab aloqadorlik masalalarini ko'rib chiqish.

 **Ko'rgazmali qurollar.** Kitob, atlas, daftar, sirkul, chizg'ich, o'chirg'ich, nivelir, teodolit, kompas, lentalar, durbin va boshqalar.

 **Darsni uyushtirish shakllari.** Avvalo, 2— 3 hafta oldin ekskursiyaga tayyorgarlik boshlanishi kerak. Bu bosqich quyidagicha bo'ladi:

Ekskursiyaga tayyorgarlik bosqichi. Bunda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi tayyorgarligi asosiy o'rinni egallaydi. Ammo asosiy material o'qituvchi zimmasiga tushadi. O'qituvchi tayyorgarlik jarayonida ekskursiyaga boriladigan obyekt uchun zarur bo'ladigan adabiyotlarni, xaritalarni va boshqa materiallarni tayyorlaydi.

Ekskursiyani o'tkazish bosqichi.

Hisobot yozish bosqichi.

Geografiya o'qituvchisi, avvalo, ekskursiya obyektini xarita va adabiyotlar hamda mahalliy aholi yordamida atroflicha o'rganadi. Keyinchalik ekskursiya marshruti (yo'nalishi) belgilanadi. Tayyorgarlik jarayonida ekskursiyada qanday masalalarni o'rganish zarurligiga e'tibor qaratiladi. Ekskursiyaga boriladigan marshrutni, avvalo, o'qituvchining o'zi ko'rib chiqishi, o'quvchilarning nimalarni ko'rish, nimalarni yozish, chizish, qaysi obyektни rasmga tushirish, qanday amaliy ishlarni bajarishi kerakligini aniqlab oladi.

O'qituvchi ekskursiya obyektini dastlabki ko'rib bo'lganidan keyin uni uyushtirish rejasini tuzib chiqadi. Agar ekskursiya ishlab chiqarish korxonasiga mo'ljallangan bo'lsa, avvalo, uning texnologik jarayonini o'zi ko'zdan kechirishi, korxonada mutaxassislari, ishchilar bilan uchrashishi kerak. Eng muhimi korxonada ma'muriyati bilan ekskursiyani uyushtirish vaqtini, ekskursiyani o'tkazuvchi mutaxassisni aniqlab qo'yishi kerak. O'quvchilar diqqatini nimalarga qaratish kerakligi hamda ekskursiyaning maqsadi, vazifalari, marshruti, rejasini haqida mutaxassisni ogohlantiradi. O'quvchilarga korxonaning qisqacha tarixi bilan tanishish vazifalarini mustaqil aniqlash topshiriladi.

Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya uyushtirilganda ham, tabiatga uyushtirilganda ham o'quvchilarni, albatta, xavfsizlik texnikasi masalalari bilan oldindan tanishtirish maqsadga muvofiq. Bunday korxonalariga ekskursiya uyushtirishda qancha o'quvchini olib borish ham oldindan belgilab olinishi kerak. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya uyushtirilganda o'quvchilar soni 20 — 25 tadan oshmasligi maqsadga muvofiq. Shunda ta'lim samaradorligi yuqori bo'ladi.

O'quvchilarni ekskursiyaga tayyorlash ham eng mas'uliyatli vazifalardan biri sanaladi. Ekskursiyaning maqsadi, vazifalarini o'quvchilar mustahkam egallashi zarur. O'qituvchi eng muhim geografik bilimlarni o'rgatishi, tushunchalar bilan tanishtirishi

kerak. Xaritalar yordamida ekskursiya marshruti, obyektning geografik o'rnini, uning qulay va noqulay tomonlari atroflicha o'rganilishi maqsadga muvofiq. Agar ekskursiya qishloqdagi mashina-traktor parkiga mo'ljallangan bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilarning bu obyekt haqidagi bilimlarini aniqlaydi. Ayrim o'quvchilarning bu obyekt haqidagi butun sinf o'quvchilariga hikoya qilib berishi uyushtiriladi. Bunday tadbirlarning barchasi o'quvchilarning ekskursiyaga bo'lgan havasini oshiradi.

Ekskursiya uyushtirishdan oldin sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi, har bir guruhga faol o'quvchilardan rahbarlar belgilanadi. Har bir guruhga topshiriqlar taqsimlab chiqiladi. Ekskursiya uyushtirish uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va vositalar aniqlanadi. Guruhdagi barcha o'quvchilar ekskursiya jarayonida qanday vazifalarni bajarishlari, nimalarni yig'ishlari ham aniqlab olinadi. O'quvchilar yig'ilgan materiallarni qay tartibda joylashtirilishiga ham e'tibor berishlari kerak. Ma'lumki, barcha ekskursiyalarning maqsadi jamiyat va tabiat haqidagi geografik tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Har bir ekskursiyada ekskursiyaning marshrut davomidagi to'xtash joylari (masalan, relyef shakllari, jarlar, daryo o'zani, jinslarning yotishi va h.k.) albatta, ekskursiya rejasida o'z aksini topishi kerak.

Ekskursiya paytida o'quvchilar faolligini oshirish masalalari ham o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi lozim. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ekskursiya davomida o'quvchilarga beriladigan savollarni oldindan tayyorlab qo'yishlari maqsadga muvofiq.

Ekskursiyada o'quvchilarning mustaqil ishlariga ham alohida e'tibor berish zarur. Agar ekskursiya obyektini unchalik katta bo'lmasa, o'qituvchi oldindan bo'lingan guruhlarini korxonaga bo'limlariga taqsimlaydi va yuboradi. Ularning bajaradigan mustaqil ishlariga rahbarlik qiladi. O'quvchilar diqqatini nimalarga qaratishlari o'qituvchi tomonidan ogohlantiriladi.

Agar ekskursiya obyektini katta bo'lsa, o'quvchilarni guruhlariga taqsimlamasdan ekskursiya uyushtiriladi. Chunki bunday obyektlarda o'quvchilarni boshqarish ancha mushkul bo'lib qoladi.

Tabiiy va iqtisodiy ekskursiyalar mazmunan bir-biridan farq qiladi.

## II. Tabiiy geografiya fanidan ekskursiya uyushtirish:

1. Kirish suhbatini, atrof-muhitning umumiy tavsifi. Ekskursiyaning maqsadi, vazifalarini tushuntirish.

2. Tanlangan tabiat obyektida relyef, tog' jinslari, o'simlik, tuproq qatlami, daryo, soy va ko'llar yorqin namoyon bo'lishi kerak.



3. Tabiiy-hududiy kompleksni (THK) qanday ajratish kerakligi, uni ta'riflash metodikasi, THK elementlarini kundalikka tushirish, tabiatda o'quvchilar o'zlarini qanday tutishlari kerakligini (his qilish zarurligini) uqtirish.

4. Tabiatni o'rganish bo'yicha tuzilgan guruh va brigadalarining mustaqil ishlari nimalardan iborat bo'lish.

5. Ekskursiya hududi yurish uchun yaroqli bo'lishi.

6. Yakuniy suhbat uyushtirish, kuzatish va tekshirish natijalari, ularning to'g'riligini tekshirish yig'ilgan materiallarni hamda hisobotlarni tartibga solish.

### **⊗ Savol va topshiriqlar**

Ekskursiyada obyektlar quyidagi tartibda o'rganilishi maqsadga muvofiq.

1. Geografik o'rimi:

- a) joyning geografik koordinatlari;
- b) qaysi issiqlik mintaqasida joylashganligi;
- d) okean va dengizlardan qancha uzoqlikdaligi;
- e) dengiz sathidan balandligi.

2. Tabiatning tarkibiy qismlariga ta'rif:

- a) yer yuzasi shakllari;
- b) ularni tashkil etgan tog' jinslari;
- d) jinslar tarkibi;
- e) cho'kindi jinslar.

3. Iqlimi:

- a) yanvar oyining o'rtacha harorati;
- b) iyul oyining o'rtacha harorati;
- d) yillik amplitudasi;
- e) fasllar bo'yicha shamollari.

4. Ichki suvlari:

- a) nomi;
- b) manbasi;
- d) mansabi;
- e) yo'nalishi va nishabi.

5. Tuproqlari:

- a) nomi;
- b) tarkibi va chirindisi;
- d) shu tuproqda o'suvchi o'simliklar.

6. O'simliklari:
  - a) efemer o'simliklar;
  - b) efemeroid o'simliklar;
  - d) dorivor o'simliklar.
7. Hayvonot dunyosi:
  - a) qushlar;
  - b) sudralib yuruvchilar;
  - d) sutemizuvchilari;
  - e) hasharotlari;
  - f) baliqlari.
8. Ekologiyasi:
  - a) tabiiy ekologiyasi.

### 33—34- darslar



**Darsning mavzusi.** Yakunlovchi takrorlash.




**Darsning maqsadi.** „O‘zbekiston tabiiy geografiyasi“ kursini yakunlash va xulosalash.

1. O‘quvchilarda quyidagi bilimlarni aniqlash:
  - Kursdagi asosiy atama va tushunchalarni bilish.
  - O‘zbekiston hududidagi asosiy tabiiy geografik obyektlarni.
  - O‘zbekiston hududidagi asosiy tabiat komponentlarining joylashish xususiyatlarini.
  - Mamlakat hududidagi muhim tabiat obyektlari va hodi-salarini.
  - O‘zbekistonning eng muhim tabiiy resurslarini va ularning mamlakat bo‘ylab joylashishini.
  - O‘zbekistondagi hozirgi kundagi ekologik vaziyat va inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni.
  - O‘z o‘lkasi tabiatini yaxshi bilish.
2. O‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlash:
  - O‘zbekistonning tabiiy va boshqa xaritalaridan mamlakatdagi eng muhim tabiiy geografik obyektlarni topa olishlari.
  - Xaritalar asosida yirik tabiiy geografik o‘lka va rayonlarga kompleks tavsif bera olishlari.
  - Xilma-xil geografik manbalar asosida mamlakat hududida muhim tabiat komponentlarining taqsimlanishini va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ajrata olishni.
  - Turli darajadagi THK lar misolida ulardagi tabiat komponentlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ochib berishni.

— Turli xil materiallar, diafilmlar, rasmlar asosida mamlakatimizdagi obyektlarning qaysi tabiat regioniga taalluqli ekanligini ajratish.

— Ekologik muammolarning vujudga kelish sabablarini ta'riflay olish.

— Geografik bilimlarning u yoki bu masalalarni hal qilishdagi rolini ochib bera olishni (ekologik, ijtimoiy va h.k.).

 **Ko'rgazma materiallr.** O'zbekistonning tabiiy, geologik, foydali qazilmalari, tabiat zonalari, o'simliklar, hayvonot dunyosi, ekologik xaritalari, mamlakat tabiiy o'lkalari xaritalari, 7- sinf atlaslari, jadvallari, kitoblar, diafilmlar va h.k.

## **Darsni uyushtirish shakllari**

### **Geografik diktant uyushtirish:**

- a) tabiiy geografik obyektlar bo'yicha;
- b) atama va tushunchalar bo'yicha;
- d) olimlar va tadqiqotchilar bo'yicha;
- e) xaritadan obyektlarni topish bo'yicha.

### **Amaliy ishlar:**

- a) diafilmlardan tabiiy geografik obyektlarni topa olishni;
- b) rasmlardan qaysi obyekt ekanligini aniqlay olishni;
- d) kitob va boshqa manbalardan ularning mamlakatimizning qaysi hududlariga taalluqli ekanligini aniqlay olishi.

### **Quyidagi topshiriqlarni bajara olishlari:**

- a) tabiiy resurslarning regionlar bo'yicha taqsimlanishini;
- b) xaritadagi tabiiy geografik obyektlarni;
- d) geograf olimlar, tadqiqotchilar, sayyohlarni;
- e) mamlakatdagi noyob tabiiy obyektlar, hodisalarni;
- f) O'zbekistondagi tabiiy geografik o'lkalarga oid xususiyatlarni tushuntirib, gapirib berish.

Har xil geografik o'yinlardan foydalanish: qachon? qayerda? nima?

Dars-disputlar (tortishuvlar), ularni qanday yechish mumkinligi to'g'risida.

### **Ijodiy topshiriqlar**

O'z fikringizni isbotlang. Siz O'zbekistonning qayerida yashagan bo'lar edingiz va h.k. kabilarni.

### **Bilimlarni umumlashtirish uchun savol va topshiriqlar:**

I. Geografik diktant (obyektlar bo'yicha). Bular nimalar?

- |                     |                           |
|---------------------|---------------------------|
| 1. Sudachye.        | 11. Ko'ksuv.              |
| 2. Miyonko'l.       | 12. Piskom.               |
| 3. Hazrati Sulton.  | 13. Qorjantog'            |
| 4. Amu-Buxoro.      | 14. Ko'hitang.            |
| 5. G'ozg'on.        | 15. Jom.                  |
| 6. Manas.           | 16. Nishon.               |
| 7. Payg'ambar orol. | 17. Botirboy.             |
| 8. Qamchiq.         | 18. Chotqol milliy bog'i. |
| 9. Borsakelmas.     | 19. Ilono'tti.            |
| 10. Ovminzatog'     | 20. Taxtaqoracha.         |

## II. Atama va tushunchalarni bilish bo'yicha geografik diktant:

- |                   |                          |
|-------------------|--------------------------|
| 1. Jar.           | 12. Botiq.               |
| 2. Chink.         | 13. Yoz chillasi.        |
| 3. Garmsel.       | 14. Qish chillasi.       |
| 4. Fyon.          | 15. Deygish.             |
| 5. To'qay.        | 16. Marzalar.            |
| 6. Plita.         | 17. Volfram.             |
| 7. Plato.         | 18. Delta.               |
| 8. Vodiy.         | 19. „Qizil kitob“        |
| 9. Voha.          | 20. Qo'riqxon.           |
| 10. Tog' tizmasi. | 21. Milliy bog'          |
| 11. Qoldiqtog'    | 22. Buyurtma (zakaznik). |

## III Geografik diktant:

Tabiat hodisalari bo'yicha. Bu hodisalar O'zbekistonning qaysi regionlarida sodir bo'lishini aniqlang:

- |   |                        |
|---|------------------------|
| 1. Qo'qon shamoli.  | 6. G'orlar.            |
| 2. Mineral buloqlar.  | 7. Deygish.            |
| 3. Sel.   | 8. Zilzila.            |
| 4. Surilma.   | 9. Eng yuqori harorat. |
| 5. Qum bo'ronlari.  |                        |
| 10. Eng past harorat:   |                        |
| a) Farg'ona vodiysi;  | e) Qizilqum;           |
| b) Toshkent-Ohangaron o'lkasi, Farg'ona vodiysi va boshqa joylar; | f) Amudaryo;           |
| d) tog'li hududlar;   | g) Surxondaryo;        |
|   | h) Ustyurt.            |

## O'zbekistonning qaysi tabiiy o'lkasiga xos ekanini ko'rsating

T/r	Tabiiy obyekt va hodisalar	Tabiiy o'lkalar	Javob
1.	Shimoli-sharqdan janubi-g'arbga 280 km ga cho'zilgan vodiy	1. Ustyurt	
2.	Qizilnura cho'qqisi va Qamchiq dovoni bor	2. Quyi Amudaryo	
3.	Neftga boy vodiy	3. Qizilqum	
4.	Oltin, volframga boy o'lka	4. Surxondaryo	
5.	Mis, qo'rg'oshin, ruxga boy	5. Qashqadaryo	
6.	Vatanimizning eng baland cho'qqisi joylashgan	6. Mirzacho'l	
7.	Balandligi bo'yicha ikkinchi cho'qqi bor	7. Zarafshon	
8.	Asosiy tuproqlari sur-qo'ng'ir tuproq	8. Chirchiq-Ohangaron	
9.	Relyefi, asosan, inson faoliyati natijasida shakllangan	9. Farg'ona vodiysi	
10.	Haroratning yillik amplitudasi eng yuqori o'lka		
11.	Eng issiq o'lka		1, 2, 3
12.	Seversev va Botirboy muzliklari bor		4, 5, 6,
13.	Arnasoy ko'llar tizimi joylashgan		7, 8, 9
14.	„Kenglik“ stansiyasi joylashgan		
15.	To'qaylari ko'p o'lka		
16.	Eng yirik milliy bog'i bor		
17.	Noyob archalari bilan mashhur qo'riqxonasi bor		
18.	Yuzdan ziyod kanallar qazilgan o'lka		
19.	Karkidon suv ombori joylashgan o'lka		
20.	Sudraluvchilar va kemiruvchilar makoni bo'lgan o'lka		
21.	Zaharli o'rgimchak va chayonlari ko'p bo'lgan o'lka		
22.	Hisor tog'-archa qo'riqxonasi bor		
23.	Nurota tog'-yong'oqzorlari joylashgan o'lka		
24.	Tuyabo'g'iz suv ombori joylashgan o'lka		

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### I QISM

#### **O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'qitish uslubiyatining umumiy masalalari**

Kursning muhim ta'limiy maqsadlari .....	6
Kursning tarbiyaviy maqsadlari .....	7
O'qituvchilarni qiziquvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadlar .....	7
O'qitish va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning asosiy shakllari .....	8
VII sinf geografiya kursini o'rganishda darsni qayta qurishning asosiy yo'nalishlari .....	8
O'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish .....	11
Geografik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish .....	13
Darslikning tuzilishi va mazmuni .....	15
Darslik matnining tarkibiy qismlari .....	18
Darslikning uslubiy jihozlanishi .....	18
O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati .....	19
O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish tartibi .....	22

### II QISM

#### **„O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi“ mavzulari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**

1- dars. Kirish .....	24
2- dars. O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi haqida tushuncha .....	25
3- dars. O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasining geografik o'rni, chegaralari va o'ziga xoc xususiyatlari .....	27
4- dars. O'rta Osiyoning tekshirilish tarixi .....	29
5- dars. O'rta Osiyo aholisi va siyosiy xaritasi .....	30
6- dars. Xarita andazalari (proyeksiyalari) haqida tushuncha .....	32
7- dars. Geografik xaritalar va ularning shartli belgilari .....	34
8- dars. Xaritalarning turlari. Globus .....	36
9- dars. Xaritalardan foydalanish .....	37
10- dars. Topografik xaritalar .....	39
11- dars. Topografik xaritalardan foydalanish .....	40
12- dars. Vaqt o'lchovi. Soat mintaqalari. Taqvimlar .....	41
13- dars. Geologik vaqt hisobi .....	43
14- dars. O'rta Osiyo hududining rivojlanish tarixi. Foydali qazilmalari .....	45
15- dars. Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari .....	47
16- dars. Iqlimga ta'sir ko'rsatuvchi omillar .....	48

17- dars. Havo massalari. Siklonlar, antisiklonlar .....	50
18- dars. O'lka iqlimining ta'rifi .....	51
19—20- darslar. O'rta Osiyo tog'larining iqlimi. O'rta Osiyodagi iqlimiy tafovutlar .....	52
21- dars. O'rta Osiyoning suvlari. Umumiy tushuncha .....	53
22- dars. O'rta Osiyoning daryolari .....	54
23- dars. Ko'llari va suv omborlari .....	55
24- dars. Yer osti suvlari .....	57
25- dars. Tuproqlar haqida tushuncha .....	58
26- dars. O'rta Osiyo o'lkasida tarqalgan tuproqlar .....	58
27, 28, 29- darslar. O'rta Osiyo o'simliklari .....	59
30- dars. Hayvonot dunyosi .....	60
31- dars. Tabiat zonalari .....	61
32- dars. O'rta Osiyoning tabiiy-geografik rayonlashtirilishi .....	62
33- dars. Turon tabiiy-geografik kichik o'lkasi .....	62
34- dars. Qozog'iston tabiiy-geografik kichik o'lkasi .....	63

### III QISM

#### „O'zbekiston tabiiy geografiyasi“ mavzulari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

1- dars. Kirish .....	64
2- dars. Yer yuzasining asosiy xususiyatlari .....	65
3- dars. Geologik tuzilishi va Yer yuzasining taraqqiyoti Asosiy foydali qazilmalari .....	67
4—5- darslar. O'zbekiston iqlimi .....	68
6- dars. O'zbekistonning ichki suvlari va suv boyliklari .....	69
7- dars. O'zbekistonning ko'llari va suv omborlari. Yer osti suvlari .....	70
8- dars. O'zbekistonning suv boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish .....	73
9- dars. O'zbekistonning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi .....	74
10- dars. Cho'l mintaqasi .....	76
11- dars. Adir mintaqasi .....	78
12- dars. Tog' mintaqasi .....	79
13- dars. Yaylov mintaqasi .....	81
14- dars. O'zbekistonning tabiatini muhofaza qilish .....	83
15- dars. O'zbekistonning tabiiy-geografik o'lkalari .....	85
16- dars. Geografik o'mi. Yer yuzasi geologik tuzilishi va foydali qazilmalari .....	86
17- dars. Iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi .....	89
18- dars. Farg'ona vodiysi. Geografik o'mi. Yer yuzasining geologik tuzilishi va foydali qazilmalari .....	91
19- dars. Farg'ona vodiysi iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi .....	92
20- dars. Mirzacho'l. Geografik o'mi. Yer yuzasi, geologik tuzilishi. Foydali qazilmalari .....	94

21- dars. Mirzacho'l. Iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi .....	95
22- dars. Zarafshon vodiysi. Geografik o'rni. Yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari .....	97
23- dars. Zarafshon vodiysi. Iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi .....	99
24- dars. Qashqadaryo. Geografik o'rni. Yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari .....	101
25- dars. Qashqadaryo. Iqlimi va suvlari. Tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi .....	103
26- dars. Surxondaryo. Geografik o'rni. Yer yuzasi va geologik tuzilishi. Foydali qazilmalari .....	105
27- dars. Surxondaryo. Iqlimi va suvlari. Tuproqlari. O'simlik va hayvonot dunyosi .....	106
28- dars. Qizilqum .....	108
29- dars. Quyi Amudaryo. Geografik o'rni. Yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari .....	110
30- dars. Quyi Amudaryo iqlimi va suvlari. Tuproqlari. O'simlik va hayvonot dunyosi .....	112
31- dars. Ustyurt .....	114
32- dars. Tabiatga ekskursiya .....	117
33—34- darslar. Yakunlovchi takrorlash .....	121



G 37

Geografiya: 7- sinf: O'qituvchilar uchun uslibiy qo'llanma /Mualliflar: **P. G'ulomov, R. Qurbonniyozov** va boshq. —T.: „O'qituvchi“, 2003. — 128 b.

BBK 74.262.6

**Potixkamol G'ulomov, Hurboy Vahobov**  
**Rustam Qurbonniyozov**, **Muhabbat Tillaboyeva**

## **GEOGRAFIYA**

7- .sinf

*O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma*

Toshkent „O'qituvchi“ 2003

Tahririyat mudiri *S. Mirzaxo'jayev*  
Muharrir *R. Mirholiqov*  
Badiiy muharrir *M. Kalinin*  
Texnik muharrir *C. Tursunova*  
Kompyuterda sahifalovchi *N. Ahmedova*  
Musahhah *M. Ibrohimova*

IN № 8157

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 1.07.2003. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>.  
Kegli 11 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 8,0.  
Nashr t. 6,8. 10000 nusxada bosildi. Buyurtma № 100

„O'qituvchi“ nashriyoti. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Shartnoma 07—125—2002.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Toshkent kitob-jurnal fabrikasida bosildi. Toshkent, Yunusobod, Murodov ko'chasi, 1- uy. 2003.

Sotuvga chiqarish taqiqlanadi



„O‘QITUVCHI“